



2025-YIL UCHUN
ESG
HISOBOTI

Mundarija

Mundarija	2
Hisobot haqida	4
Rahbariyat murojaati	5
2025-yil uchun ESG sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar	7
ESG maqsadlari va ko'rsatkichlari GRI 3-3	10
1 bob. Kompaniya haqida	12
Asosiy ma'lumotlar	12
Faoliyat geografiyasi	13
Rivojlanish strategiyasi	15
BRM tamoyillariga sodiqlik	16
Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalar	18
2-bob. Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi	20
Ekologik masalalarni boshqarishga yondashuv	20
Chiqindilarni boshqarish	23
Energiya menejmenti va energiya samaradorligi	25
Issiqxona gazlari emissiyasi	30
Biologik xilma-xillik	32
2026-yil uchun ustuvor ekologik yo'nalishlar	36
3-bob. Ijtimoiy mas'uliyat Xodimlarni boshqarishga yondashuv	37
Xodimlar tarkibi	40
Xodimlarni izlash va jalb qilish	42
Inklyuzivlik va teng imkoniyatlar	44
Xodimlar tarkibini rivojlantirish bo'yicha yondashuv	47
Xodimlarni o'qitish	48
Xalqaro hamkorlik va malaka oshirish	48
Ustoz-shogird tizimi	49
Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi	60
2026-yil uchun mehnat xavfsizligi ustuvor yo'nalishlari	65
Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik	66
2026-yil uchun ijtimoiy yo'nalishdagi ustuvor vazifalar	67
4-bob. Korporativ boshqaruv	68
Korporativ boshqaruv tuzilmasi	68
Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi	73
Kuzatuv kengashi	75
Kuzatuv kengashi qo'mitalari	82
Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi	85
Jamiyat Boshqaruvi va mukofotlash	88
Ichki va tashqi audit	93
ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyasi	96
Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi	97
Tezkor aloqa liniyasi	107
Ilovalar	109

1- ilova. Salmoqlik tahlili	109
2- ilova. GRI Content Index mazmun ko'rsatkichi	111
3- ilova. Glossariy	124
4-ilova. Bog'lanish uchun ma'lumotlar	128
5-ilova. 2026-yil uchun ESG yo'l xaritasi	129

Hisobot haqida

GRI 2-2,2-5

“O‘zbekgeofizika” AJ o‘zining 2025-yil uchun ESG hisoboti (keyingi o‘rinlarda – “Hisobot”)ni taqdim etadi.

Ushbu hisobot Kompaniyaning ESG yo‘nalishidagi asosiy natijalari va ko‘rsatkichlarini taqdim etadi. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) kontekstida jahon miqyosidagi dolzarb chaqiriqlarni hisobga olgan holda tayyorlangan. Hisobotda “O‘zbekgeofizika” AJning ekologik, ijtimoiy va korporativ faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari taqdim etilgan.

Hisobot 2021-yilgi Global Reporting Initiative (GRI) standartlariga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, o‘zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etilgan. Kompaniya hisobotda manfaatdor tomonlar uchun muhim bo‘lgan ESG ma‘lumotlarini ochiq taqdim etadi.

Alohida nomliyaviy hisobot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi №PF-37 sonli Farmoni talablariga ko‘ra nashr etilmoqda – ushbu Farmonga muvofiq, kompaniyalar korporativ va ijtimoiy mas‘uliyat (CSR), shuningdek, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko‘rsatkichlariga oid ma‘lumotlarni muntazam ravishda oshkor etishi shart.

Hisobot kompaniyaning 2025-yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan faoliyatini qamrab oladi hamda ESG yo‘nalishidagi asosiy natijalar va ustuvor rivojlanish yo‘nalishlarini aks ettiradi. Hisobot kelgusida har yili muntazam ravishda e‘lon qilib borilishi rejalashtirilgan. Hisobotning ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha korporativ boshqaruv, audit va komplayens tizimlari doirasida mustaqil tashqi baholash va monitoring mexanizmlari qo‘llanilgan.

Hisobot 2026-yil 25-iyunda e‘lon qilingan.

Hujjat “O‘zbekgeofizika” AJ boshqaruv raisi – Yusupjonov Ravshanjon Anvarovich tomonidan tasdiqlangan va kompaniyaning rasmiy veb-saytida barcha manfaatdor tomonlar uchun erkin foydalanishga taqdim etilgan.

Rahbariyat murojaati

GRI 2-22



**“O‘zbekgeofizika” AJ Boshqaruvi raisi
Yusupjonov Ravshanjon Anvarovich**

Hurmatli hamkasblar va hamkorlar!

Mamnuniyat bilan e‘tiboringizga “O‘zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil uchun ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) hisobotini taqdim etaman.

“O‘zbekgeofizika” AJ uchun ESG tamoyillari shunchaki rasmiy talab yoki hisobot yuritish vositasi emas. Biz ESGni kompaniyaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi, operatsion samaradorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlovchi muhim boshqaruv vositasi sifatida ko‘ramiz. ESG yondashuvi resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni optimallashtirishga yordam beradi. Shuningdek, u ishlab chiqarish xavflarini kamaytiradi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Xalqaro hamkorlar va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ESG tamoyillari xodimlar salohiyatini rivojlantirish, xavfsiz va samarali mehnat muhitini yaratish hamda ichki boshqaruv tizimini takomillashtirishga yordam beradi. Biz ESGni nafaqat iqtisodiy zarurat, balki mas‘uliyatli boshqaruvning ajralmas qismi sifatida qabul qilamiz.

“O‘zbekgeofizika” AJ O‘zbekiston Respublikasi hududida kompleks geofizik xizmatlarni amalga oshiruvchi yetakchi tashkilotlardan biri hisoblanadi. Jamiyat tomonidan bugungi kunga qadar 1000 dan ortiq istiqbolli geologik tuzilmalar aniqlanib, 270 dan ortiq yangi uglevodorod konlari ochilgan. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, kompaniyada 3 183 nafar xodim faoliyat yuritmoqda.

2025-yilda Kompaniya barqaror rivojlanish yo‘nalishida muhim natijalarga erishdi. Xususan, qayta tiklanmaydigan yoqilg‘i iste‘moli 2024-yilga nisbatan 181 244 GJdan 160 098 GJga kamayib, 12 foizga qisqardi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmi 455 GJdan 698 GJga oshib, 53 foizga o‘tdi. Elektr energiyasi iste‘moli 7 419 GJdan 5 937 GJga kamaydi (-20%), issiqlik energiyasi iste‘moli esa 4 037 GJdan 3 400 GJga qisqardi (-16%). Umumiy energiya iste‘moli 193 155 GJdan 183 350 GJga kamayib, energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligini tasdiqladi.

2025-yil yakunlariga ko'ra Kompaniya sof foydasi 20,3 milliard so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan kamaygan bo'lib, bu bir qator obyektiv omillar bilan izohlanadi. Jumladan, davlat buyurtmalari doirasida ish hajmlarining 6 foizga qisqartirilishi, ayrim loyihalarda operatsion jarayonlarning murakkablashuvi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Jambulok loyihasida dala ishlari vaqtincha to'xtatilgan va loyiha boshqa hududga ko'chirilgan, Qarovulbozor loyihasida esa texnik talablarning murakkablashuvi va mavsumiy omillar ish samaradorligiga ta'sir qilgan.

Shu bilan birga, geofizika xizmatlari tarkibida perforatsiya ishlarining ulushi oshgani sababli material sarfi ham ko'paydi, bu esa xarajatlarning ortishiga olib keldi. Biroq, ushbu ishlar hajmining oshishi Kompaniyaning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qildi.

Kompaniya 2025-yilda erishilgan natijalarga tayangan holda, barqaror rivojlanish yo'nalishida kelgusi davr uchun ustuvor vazifalarni belgilab oldi. Xususan, 2026-yil uchun ESG yo'l xaritasi ishlab chiqilib, unda ekologiya, ijtimoiy mas'uliyat, mehnat xavfsizligi va korporativ boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu yo'l xaritasi doirasida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, xodimlar salomatligi va xavfsizligini ta'minlash hamda korporativ boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi.

Shunday qilib, ESG tamoyillari Kompaniya faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, biz uni uzoq muddatli strategik rivojlanishning muhim yo'nalishi sifatida ko'ramiz.

Ishonchim komilki, mazkur hisobot manfaatdor tomonlar bilan ochiq va konstruktiv muloqotni davom ettirish hamda hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Hurmat bilan,
Yusupjonov Ravshanjon Anvarovich
"O'zbekgeofizika" AJ Boshqaruv rasi

2025-yil uchun ESG sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar

1- jadval. Ekologik ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar, Gj	2023	2024	2025	O'zgarish, %
Qayta tiklanmaydigan yoqilg'i manbalaridan yoqilg'i iste'moli, yoqilg'i turlariga ko'ra (XARID)				
Benzin	6 243.61	5 125.44	3 881.44	-24
Tabiiy gaz	16 009.53	18 165.52	13216.4	-27
Boshqa (Metan gaz)	5 050.98	4 503.58	3 670.90	-18
Dizel yoqilg'isi	166 075.03	150 453.75	149 736.84	0
Propan (suyultirilgan)	4 494.44	2 995.25	2 809.21	-6
Jami:	197 874	181 244	160 098	-12
Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan energiya iste'moli, energiya turlariga ko'ra				
Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan energiya iste'moli	277	455	698	53
Jami:	277	455	698	53
Iste'mol uchun sotib olingan energiya hajmi, energiya turlariga ko'ra				
Elektr energiyasi	7 826	7 419	5 937	-20
Issiqlik energiyasi (isitish uchun)	4 179	4 037	3 400	-16
Jami:	12 005	11 456	9 337	-18
Umumiy energiya iste'moli **	210 156	193 155	183 350	-5

** ikki karra hisoblashning oldini olish uchun o'z ishlab chiqarilgan energiya hisobga olinmagan

2- jadval. Moliyaviy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	2023	2024	2025
1. Yaratilgan to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy qiymat	566 176 273	561 689 605	540 126 729
Daromad (tushum)	555 677 220	554 355 072	533 768 083
Moliyaviy investitsiyalardan daromad	0	0	0
Moddiy aktivlarni sotishdan daromad	0	0	0
Boshqa tushumlar	10 499 053	7 334 533	6 358 646
2. Ta'qsimlangan iqtisodiy qiymat	616 634 495	588 081 799	581 333 601
Amaliyot xarajatlari	184 707 280	156 437 109	156 802 002
Ish haqi, boshqa to'lovlar va xodimlarga imtiyozlar	259 125 810	271 479 827	271 871 435
jumladan ish haqi	259 125 810	271 479 827	271 871 435
jumladan boshqa to'lovlar va imtiyozlar	0	0	0
Kapital ta'minotchilariga to'lovlar	32 672 462	29 935 786	23 014 789
jumladan to'langan dividendlar	28 360 096	22 740 290	13 774 645
jumladan moliyaviy xarajatlar	4 312 366	7 195 496	9 240 144
Boshqa xarajatlar	0	0	0
Davlatga to'lovlar	140 128 943	130 229 077	129 645 375
jumladan foyda solig'i	16 303 736	9 247 433	4 862 776
Mahalliy hamjamiyatlarga investitsiyalar	0	0	0
3. Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat	76 861	278 448	183 000

3- jadval. Ijtimoiy ko'rsatkichlar

№	Ko'rsatkich	2023	2024	2025	O'zgarish, %
1	Erkaklar	3 122	2 871	2664	-7%
2	Ayollar	598	558	519	-6%
3	<i>Jami</i>	3 720	3 429	3 183	-7%

ESG maqsadlari va ko'rsatkichlari

GRI 3-3

"O'zbekgeofizika" AJ barqaror rivojlanish yo'nalishida 2026-yil uchun aniq va o'lchab bo'ladigan maqsadlarni belgilab oldi. Ushbu maqsadlar Kompaniyaning ESG yo'l xaritasi asosida shakllantirilgan bo'lib, ularning bajarilishi muntazam monitoring qilinadi hamda keyingi hisobot davrlarida baholab boriladi.

Ekologik yo'nalish (Environmental)

- Umumiy energiya iste'molini kamida 5% ga kamaytirish
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmini kamida 10% ga oshirish
- Suv iste'molini monitoring qilish tizimini joriy etish va suv iste'molini kamida 5% ga kamaytirish
- Chiqindilarni qayta ishlash va xavfli chiqindilarni boshqarish tizimini to'liq joriy etish

Ijtimoiy yo'nalish (Social)

- Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni kamaytirish va 0 og'ir jarohat ko'rsatkichiga erishish
- Xodimlarning yillik tibbiy ko'rikdan o'tish darajasini 100% ga yetkazish
- Xodimlar qoniqish darajasini baholash tizimini joriy etish va uni kamida 10% ga oshirish
- Xodimlarni o'qitish va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish

Korporativ boshqaruv (Governance)

- Korporativ boshqaruv samaradorligi darajasini yuqori ko'rsatkichda saqlab qolish
- ESG boshqaruv tizimini takomillashtirish va natijadorligini baholash mexanizmini joriy etish
- Manfaatdor tomonlar bilan muloqot tizimini kengaytirish va shaffoflikni oshirish

4-jadval. 2026-yil uchun ESG maqsadlari va KPI ko'rsatkichlari

Yo'nalish	Asosiy KPI	2025-yil baza ko'rsatkichi	2026-yil maqsadi
Ekologiya	Umumiy energiya iste'moli	183 350 GJ	5% ga kamaytirish
Ekologiya	Qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish hajmi	698 GJ	10% ga oshirish
Ijtimoiy	Ishlab chiqarishdagi og'ir jarohatlar soni	0	Ishlab chiqarishdagi og'ir jarohatlar bo'yicha nol ko'rsatkichni saqlash
Ijtimoiy	Xodimlarning yillik tibbiy ko'rik qamrovi	100%	100% darajada saqlash
Korporativ boshqaruv	ESG boshqaruv tizimi	Dastlabki integratsiya bosqichi	ESG monitoring va baholash mexanizmini joriy etish

2026-yil uchun ESG maqsadlari va ustuvor yoʻnalishlarini amalga oshirish maqsadida Jamiyat tomonidan alohida ESG yoʻl xaritasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Mazkur yoʻl xaritasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv yoʻnalishlari boʻyicha asosiy tadbirlar, masʼul boʻlinmalar, amalga oshirish muddatlari hamda kutilayotgan natijalar belgilangan.

2026-yil uchun ESG yoʻl xaritasi ushbu hisobotning 5-ilovasida keltirilgan.

1 bob. Kompaniya haqida

Asosiy ma'lumotlar

GRI 2-1,2-6

“O‘zbekgeofizika” AJ kompleks geofizik xizmatlar ko‘rsatadi va uglevodorod resurslarini qidirish hamda o‘rganish bo‘yicha faoliyat yuritadi.

Kompaniyaning asosiy faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- 2D va 3D seysmorazvedka ishlari
- Vertikal seysmik profillash (VSP)
- Elektrozvedka tadqiqotlari
- Quduqlarda geofizik tadqiqotlar (GIZ va GTT)
- Geofizik ma'lumotlarni qayta ishlash va interpretatsiya qilish
- Petrofizik laboratoriya tadqiqotlari

Tadqiqotlar zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshiriladi, jumladan seysmovibratorlar, ko‘pkanalli telemetrik tizimlar hamda zamonaviy geofizik uskunalarni qo‘llaniladi.

2025 yilda “O‘zbekgeofizika” AJ tomonidan amalga oshirilgan izlash va izlash-tafsilotli seysmorazvedka ishlar hajmi 2D uchun 6500 pogonokilometrni, 3D bo‘yicha esa 2680 kvadrat kilometrni tashkil etdi. Shuningdek, kompaniya uglevodorod resurslari bo‘yicha 19 ta istiqbolli obyektlarni chuqur qidiruv burg‘ilashga tayyorladi. Amalga oshirilayotgan ishlar doirasida kompaniya buyurtmachilardan kelib tushgan 1950 ta QGT buyurtmalarini qayta ishladi, 3000 dan ortiq kern namunalarning petrofizik laboratoriya tadqiqotlarini olib boradi va C₃ kategoriyasi bo‘yicha uglevodorod zaxiralarini hisoblaydi. Quduqlardagi geofizik (GIZ) va geologik-texnik (GTT) tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar tayyorlanadi.

“O‘zbekgeofizika” AJ xalqaro va milliy darajada ko‘plab sheriklar bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. Ular sirasiga quyidagilar kiradi: “O‘zbekneftgaz” AJ, Eriell (Avstriya va BAA), “Sanoat Energetika Guruhi” XK MCHJ, “Uz-Kor Gaz Chemical” (Janubiy Koreya), TNG, “Zarubezhneftgaz”, GIRS GLOBAL, ANDIJANPETRO (Rossiya), “Surhan Gaz Chemical”, CPLC, CNLC (Xitoy), “Shlumberger” (Virjiniya orollari), “Sugdnaftgaz” (Tojikiston), “KYRGYZGEOFIZIKA” OAJ va boshqa tashkilotlar.

Kompaniyaning asosiy faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Dala va sanoat geofizik tadqiqotlarini amalga oshirish, shu jumladan kameral ishlar, geologik hisobotlar tayyorlash hamda geologiya-qidiruv ishlarini davom ettirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berish.
- Dala geofizika ma'lumotlarini qayta ishlash hamda bayon qilish, quduqlarni burg‘ilash va sinab ko‘rishga oid xulosalar va tavsiyalar berish.
- Uglevodorod zaxiralarini hisoblash va neft-gaz zaxiralarining o‘shishini ta‘minlash maqsadida geofizik ishlarni rejalashtirish.
- Yangi uslubiyot va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, geofizik apparatlarni takomillashtirish.
- Geofizik uskunalarni sinovdan o‘tkazish, sozlash va ta‘mirlash, metrologik tekshirish hamda nostandart apparaturani ishlab chiqarish.

Kompaniya mahsulotlari:

- Neft-gaz konlarini izlash va razvedka qilish uchun geofizik tadqiqotlar.
- Konlarni burg‘ilash, sinab ko‘rish va konlarni qazish uchun tavsiyalar tayyorlash.

- Tog' jinslari, shlam va boshqa geologik namunalarning petrofizik xususiyatlarining laboratoriya tahlili.

Kompaniya innovatsiyalarni joriy etish va uslublarni takomillashtirish orqali xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlab, O'zbekiston Respublikasida uglevodorod tarmog'ining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlamogda.

Faoliyat geografiyasi

Bizning faoliyat geografiamiz O'zbekiston Respublikasining asosiy neft-gaz konlariga boy hududlarini qamrab oladi. Mamlakatning turli hududlarida joylashgan filiallarning samarali faoliyati bu muvaffaqiyatning asosi sifatida xizmat qiladi. Har bir filial o'ziga xos tajriba va resurslarga ega bo'lib, uglevodorod konlarini qidirish va rivojlantirish bo'yicha yuqori sifatli geofizik tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi.

1. Amirobod sanoat-geofizik ekspeditsiyasi

Tarixi: Buxoro-Xiva mintaqasidagi sanoat-geofizik tadqiqotlar tarixi 1957-yildan – Gazli sanoat-geofizik partiyasi tashkil etilishidan boshlangan. Keyinchalik uning negizida filial tashkil etilgan.

Joylashuvi: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri, Sanoat ko'chasi, 5-uy.

Xodimlar soni: 373 nafar.

Asosiy yo'nalishlar: Neft-gaz quduqlardagi sanoat-geofizik ishlarni olib borish.


2. Buxoro geofizik ekspeditsiyasi

Tarixi: 1957-yilda Dashoguz geofizik ekspeditsiyasi tarkibida tashkil etilgan.

Joylashuvi: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, Kogon tumani, Geofizika mahallasi, Konchilar ko'chasi, 1-uy.

Xodimlar soni: 478 nafar.

Asosiy yo'nalishlar: Neft va gaz zaxiralarini qidirish uchun geofizik tadqiqotlar, istiqbolli konlarning geologik tuzilishini o'rganish, chuqur razvedka-burg'ilashga tuzilmalarni tayyorlash, shuningdek seysmorazvedka, elektrorazvedka va vertikal seysmik profillash tadqiqotlarini amalga oshirish.



3. Ustyurt geofizik ekspeditsiyasi

Tarixi: 1960-yillarning boshlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida uglevodorod konlarini qidirish maqsadida Ustyurt geofizik ekspeditsiyasini tashkil etish haqida qaror qabul qilingan.

Joylashuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Geofizika mahallasi, Ulli Jipak Joli ko'chasi, 7-uy.

Xodimlar soni: 634 nafar.

Asosiy yo'nalishlar: Neft va gaz razvedkasi maqsadida dala va kon geofizik ishlarini amalga oshirish.

4. **Farg'ona geofizik ekspeditsiyasi**

Tarixi: 1958-yilda tashkil etilgan.

Joylashuvi: O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 3-uy.

Xodimlar soni: 374 nafar.

Asosiy yo'nalishlar: Neft va gaz razvedkasi maqsadida dala va kon geofizik ishlarini amalga oshirish.

5. **Yakkabog' geofizik ekspeditsiyasi**

Tarixi: 1958-yilda janubiy va g'arbiy O'zbekiston hududlarida yangi istiqbollari neft-gaz konlarini izlash maqsadida geofizik ekspeditsiyasiga asos solingan. 1959-yilda ekspeditsiya Jizzax shahridan Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' qishlog'iga ko'chirilgan.

Joylashuvi: O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, Guliston mahallasi, Geofizika ko'chasi, 156-uy.

Xodimlar soni: 900 nafar.

Asosiy yo'nalishlar: Buxoro-Xiva, Janubi-G'arbiy Hisor, Surxondaryo va Ustyurt mintaqalarida neft va gaz qopqonlarini aniqlash uchun seysmikorazvedka ishlarini olib borish va tuzilmalarni chuqur burg'ilashga tayyorlash.

Rivojlanish strategiyasi

“O‘zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasining tog‘-kon sanoatini rivojlantirishga faol hissa qo‘shib, 2023-yil 27-iyuldagi 116-son Prezident farmoni hamda Davlat dasturida belgilangan strategik maqsadlarga muvofiq harakat qilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar geologiya va tog‘-kon sanoati sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish hamda mamlakatda uglevodorod xomashyosi ishlab chiqarishni oshirishga qaratilgan.

2025-yilda Kompaniya o‘z faoliyatini uglevodorod resurslarini ko‘paytirish maqsadida turli neft-gaz mintaqalarida geofizik tadqiqotlar o‘tkazishga qaratdi. Ishlar istiqbolli geologik obyektlarni o‘rganish va ularni chuqur burg‘ilashga tayyorlashga qaratildi. Rivojlanish strategiyasi doirasida quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilangan:

- Ustyurt mintaqasi: 2680 pogonokilometr 2D seysmorazvedka va 1700 kvadrat kilometr maydonda 3D seysmorazvedka tadqiqotlari amalga oshirildi. Bu ishlar davomida Samsk bukilmasi va Shimoliy Ustyurt botiqligi kabi geologik tuzilmalar o‘rganildi. Natijada, prognoz zaxirasi 58,2 million tonna shartli uglevodorod yoqilg‘isi (sh.u.y.) bo‘lgan 7 ta istiqbolli tuzilma chuqur burg‘ilash uchun tayyorlandi.
- Buxoro-Xiva mintaqasi: geofizik tadqiqotlarni davom ettirish doirasida Buxoro va Chorjo‘y tektonik zinapoyalarida 2963 pogonokilometr 2D seysmorazvedka amalga oshirildi. Shuningdek, asosiy e‘tibor yura davri karbonat va terrigen jinslariga qaratilgan holda, umumiy zaxirasi 47,6 mln tonna sh.u.y. bo‘lgan 10 ta istiqbolli obyekt tayyorlovi o‘tkazildi.
- Surxondaryo mintaqasi: 400 pogonokilometr hajmda paleogen, mel va yura davriga oid neft-gaz istiqbollari mavjud bo‘lgan komplekslarni o‘rganishga qaratilgan 2D seysmika tadqiqotlari amalga oshirildi. Natijada, 8,9 million tonna sh.u.y.ga ega 1 ta istiqbolli tuzilma tayyorlandi.
- Xorazm mintaqasi: Ushbu hududda, bo‘r va yura davriga oid istiqboli neft-gaz komplekslarini baholash uchun elektrorazvedkada uyg‘unlikda foydalanilgan holda, 270 pogonokilometr qidiruv-tahliliy 2D seysmorazvedka tadqiqotlarini amalga oshirildi.
- O‘rta Sirdaryo botig‘i: Ushbu hududda, paleozoy va ichki paleozoy davriga oid cho‘kmalarda neft va gaz istiqbolliligini baholash uchun 187 pogonokilometr hajmda 2D seysmorazvedka tadqiqotlari olib borildi.

Ushbu geofizik tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasida uglevodorod zaxiralarini oshirish uchun muhim qadam bo‘lib, bu, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiy barqarorligini rivojlantirishga va energetik xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. “O‘zbekgeofizika” AJ innovatsion usullar va texnologiyalarni joriy etishda davom etib, geofizika sohasida zamonaviy yechimlarni tatbiq qiladi. Bu esa Kompaniyaning ichki va xalqaro uglevodorod bozorlaridagi o‘rnini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

BRM tamoyillariga sodiqlik

“O‘zbekgeofizika” AJ Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning ahamiyatini e‘tirof etadi va ularni o‘zining kundalik faoliyatiga samarali integratsiya qiladi. 2025-yilda Kompaniya o‘z faoliyatining global maqsadlarga muvofiqligini, geofizik tadqiqotlar xususiyati hamda O‘zbekistonning yoqilg‘i-energetika sektorini rivojlantirishdagi ishtirokini hisobga olgan holda tahlil qildi.

Milliy ustuvorliklar, xalqaro tajribalar va Kompaniyaning amaliy ta‘sirining tahlili asosida “O‘zbekgeofizika” AJ faoliyati chambarchas bog‘liq bo‘lgan beshta asosiy BMT BRM belgilandi:

- BRM 3: Mustahkam salomatlik va farovonlik,
- BRM 5: Gender tengligi,
- BRM 7: Arzon va toza energiya,
- BRM 8: Munosib mehnat va iqtisodiy o‘shish,
- BRM 10: Tengsizlikni qisqartirish.

Kompaniya xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, xodimlarning sog‘lig‘i va farovonligini muhofaza qiluvchi korporativ madaniyatni rivojlantirish, ayollarni ham qamrab olgan professional o‘shish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ish o‘rinlarini yaratish va malaka oshirish orqali mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirish orqali ushbu maqsadlarga erishishga o‘z hissasini qo‘shadi. Bundan tashqari, Kompaniya uglevodorod resurslarining samarali o‘zlashtirilishi uchun zarur sifatli geofizik tadqiqotlarni ta‘minlab, mamlakat energetika sohasini rivojlantirishda qatnashmoqda.

“O‘zbekgeofizika” AJ barqaror rivojlanish yo‘nalishidagi faoliyatini kelajakda ham doimiy ravishda rivojlantirib, ichki jarayonlar va korporativ boshqaruvni BRM talablariga muvofiq takomillashtirishni amalga oshiradi. Shuningdek, xodimlarni barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga keng jalb etib, bu bilan o‘zi faoliyat yuritadigan mintaqalarda ijobiy ijtimoiy va ekologik ta‘sir ko‘rsatishni ta‘minlaydi.



- “O‘zbekgeofizika” AJ xodimlari uchun har yili tibbiy ko‘riklar, Kompaniyaga qarashli ko‘p profilli klinik shifoxona va boshqa tibbiyot muassasalarida davolanishni tashkil etadi.
- Kompaniyada mehnat muhofazasi bo‘yicha doimiy komissiya faoliyat yuritadi.
- 2025-yilda mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimi 100% xodimlarni qamrab oldi.



- “O‘zbekgeofizika” AJda Gender tengligi masalalari bo‘yicha maslahat kengashi faoliyat yuritadi, uning faoliyat doirasiga ma‘lumotlarni tahlil qilish, xabardorlikni oshirish va gender tengsizligi bo‘yicha shikoyatlar ko‘rib chiqish kiradi.
- Kompaniyada erkaklar va ayollar o‘rtasida o‘rtacha ish haqi va umumiy rag‘batlantirish miqdorida sezilarli farq yo‘q.
- 2025-yilda Kompaniya 130 nafar ayol xodimning professional o‘shish uchun malakasini oshirish bo‘yicha o‘qitish ishlarini amalga oshirdi.



- 2025-yilda Kompaniyada qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmi 53% ga oshdi.
- Xususan, qayta tiklanuvchi energiya iste‘moli 2024-yildagi 455 GJdan 2025-yilda 698 GJga yetib, 53%ga o‘tdi.
- 2023-yilga nisbatan esa ushbu ko‘rsatkich 277 GJdan 698 GJga oshib, muqobil energiya manbalaridan foydalanishning barqaror o‘shish dinamikasini ko‘rsatdi.
- Ushbu natijalar Kompaniyada energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini tasdiqlaydi.



- 2025-yilda xodimlarni o‘qitishga 1,269 mlrd so‘m sarflandi, bu o‘tgan yilga nisbatan -39% ga kamdir.
- 2025-yilda xodimlarga beriladigan imtiyozlar uchun jami 7,6 mlrd so‘m ajratildi (dividend to‘lovlari bundan mustasno).



- 2025-yilda Kompaniya homiylik yordamiga 327,1 mln so‘m yo‘naltirdi (2023-yilga nisbatan 2,5 baravar ko‘p).
- 81,7 mln so‘m – kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlashga.
- 51,2 mln so‘m – bolalar uylari va maktab- internatlarga.
- 183 mln so‘m – boshqa tashkilotlarga yordam.
- 11,2 mln so‘m - Bayram tadbirlarini tashkil etishga yordam berish

Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalar

GRI 2-29

“O'zbekgeofizika” AJ manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik tizimini ularning ehtiyojlari va umidlarini hisobga olgan holda shaffoflik va ochiqlik tamoyillari asosida yo'lga qo'yadi. Asosiy guruhlar ularning Kompaniya faoliyatiga ta'sir darajasini va uning harakalariga ta'sirchanligini hisobga olgan holda belgilanadi. Asosiy manfaatdor tomonlar bilan muntazam muloqot barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish, me'yoriy talablarga rioya qilish va potensial xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish imkonini beradi.

5- jadval. Manfaatdor tomonlar ro'yxati

Manfaatdor tomon	O'zaro ta'sir mexanizmlari	Kompaniya tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar
<i>Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi</i>	<ul style="list-style-type: none"> – Yig'ilishlar, muzokaralar, uchrashuvlar o'tkazish; – Kuzatuv kengashi tarkibidagi vakillar orqali o'zaro hamkorlik; – Ishki korporativ aloqa kanallari. 	<ul style="list-style-type: none"> – Kompaniya faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor va to'liq taqdim etish; – Aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.
<i>Davlat organlari</i>	<ul style="list-style-type: none"> – Hisobotlarni joylashtirish platformalari; – Qonunchilikka rioya etilishini tekshirish; – Yig'ilishlar, muzokaralar, uchrashuvlar o'tkazish; – Elektron pochta orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa. 	<ul style="list-style-type: none"> – Davlat siyosati va tashabbuslarini amalga oshirish; – Soliq solish va soliq ma'lumotlarini oshkor qilish masalalarida shaffoflikni ta'minlash.
<i>Ommaviy axborot vositalari va faoliyat hududidagi aholi</i>	<ul style="list-style-type: none"> – Matbuot anjumanlari va media-tadbirlar o'tkazish; – Qayta aloqa kanallari; – Kompaniya hisobdorligi; – Veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar; – Press-revizlar va axborot xabarlarini chop etish. 	<ul style="list-style-type: none"> – Jamoat tadbirlarida faol ishtirok etish; – OAV vakillari bilan matbuot anjumanlari, intervyu va uchrashuvlar tashkil etish; – Rasmiy internet-resurslar va OAV orqali axborotni e'lon qilish.
<i>Xodimlar va kasaba uyushmalari</i>	<ul style="list-style-type: none"> – Qayta aloqa kanallari; – Yig'ilishlar va rahbariyat bilan yuzma-yuz uchrashuvlar; – Samaradorlikni baholash; – Kompaniyaning hisoboti; 	<ul style="list-style-type: none"> – Xodimlar uchun qulay mehnat sharoitlarini ta'minlash; – Kasbiy o'sish va ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratish;

Manfaatdor tomon	O'zaro ta'sir mexanizmlari	Kompaniya tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar
<i>Pudratchilar va yetkazib beruvchilar</i>	– Jamoatchilik eshituvi.	– Xodimlarning mehnat samaradorligini baholash va ijtimoiy standartlarni qo'llab-quvvatlash.
	– Uchrashuvlar o'tkazish; – Ishga doir yozishmalar; – Shartnomalar va bitimlarni imzolash; – Kompaniyaning veb-sayti; – Kompaniyaning hisobdorligi.	– Biznes-munosabatlarda shaffoflik va halollik tamoyillariga rioya qilish; – tuzilgan shartnomalar shartlarini qat'iy bajarish; – Sherikchilik munosabatlarida o'zaro hurmat va vijdonlilikni tan olish.
<i>Hamkorlar</i>	– Yig'ilishlar, muzokaralar, amaliy yozishmalar; – Kompaniyaning hisobdorligi va moliyaviy ko'rsatkichlari; – Kompaniya veb-sayti.	– Biznes-etika me'yorlariga rioya qilish; – Xatarlarni boshqarish va uzoq muddatli hamkorlikni ta'minlash.
<i>Mijozlar</i>	– Qayta aloqa tizimi; – Uchrashuv va muzokaralar; – Kompaniyaning hisobdorligi; – Shartnoma va bitimlarni imzolash.	– Shartnomalar va majburiyatlar shartlariga rioya qilish; – Axloq kodeksi doirasida yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash.

2025-yilda manfaatdor tomonlar bilan ESG yo'nalishidagi o'zaro aloqalar

2025-yilda "O'zbekgeofizika" AJ manfaatdor tomonlar bilan ESG masalalari bo'yicha muloqotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, xodimlar, mahalliy hamjamiyatlar, davlat organlari va hamkor tashkilotlar bilan ekologiya, mehnat xavfsizligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va korporativ boshqaruv masalalari yuzasidan muntazam uchrashuvlar va muhokamalar o'tkazildi.

Hisobot yilida:

- xodimlarning mehnat sharoitlari va ijtimoiy ehtiyojlari bo'yicha murojaatlari ko'rib chiqildi;
- mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi;
- mahalliy aholi va hamjamiyatlar bilan ijtimoiy loyihalar yuzasidan hamkorlik davom ettirildi;
- manfaatdor tomonlarning fikr va takliflarini yig'ish hamda ularni keyingi boshqaruv qarorlarida inobatga olish mexanizmlari takomillashtirildi.

2026-yilda esa ESG yo'l xaritasi doirasida manfaatdor tomonlar bilan muloqot tizimini yanada kengaytirish, xodimlar qoniqishini baholash bo'yicha ichki so'rovnomalarni joriy etish hamda qayta aloqa mexanizmlarini kuchaytirish rejalashtirilgan.

2-bob. Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi

Ekologik masalalarni boshqarishga yondashuv

GRI 3-3

“O'zbekgeofizika” AJ xalqaro ISO 14001:2015 standarti asosida ekologik boshqaruv tizimini (EMS) joriy etdi. Kompaniya faoliyati davomida ekologik ko'rsatkichlar doimiy nazorat qilinib, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ekologik boshqaruvning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Atrof-muhit ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish, jumladan, atmosferaga tashlamalar hajmi, suv va yoqilg'i iste'moli, chiqindilar hosil bo'lishi;
- Kompaniya mutaxassislari, shu jumladan ekolog-muhandis, ishlab chiqarish bo'linmalari rahbarlari va reja-iqtisodiy bo'lim o'rtasida mas'uliyatli taqsimot;
- Ko'rsatkichlarni hujjatlashtirish va tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlash hamda to'g'rilovchi chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- Tasdiqlangan normativlarga muvofiq tashlamalar va chiqindilarni nazorat qilish.

Ichki tartibga soluvchi hujjatlar:

1. Ekologik boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilmasi to'g'risidagi Nizom
2. Ekologik ko'rsatkichlarni monitoring qilish tartibi

“Ekologik boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilmasi to'g'risida”gi Nizom Kompaniya ichida ekologik boshqaruv masalalari bo'yicha mas'uliyat va vakolatlarni taqsimlashni tartibga soladi. Unda EMSning asosiy unsurlari – Rahbarlik qo'mitasi, Muvofiqlashtiruvchi guruh va Ishchi guruh hamda ularning vazifalari, ish usullari va o'zaro aloqalari belgilangan.



Rahbarlik qo'mitasi Kompaniya rahbari tomonidan boshqarilib, ekologik boshqaruv strategiyasi va maqsadlarini belgilaydi, EMS samaradorligini tahlil qiladi, hisobotlarni ko'rib chiqadi va to'g'rilovchi choralar qo'llaydi. Muvofiqlashtiruvchi guruh bosh muhandis, ekolog-muhandis va boshqa mas'ul shaxslardan iborat bo'lib, uslubiy boshqaruv, ko'rsatkichlarni monitoring qilish, tashqi auditlarga tayyorgarlik va

ISO 14001 talablarini bajarishni ta'minlaydi. Ishchi guruh bo'linma vakillaridan tashkil topib, ekologik tadbirlarni amalga oshirish, ekologik normalarning bajarilishini nazorat qilish va xodimlarni qonunchilik talablaridan xabardor qilish bilan shug'ullanadi.

Hujjat ichki va tashqi auditlarni o'tkazish tartibini, ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun xodimlarni rag'batlantirish mexanizmini hamda hujjatlarni saqlash jarayonini belgilaydi. Bunday yondashuv kompaniya faoliyatining ekologik jihatlarini boshqarishni aniq va tizimli tashkil etishni ta'minlaydi hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ekologik ko'rsatkichlarni monitoring qilish tartibi dinamik PEE (asosiy ekologik ko'rsatkichlar) tahlilini va har yili ekologik faoliyat natijalarini chiqarishni nazarda tutadi. Ekolog-muhandis yakuniy va rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha hisobot tayyorlaydi, uni Kompaniya rahbariyati ko'rib chiqadi.

Kompaniya ekologiya sohasidagi xavflar va ta'sirlarni boshqarish uchun atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish strategiyasiga amal qiladi, bunda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va resurslarni tejashga alohida e'tibor beriladi. Barcha jarayonlar – energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni nazorat qilish – doimiy nazorat ostida bo'ladi. Ichki hujjatlar ekologik masalalarni boshqarish uchun tuzilmaviy yondashuvni ta'minlaydi.

Kompaniyaning muhim yondashuvi – turli faoliyat turlarida yuzaga keladigan ekologik ta'sirlarni aniqlash va boshqarishdir. Bularga ofis faoliyati, transport ishlari, quduqlarda geofizik va geologik ishlar hamda dala sharoitidagi geofizik tadqiqotlar kiradi.

Ofis faoliyati

- Ta'sirlar. Kompaniya ofis faoliyati doirasida suv resurslari va energiya sarfini nazorat qiladi hamda chiqindilar — chiqindi va makulatura bilan ishlash jarayonlarini boshqaradi. Bu jarayonlar suvning ifloslanishi va chiqindi to'planishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Ko'riladigan choralar. Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish maqsadida muntazam ravishda hudud tozalanadi, qog'oz chiqindilari qayta ishlashga topshiriladi. Qog'oz va elektr energiyasi sarfini kamaytirish uchun energiya tejashga qaratilgan texnologiyalar joriy etilgan. Barcha jarayonlar ichki tartib-qoidalarga muvofiq nazorat qilinadi va zarur bo'lganda tuzatish choralarini qabul qilinadi. Xodimlar ortiqcha energiya iste'moli va chiqindi hosil bo'lish manbalarini aniqlashda ishtirok etadilar hamda jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha takliflar kiritadilar.

Quduqlarda geofizik ishlar

- Ta'sirlar. Karotaj va portlash ishlari davomida neft va gaz chiqishi xavfi mavjud bo'lib, bu tuproq va havoni ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bu ishlar bir smenada bir necha marta o'tkaziladi, shuning uchun xavflarni boshqarish muntazam amalga oshiriladi.
- Ko'riladigan choralar. Ekologik xavflarni kamaytirish uchun xodimlar o'rtasida muntazam yo'l-yo'riqlar o'tkaziladi va har bir bosqich uchun protokollar ishlab chiqiladi. Protokollar chiqindi nazorati va ekologik normalarga rioya qilish choralarini o'z ichiga oladi. Chiqindi monitoringi muntazam ravishda o'tkaziladi va chiqindi darajasi nazorat qilinadi. Pudaratchilar va ekspertlar suv va tuproq ifloslanishi xavfini baholab, ish usullarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Dala geofizik ishlari

- Ta'sirlar. Portlovchi moddalar uchun shpurlar burg'ilash tufayli tuproqning chuqurlashishi, havoga chiqindi — chang va tutun chiqishi mumkin. Portlash ishlari ekologik xavflarni oshirishi va tuproq sifatini pasaytirishi mumkin.
- Ko'riladigan choralar. Xodimlar o'rtasida muntazam yo'l-yo'riqlar o'tkaziladi, havodagi chiqindi va chang miqdori nazorat qilinadi. Maxsus komissiya protokollari va belgilab qo'yilgan chiqindi miqdori (PDV) loyihalari ishlarni ekologik standartlarga muvofiq olib borilishini ta'minlaydi. Mahalliy hamjamiyatlar va ekologlar sezgir hududlarni aniqlash va ta'sirni kamaytirish choralarini ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

Transport ishlari

- Ta'sirlar. Avtotransportdan foydalanish natijasida, ayniqsa yoqilg'i-moylash mahsulotlari ishlatiladigan mashinalarda is gazlari atmosferaga chiqadi, bu havo sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Ko'riladigan choralar. Transport vositalarining texnik ko'rigi, gazoanalizatorlar orqali chiqindi gazlar monitoringi va eskirgan qismlarni muntazam almashtirish amalga oshiriladi. Ekologik standartlar va

normalarga rioya etilishini nazorat qilish natijasida havoni ifloslanish xavfi kamayadi. Pudratchilar va mahalliy hamjamiyatlar transport yo'nalishlarining ehtimoliy sezgir uchastkasi haqida ma'lumot berib, ekologik ta'sirni kamaytirish uchun takliflar kiritadilar.

Shuningdek, Kompaniya xodimlarni ekologik xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitishni ta'minlaydi. Ishchilar chiqindilar bilan ishlash va favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha majburiy yo'riqnomalardan o'tadilar. Ekolog-muhandis obyektlarda tushuntirish ishlarini olib boradi, shuningdek, ekologik xavflarni kamaytirish bo'yicha yo'riqnomalar va me'yorlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

"O'zbekgeofizika" AJda ekologik jihatlar bo'yicha miqdoriy ma'lumotlarni yig'ish va jamlash aniq belgilangan algoritm bo'yicha amalga oshiriladi: birinchi bosqichda hududiy bo'linmalar ma'lumot beradi, bunda energetik-muhandislar uskunalarning texnik parametrlarini, ekologiya bo'yicha mutaxassislar rekultivatsiya hajmlari va qayta tiklangan yerlarning joylashuvini, buxgalterlar esa sarflangan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etadilar. Shundan so'ng, ma'lumotlar filiallarda ichki tekshiruvdan o'tkaziladi va bosh ofisga yuboriladi, u yerda ekologiya, energetika mutaxassislari va moliyaviy-iqtisodiy xizmat vakillari ma'lumotlarni markazlashtirilgan tartibda tekshiradi, umumlashtiradi va tahlil qiladi, yig'ma jadvallar va hisobot materiallarini shakllantiradi.

"O'zbekgeofizika" AJ tabiatdan oqilona foydalanish va resurslarni tejash tamoyillarini joriy etish orqali atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish strategiyasiga amal qiladi. Kompaniya energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish va ekologik standartlarga rioya etilishini nazorat qilishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni amalga oshiradi.

Chiqindilarni boshqarish

GRI 3-3, 306-1, 306-2

“O‘zbekgeofizika” AJ o‘tkazayotgan dala-geofizik tadqiqotlar, jumladan cho‘l va qishloq xo‘jaligi hududlaridagi faoliyat natijasida turli xil chiqindilar — maishiy, sanoat va maxsus chiqindilar paydo bo‘ladi. Asosiy turdagi chiqindilar 70–80 nafar mutaxassis joylashgan ishchi lagerlarda hosil bo‘ladigan maishiy chiqindilar bo‘lib, shuningdek ishlatilgan moylash suyuqliklari, metall parchalar va boshqa texnologik chiqindilarni ham o‘z ichiga oladi. Chiqindilarni boshqarish jarayoni ekologik xavfsizlik standartlari va milliy hamda xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarga qat‘iy muvofiqlikda tashkil etilgan bo‘lib, chiqindilarni ajratilgan holda yig‘ish, xavfsiz tashish va sertifikatlangan qayta ishlash korxonalariga yetkazish tizimini o‘z ichiga oladi.

Kompaniya faoliyati O‘zbekiston Respublikasi ekologik qonunchiligi va xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish standartlari, jumladan ISO 14001:2015 talablariga to‘liq mos keladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni boshqarish bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy mas‘uliyat tamoyillariga asoslangan holda, “O‘zbekgeofizika” AJ har yili “Tozahudud” davlat korxonasi bilan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni yig‘ish, tashish va utilizatsiya qilish, shuningdek, lyuminessent lampalar kabi xavfli chiqindilarni xavfsiz yo‘q qilish bo‘yicha shartnomalarni imzolaydi. Ushbu jarayonlarning qonuniyligi, shartnomalar shartlariga rioya qilinishi va ekologik sertifikatlangan mavjudligi muntazam ravishda nazorat qilinadi.

Chiqindilarni boshqarishning samaradorligini ta‘minlash maqsadida Kompaniya chiqindilarni yig‘ish, tasniflash va qayta ishlash jarayonlari ustidan doimiy monitoring o‘rnatgan. Barcha chiqindilar oqimi va aylanishi maxsus yuritiluvchi jurnallarda batafsil qayd etiladi. Ikkilamchi xomashyo (jumladan metall va boshqa qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan materiallar) qayta ishlashga yo‘naltiriladi. Boshqaruv jarayonlarida mutaxassislikka ega professional pudratchilar bilan doimiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu chiqindilarni boshqarish tizimining ijobiy ekologik ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Chiqindilarni boshqarish tizimining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash maqsadida **Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi** yuqori malakali mutaxassislar tomonidan boshqariladi. Ushbu bo‘lim ekologik qonunchilikka rioya qilinishini ta‘minlab, chiqindilarni hisobga olish, ularni xavfsiz va barqaror boshqarish mexanizmini yaratadi. Bo‘lim xodimlari pudratchilar bilan aloqalarni muvofiqlashtiradi, kompaniya ichida ekologik madaniyatni oshirish maqsadida o‘quv seminarlari o‘tkazadi hamda chiqindilarni boshqarish bo‘yicha to‘liq hujjatlarni yuritadi.

Tizimli ekologik monitoring va to‘plangan ma‘lumotlarni puxta tahlil qilish asosida Kompaniya chiqindilarni boshqarish tizimining samaradorligini baholaydi. Chiqindilarni ajratib yig‘ish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar, shuningdek qayta ishlash sanoati bilan muntazam o‘zaro hamkorlik atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta‘sirlarni sezilarli darajada kamaytirgan. Kelgusida chiqindilarni yanada chuqurroq saralash va ularni ekologik jihatdan xavfsiz utilizatsiya qilish texnologiyalarini joriy qilish rejalashtirilmoqda, bu chiqindilarni boshqarish tizimining umumiy samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Kompaniya faoliyati natijasida bexatar chiqindilar paydo bo‘ladi. Faqatgina 2025-yilda 1.5 tonna xatarli chiqindilarni qayta ishlashga yuborildi. Ularning umumiy hajmi 2024-yilda 928,2 tonnadan 2025-yilda 749,4 tonnaga kamaydi, bu esa chiqindilarni kamaytirish va resurslardan yanada samarali foydalanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning ijobiy natijasidir. Ushbu pasayish – jarayonlarni optimallashtirish, chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan strategik choralar samarasidir.

6- jadval. Hosil bo'lgan chiqindilar miqdori, turlari bo'yicha

No	Ko'rsatkichlar, tonna	2023	2024	2025	O'zgarish, %
1	Xavfsiz chiqindilar	948.8	928.2	749.4	-19

Utilizatsiya qilingan chiqindilarning umumiy hajmi kamaymoqda: 2024-yildagi 1 600.7 tonnadan 2025-yilda 521.5 tonnaga tushgan (3 barobardan ko'proqqa kamaygan). Shu bilan birga, chiqindilarning asosiy qismi qayta foydalanishga yo'naltiriladi.

7- jadval. Utilizatsiya qilingan chiqindilarning umumiy hajmi

No	Ko'rsatkichlar, tonna	2023	2024	2025	O'zgarish,%
1	Xavfsiz chiqindilar:	1 617.6	1 600.7	520	-67
2	Qayta foydalanishga tayyorlash	1 507.4	1 492.5	418.9	-71
	Xavfli chiqindilar:	0	0	1.5	0
	Qayta foydalanishga tayyorlash			1.5	0
3	Boshqa utilizatsiya amaliyotlari	110.2	108.2	101.1	-6

Zararsizlantirish va ko'mishga yo'naltirilgan chiqindilar hajmi 2024-yildagi 565.4 tonnadan 2025-yilda 1 037.4 tonnaga ko'paygan. Biroq k'opayish sur'ati tezlashgan bo'lib, 2025-yilda 2024-yilga nisbatan 0,83% ni tashkil qilgan.

8- jadval. Zararsizlantirish va ko'mish uchun yo'naltirilgan chiqindilar hajmi

No	Ko'rsatkichlar, tonna	2023	2024	2025	O'zgarish,%
1	Xavfsiz chiqindilar	567.0	565.4	1 037.4	83
2	Xavfli chiqindilar	0	0	1.1	

“O'zbekgeofizika” AJning 2025-yil uchun ekologik rejasiga muvofiq quyidagi tadbirlar rejalashtirildi va amalga oshirildi:

- Atmosferaga tashlanadigan moddalar bo'yicha maksimal ruxsat etilgan chiqindilar (MRCH) va oqova suvlar bo'yicha maksimal ruxsat etilgan tashlamalar (MRT) me'yorlarini ishlab chiqish;
- Avtotransport vositalarining gaz uskunalarini texnik ko'rikdan o'tkazish;
- Chiqindilarni alohida yig'ish uchun maxsus konteyner o'rnatish.

Energiya menejmenti va energiya samaradorligi

GRI 3-3

“O‘zbekgeofizika” AJ rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirishdir. Kompaniyada energiyani tejashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan sovutish tizimlaridan oqilona foydalaniladi — masalan, tushlik tanaffusi vaqtida va xodimlar bo‘lmagan paytda konditsionerlar o‘chiriladi, bu esa umumiy energiya iste‘molini kamaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, bosh ofisdagi butun elektr infratuzilmasi har yili texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi va energiya samaradorligi auditi muntazam o‘tkazilib, ortiqcha energiya sarflanayotgan hududlar aniqlanadi.

Ofis va ishlab chiqarish binolarida avtomatik boshqaruv tizimiga ega energiya tejamkor yoritgichlar o‘rnatilmoqda. Shuningdek, ayrim obyektlarda dasturlashtiriladigan termostatlar bilan haroratni nazorat qilish tizimi joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-oktabrdagi “Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, Kompaniya 2022-yildan boshlab bosh ofis va filiallarning ma‘muriy binolarida umumiy quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini o‘rnatishni boshlagan.

Energiya menejmenti siyosatini amalga oshirish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha barcha faoliyatlarni muvofiqlashtirish uchun mas‘ul tuzilma — bu **Bosh energetika bo‘limi** hisoblanadi.

2025-yilga belgilangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar bajarilgan:

- Yoqilg‘i-energetika resurslarini tejashga qaratilgan tashkiliy-texnik tadbirlar yillik rejasini ishlab chiqildi, shuningdek energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha belgilangan grafik va dasturlarning qat‘iy bajarilishini ta‘minlandi;
- Energiya resurslaridan oqilona foydalanish va ularning samaradorligini oshirishga rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etildi;
- Ishlab chiqarish quvvatlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, energiya tejavchi jihozlarga o‘tish, shuningdek energetika uskunalari, transport vositalari va mexanizmlarni o‘z vaqtida kapital va profilaktik ta‘mirlashni amalga oshirishni yo‘lga qo‘yildi.

GRI 302-1, 302-3, 302-4

2023-2024-yillarda iste‘mol qilingan energiyaning umumiy hajmi pasayish tendensiyasiga ega. 2025-yilda iste‘mol 183 350 GJ ni tashkil etdi, bu 2024-yilga nisbatan 5 foizga kam. Asosiy qisqarish benzin, tabiiy gaz, metan va propan iste‘molining kamayishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, 2024-2025-yillarda qishning anomal sovuq kelishi qaramay tabiiy gaz iste‘moli 27 foizga kamaygani kuzatilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (QTEM) energiya iste‘moli ham oshdi: 2025-yilda u 698 GJ ni tashkil etdi, bu 2024-yilga nisbatan 53 foizga ko‘pdir.

9- jadval. Tashkilot ichida energiya iste‘moli

No	Ko‘rsatkichlar, GJ	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
1	Qayta tiklanmaydigan manbalardan yoqilg‘i iste‘moli, yoqilg‘i turlari bo‘yicha (XARID)				
2	<i>Benzin</i>	6 243.61	5 125.44	3 881.44	-24
3	<i>Tabiiy gaz</i>	16 009.53	18 165.52	13 216.4	-27

No	Ko'rsatkichlar, GJ	2023	2024	2025	O'zgarish, %
4	Boshqa (metan gazi)	5050.98	4503.58	3 670.90	-18
5	Dizel yoqilg'isi	166 075.03	150 453.75	149 736.84	0
6	Propan (suyultirilgan)	4 494.44	2 995.25	2 809.21	-6
7	Jami:	197 874	181 244	173 315	-4

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (QTEM) energiya iste'moli, energiya turlari bo'yicha

8	QTEMDan energiya iste'moli	277	455	698	53
	Jami:	277	455	698	53

Xarid qilingan energiya turlari bo'yicha iste'mol

9	Elektr energiyasi	7 826	7 419	5 937	-20
10	Issiqlik energiyasi (isitish)	4 179	4 037	3 400	-16
	Jami:	12 005	11 456	9 337	-18

Umumiy iste'mol qilingan energiya miqdori **210 156** **193 155** **183 350** **-5**

** Ikki karra hisobni oldini olish maqsadida Kompaniya o'zi ishlab chiqargan energiya miqdori hisobga olinmagan.

2025-yilda energiya sotib olish uchun umumiy xarajatlar 47 876,7 million so'mni tashkil etdi, bu 2024-yil darajasidan 6 foizga past. Shu bilan birga, elektr energiyasiga xarajatlar 13 foizga, issiqlik energiyasiga esa 11 foizga kamaydi, bu esa energiyadan oqilona foydalanishga bog'liq. Shu bilan birga, benzin 40 foizga, dizel yoqilg'isi 5 foizga va tabiiy gaz 19 foizga xarajatlari kamaydi.

10- jadval. Energiya xaridiga yo'naltirilgan xarajatlar summasi

No	Ko'rsatkichlar, mln so'm	2023	2024	2025	O'zgarish, %
1	Elektr energiyasi	1.20	2.19	1.91	-13
2	Issiqlik energiyasi	0.14	0.27	0.24	-11
3	Dizel yoqilg'isi	49 346.3	48 578.9	46 337.28	-5
4	Benzin	2597	2557	1 536.72	-40
5	Tabiiy gaz	0.43	0.68	0.55	-19
6	Jami:	51 945.07	51 139.04	47 876.7	-6

Daromadga nisbatan solishtirma energiya sarfi pasayishda davom etmoqda: 2025-yilda bu ko'rsatkich 0,344 GJ/mln so'mni tashkil etdi, bu 2024-yilga nisbatan 1 foizga past. Bu esa korxonaning energiya samaradorligi oshganligidan dalolat beradi.

11- jadval. Daromadga nisbatan energiya iste'moli

No	Ko'rsatkichlar	2023	2024	2025	O'zgarish, %
1	Umumiy energiya iste'moli, GJ	210 156	193 155	183 350	-5
2	Taqsimlangan energiya iste'moli, GJ/mln so'm	0.378	0.348	0.344	-1
3	Daromad, mln so'm	555 677.2	554 355.1	533 768.1	-4

Eng katta qisqarish benzin 39%ga, tabiiy gazdan foydalanish 37% ga va suyuq yoqilg'i 3%ga kamayish bo'yicha qayd etildi, toshko'mirdan foydalanish esa 48% ga, oshdi.

2025-yilda ko'mir iste'molining oshishi dala ekspeditsiyalarining infratuzilmadan uzoq hududlarda joylashganligi hamda vaqtinchalik yashash va xizmat ko'rsatish obyektlarini isitish ehtiyojlari bilan bog'liq. Kompaniya energiya samaradorligini oshirish va yoqilg'i sarfini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

12- jadval. Energiyani tejash tashabbuslari natijasida energiya iste'molining qisqarishi

No	Ko'rsatkichlar	2023	2024	2025	O'zgarish, %
1	Energiya tejash dasturlari doirasida erishilgan yoqilg'i-energetika resurslarini tejash, jumladan:	8 579	8 003	7 237	- 11
2	Suyuq yoqilg'i, shu jumladan (litr):	4 923.70	4 443.44	4 334.78	- 3
3	Benzin, litr	201.52	165.43	119.31	- 39
4	Dizel yoqilg'isi, litr	4 722.18	4 278.01	4 215.47	- 1
5	Toshko'mir, tonna	25	43.68	84	48
6	Tabiiy gaz, ming m ³	432.69	490.96	357.20	- 27
7	Elektr energiyasi, ming kVt-soat	2 174.07	2 061.12	1 649	- 20
8	Issqlik energiyasi, Gkal	998.17	964.26	812.08	- 15

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish

Hozirda "O'zbekgeofizika" AJda quyidagi qayta tiklanuvchi energiya uskunalari mavjud:

- Umumiy quvvati 160 kVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalari (QFES);
- Umumiy sig'imi 2 400 litr bo'lgan quyosh suv isitish kollektor tizimlari.

"O'zbekgeofizika" AJ tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh fotoelektr stansiyalari (QFES) izchil joriy etilmoqda. 2024-yil oxiriga kelib, QFESning umumiy o'rnatilgan quvvati 160 kVtni tashkil etdi. Quvvatning eng katta ulushi bosh ofisga to'g'ri keladi, bu uning asosiy ma'muriy markaz maqomi bilan bog'liq. Shu bilan birga, 2024-yilda mintaqaviy darajada sezilarli kengayish kuzatilmoqda - geofizik ekspeditsiyalar va filialda to'rtta yangi stansiya o'rnatildi, bu esa Kompaniyaning turli bo'linmalarida barqaror energiya iste'moli tamoyillari keng ko'lamda ilgari surilayotganidan dalolat beradi.

13- jadval. O'rnatilgan quyosh fotoelektr stansiyalari (QFES)

No	Yil	O'rnatilgan joy	Quvvat (kVt)
1	2022	Bosh ofis	50
2	2023	Amirobod geofizik ekspeditsiyasi (GFE)	20
3	2023	Buxoro GFE	20
4	2024	Farg'ona GFE	20
5	2024	Ustyurt GFE	20
6	2024	Yakkabog' GFE	20
7	2024	Bosh filial (qo'shimcha)	10
8	Jami holat bo'yicha 31.12.2025	"O'zbekgeofizika" AJ bo'yicha jami	160

2025-yil yakuniga ko'ra, "O'zbekgeofizika" AJning turli geofizik ekspeditsiyalarida umumiy sig'imi 2400 litr bo'lgan jami 12 ta suv isitish kollektorlari o'rnatildi. Qurilmalarning filiallar bo'yicha taqsimlanishi shuni ko'rsatadiki, uskunalarining eng ko'p soni va umumiy hajmi Farg'ona geofizika ekspeditsiyasiga (FGE) to'g'ri keladi – umumiy sig'imi 1400 litr bo'lgan 7 ta qurilma, bu Jamiyat umumiy hajmining deyarli 48 foizini tashkil etadi.

14- jadval. Quyosh suv isitish kollektorlarini o'rnatish

№	O'rnatilgan joy	O'rnatmalar soni	Umumiy sig'imi (litr)
1	Farg'ona GE	7	1400
2	Ustyurt GE	2	400
3	Buxoro GE	1	200
4	Amirobod GE	2	400
5	Jami holat bo'yicha 31.12.2025	"O'zbekgeofizika" AJ bo'yicha jami	2400

Issiqxona gazlari emissiyasi

GRI 305-1, 305-2

2025-yilda Kompaniya tomonidan energiya samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida Scope 1 va Scope 2 issiqxona gazlari emissiyalarining kamayishiga erishildi. Mazkur natijalarga energiya iste'molini optimallashtirish, ayrim obyektlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor yondashuvlarni joriy etish orqali erishildi.

15- jadval. Scope 1 bo'yicha issiqxona gazlari emissiyasi

No	Filial	2024 tCO2-ekv	2025 tCO2-ekv	O'zgarish %
1	O'zbekgeofizika AJ	1643.84	143.34	-91 %
2	Amirobod GE	1131.27	1097.44	-3 %
3	Buxoro GE	1819.65	2089.41	15 %
4	Ustyurt GE	968.15	1878.83	94 %
5	Farg'ona GE	2087.08	1804.21	-14 %
6	Yakkabog' GE	4872.59	5188.16	6 %
	Jami	12 522.58	12 201.39	-3 %

2025-yilda AO "O'zbekgeofizika" markaziy apparati bo'yicha Scope 1 issiqxona gazlari emissiyalarining sezilarli kamayishi dala geofizika partiyalarining bir qismini Ustyurt geofizik ekspeditsiyasi tarkibiga o'tkazilishi bilan bog'liq bo'ldi. Mazkur o'zgarish natijasida markaziy apparatda yoqilg'i iste'moli hajmi qisqardi, shu bilan birga Ustyurt geofizik ekspeditsiyasida ishlab chiqarish hajmlarining oshishi emissiya ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatdi.

Bundan tashqari, Kompaniyada xizmat faoliyati doirasida 4 ta elektromobildan foydalanilishi yoqilg'i sarfini qisqartirish hamda issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

16- jadval. Scope 2 bo'yicha issiqxona gazlari emissiyasi

№	Filial	2024 tCO2-ekv	2025 tCO2-ekv	O'zgarish %
1	O'zbekgeofizika AJ	476.79	378.52	-21 %
2	Amirobod GE	88.02	71.45	-19 %
3	Buxoro GE	78.34	67.48	-14 %
4	Ustyurt GE	65.30	53.66	-18 %
5	Farg'ona GE	146.37	126.06	-14 %
6	Yakkabog' GE	153.09	98.94	-35 %
	Jami	1007.91	796.11	-21 %

2025-yilda Scope 2 emissiyalarining kamayishi elektr energiyasi iste'molini optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish hamda ayrim obyektlarda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish natijasida kuzatildi. Mazkur chora-tadbirlar energiya resurslaridan yanada oqilona foydalanish va issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirishga xizmat qildi.

Biologik xilma-xillik

GRI 3-3, 304-1, 304-2, 304-3, 304-4

“O‘zbekgeofizika” AJ tasarrufida, ijarasida yoki operatsion boshqaruvida bo‘lgan ishlab chiqarish inshootlari muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yoki yuqori biologik boylikka ega ekotizimlarda (shu jumladan ular bilan tutash zonalarda) joylashmagan.

Kompaniya faoliyati, shuningdek uning mahsulotlari va ko‘rsatayotgan xizmatlari ekotizimlarga sezilarli ekologik xavf yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Geofizik ishlar amalga oshirilgan hududlarda **Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN)ning Qizil ro‘yxati va O‘zbekiston Respublikasining muhofaza ostidagi biologik turlari ro‘yxatiga kiritilgan hayvonot, o‘simlik va zamburug‘lar populyatsiyasiga zarar yetkazilgan holatlar aniqlanmagan.



“O‘zbekgeofizika” AJ mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan "Yashil makon" ekologik tashabbusida faol ishtirok etmoqda. Kompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan ko‘kalamzorlashtirish ishlari hajmi izchil oshirilmoqda.

17- jadvalda 2022–2025-yillar davomida ekilgan daraxt va buta ko'chatlari soni bo'yicha statistik ko'rsatkichlar keltirilgan. 2023-yilda kompaniya tarixidagi eng yuqori natija — 56 233 tup ko'chat ekilgan.



Tabiatga e'tibor — kelajak avlodga sovg'a!

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan Ohangaron–Olmaliq avtomobil yo'li bo'yida manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Mazkur loyiha doirasida 120 nafardan ortiq xodimlar ishtirok etib, 1500 tupdan ziyod ko'chat ekishdi.

Bu xayrli loyihada “O'zbekgeofizika” AJ jamoasi ham faol ishtirok etdi.

Tabiatni asrash, yashil hududlar barpo etish — barchamizning burchimiz!

2025-yilda bu ko'rsatkich 35 789 donani tashkil etdi. Bunday pasayish 2023-yildagi yirik ko'kalamzorlashtirish loyihalarining yakunlanishi bilan bog'liq. Toshkent shahri hamda Ustyurt geofizik ekspeditsiyasi (GE) eng ko'p ko'chat ekilgan hududlar sifatida ajralib turadi.

Tog' kon-sanoati va geologiya vazirligining 2025-yilning 28-martidagi 05-380-sonli va 3-apreldagi 05-439-sonli topshiriqlariga muvofiq “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “O'zbekgeofizika” AJ tasarrufidagi barcha hududlaridagi jami 2 184 tup 5 yosh va undan yuqori bo'lgan mevali va manzarali daraxtlar tegishli tartibda xatlovdan o'tkazildi

17- jadval. 2022–2025-yillarda ekilgan o‘simliklar soni, tup

№	Hududlar	2022	2023	2024	2025
1	Toshkent shahri		10 950	13 704	3 425
2	Farg‘ona GE		6 900	1 706	
3	Yakkabog‘ GE		12 353	3 000	
4	Buxoro GE	900	15 140	5 300	
5	Ustyurt GE		10 890	1 400	36 300
6	Jami:	900	56 233	25 110	35 789

“O‘zbekgeofizika” AJ bosh ofisida suvdan foydalanish uchun, jumladan gullarni sug‘orish maqsadida, 7 ta quduqda filtrlar o‘rnatilgan. Ushbu filtrlar suvning yuqori sifatini ta‘minlaydi, bu esa o‘simliklar uchun optimal sharoitlarni yaratishga va ofis hududining ekologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

2025-yil davomida quyidagi ishlar bajarilgan:

- Jamoat va ishlab chiqarish hududlarida ilgari ekilgan daraxtlarni parvarishlash;
- Dekorativ va mevali o‘simliklarni talabga muvofiq holatda saqlash;
- Daraxtzorlarni tiklash va ko‘kalamzorlashtirish tashabbuslarini davom ettirish.

Biologik xilma-xillikka ta‘sirni baholash, yerlarni rekultivatsiya qilish, yashil maydonlarni ekish hamda davlat tabiatni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik masalalariga Dala geofizik ishlarini muvofiqlashtirish, ishlab chiqarishni texnik qo‘llab-quvvatlash va sifatmi nazorat qilish bo‘limi mas‘ul. Ushbu bo‘lim kompaniyaning barcha ishlab chiqarish bosqichlarida ekologik tadbirlarni rejalashtirish, monitoring qilish, hisobot berish va nazorat qilishni ta‘minlaydi.

Loyiha ishlariga kirishishdan oldin yerlarni rekultivatsiya qilish va zararlarni qoplash xarajatlari hisoblanadi, bu xarajatlar yer egalari va mahalliy hokimiyat organlari bilan kelishiladi hamda yer egalari bilan shartnoma imzolanadi. Shartnomada yerlarni tiklash tafsilotlari ko‘rsatilmasa-da, kompaniya o‘z tashabbusi bilan ta‘sirni baholash, rekultivatsiya, drenaj ishlari va muntazam ekologik monitoringni amalga oshiradi. Tiklashda mahalliy o‘simlik turlari, organik o‘g‘itlar va eroziyaga qarshi chora-tadbirlar qo‘llaniladi. Monitoring natijalari hujjatlashtiriladi va tiklash usullarini yaxshilash uchun inobatga olinadi.

Smeta hudud xususiyatlari, zarur materiallar hajmi, mehnat xarajatlari va normativ tariflar asosida tasdiqlanadi. Hisobot davrida rejalashtirilgan barcha tiklash ishlar amalga oshirildi. Xarajatlarning oshishi ish hajmining kengayishi va tiklanayotgan maydonlarning kattalashuvi bilan bog‘liq.

18- jadval. Rekultivatsiya qilingan va/yoki daraxtzorlarni tiklash hududlari bo'yicha ma'lumotlar

No	Ko'rsatkich	2023	2024	2025
1	Rekultivatsiya qilingan va/yoki daraxtzorlarni tiklash hududlari ro'yxati	Qoraqalpoq davlat o'rmon xo'jaligi tasarrufidagi hudud	Qoraqalpoq davlat o'rmon xo'jaligi tasarrufidagi hudud	Qoraqalpoq davlat o'rmon xo'jaligi tasarrufidagi hudud
2	Joylashuvi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mo'ynoq tumani	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'irotdavlat o'rmon-ovchilik xo'jaligi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozoqdaryo davlat o'rmon-ovchilik xo'jaligi
3	Hudud maydoni	10.5	15	53.7
4	Xarajatlar, so'm	33570000	52750000	308 225 000

2024-yilda rekultivatsiya qilingan hudud maydoni faqat 15 gektar bo'lib, 2025-yilda bu ko'rsatkich 53.7 gektarga yetdi, bu kompaniyaning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarining ko'p karra kengayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari 2024-yildagi 52.75 mln so'mdan 2025-yilda 308,22 mln so'mgacha, ya'ni 5 martadan ortiq oshdi.

19- jadval. "O'zbekgeofizika" AJ bo'linmalari bo'yicha buzilgan, rekultivatsiya qilingan va tiklangan yerlar hajmi

No	Ko'rsatkich	2023	2024	2025
1	"O'zbekgeofizika" AJ "Farg'ona geofizika ekspeditsiyasi" filiali			
2	Buzilgan yerlarning jami maydoni, ga	-	-	39.7
	Rekultivatsiya qilingan va daraxtzor tiklangan maydon, ga	-	-	39.7
3	"O'zbekgeofizika" AJ to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvdagi partiya			
4	Buzilgan yerlarning jami maydoni, ga	10,5	10	14
5	Rekultivatsiya qilingan va daraxtzor tiklangan maydon, ga	10,5	10	14

2026-yil uchun ustuvor ekologik yo'nalishlar

2026-yilda "O'zbekgeofizika" AJ ESG yo'l xaritasi doirasida ekologik boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

Xususan:

- suv iste'molini monitoring qilish va nazorat tizimini joriy etish;
- energiya samaradorligini oshirish hamda quyosh panellaridan foydalanishni kengaytirish;
- chiqindilarni alohida yig'ish, qayta ishlash va xavfli chiqindilarni boshqarish tizimini kuchaytirish;
- dala geofizika ishlari natijasida zararlangan hududlarda rekultivatsiya ishlarini amalga oshirish;
- ISO 14001 ekologik menejment tizimi bo'yicha nazorat auditlarini davom ettirish rejalashtirilgan.

Mazkur chora-tadbirlar Kompaniyaning ekologik ta'sirni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha uzoq muddatli maqsadlariga xizmat qiladi.

3-bob. Ijtimoiy mas'uliyat

Xodimlarni boshqarishga yondashuv

GRI 3-3

“O‘zbekgeofizika” AJ xodimlar siyosatiga alohida e‘tibor qaratadi, xodimlar uchun adolatli mehnat sharoitlarini, ularning professional rivojlanishini hamda ijtimoiy himoyasini ta‘minlaydi. Xodimlarni boshqarish sohasidagi barcha faoliyat rasmiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Jamoa shartnomasi va uning ilovalari xodimlarning lavozim darajasi va ish stajiga qarab rag‘batlantirish tizimini belgilaydi. Quyida “O‘zbekgeofizika” AJ tomonidan mehnat resurslarini boshqarish sohasida qabul qilingan asosiy qoidalar keltirilgan:

- Mehnat kodeksi;
- Jamoa shartnomasi;
- Tanlov asosida xodimlarni tanlash siyosati;
- Mehnat muhofazasi va Ishlab chiqarish xavfsizligi siyosati;
- Ichki mehnat tartibi qoidalari;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati.

Kompaniya rahbariyati va xodimlar bo‘limi hamkorligida O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi, jumladan, ish haqi darajasi, ijtimoiy siyosat, ish joyidagi xavfsizlik sharoitlari va xodimlarning kasbiy tayyorgarligi masalalari qat‘iy nazorat qilinadi.

Har oy mehnat va ish haqi bo‘limi moddiy rag‘batlantirishlarni hisoblab chiqadi. Nafaqachilarga har yillik staj uchun ish haqi miqdorining 60% miqdorida bir martalik qo‘shimcha xaq beriladi, dala sharoitida ishlagan imtiyozli nafaqaga chiquvchi xodimlarga esa to‘liq ish haqi miqdorida bir martalik qo‘shimcha xaq beriladi. KPI tizimi xodimlarning samaradorligini baholashga xizmat qiladi, biznes-reja bajarilishi esa mukofot bilan rag‘batlantiriladi. Bundan tashqari, ish staji uchun mukofotlar, yubiley to‘lovlari hamda muhim vazifalarni bajarish uchun maxsus to‘lovlar belgilangan.

Xodimlarni jalb qilish, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash



Xodimlar bo'limining asosiy vazifalari kompaniyani malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda yosh mutaxassislarni jalb qilishdan iborat. Geologiya fanlari universiteti bilan hamkorlik shartnomasi doirasida Kompaniya talabalar ta'limini moliyalashtiradi hamda bitiruvchilarni ish bilan ta'minlaydi. Xodimlar malakasini oshirish va o'z kasbini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning professional o'sishiga xizmat qiladi.

Kompaniyada 28 nafar nogironligi rasmiy tasdiqlangan xodimlar ishlaydi, jumladan surunkali kasalliklarga, masalan, onkologik kasalliklarga chalinganlar ham mavjud. Ushbu toifadagi xodimlar uchun yengillashtirilgan ish sharoitlari, qisqartirilgan ish haftasi va amaldagi qonunchilikka muvofiq qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralari nazarda tutilgan.

Dekret ta'tili erkaklar hamda ayollarga berilishi mumkin, shuningdek, ikki va undan ortiq 12 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalarga asosiy ta'tilga qo'shimcha 4 kalendar kuni ta'til ajratiladi. Bundan tashqari, xodimlar uchun qarz olish tizimi ham mavjud. Markaziy ofisdan masofada ishlaydigan xodimlar uchun ish vaqti soat 8:00 dan 17:00 gacha belgilangan. Korxonaga kirish yuzni biometrik aniqlash asosida ishlovchi turniketlar orqali amalga oshiriladi. Rahbariyat bilan aloqa har chorshanba kuni boshqaruv raisining qabul kunlari orqali tashkil etilgan. Xodimlar o'z taklif va shikoyatlarini shaxsiy tarzda bildirishi mumkin, ammo anonim murojaatlar ko'zda tutilmagan.

Odob-axloq, tenglik va mehnat huquqlariga rioya qilish tamoyillari

GRI 402-1

"O'zbekgeofizika" AJ kasbiy xususiyatlarga bog'liq bo'lmagan har qanday kamsitishlarga, shu jumladan yosh, irqiy, madaniy, diniy va boshqa kamsitishlarga qarshi. Kompaniyada ko'p millatli jamoa faoliyat yuritadi, bu esa milliy yoki diniy belgilar bo'yicha kamsitishni istisno etadi. Xodimlarning asosiy yoshi 30-35 yoshni tashkil etadi. Xodimlar rotatsiyasi menejerlarning iltimosnomasiga binoan amalga oshiriladi. Filiallar o'rtasida mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda mehnatga haq to'lash koeffitsiyentlari amal qiladi.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun normalariga muvofiq, "O'zbekgeofizika" AJ va uning filiallariga murojaatlar "Tezkor aloqa liniyasi" orqali kelib tushadi. Kelib tushgan murojaatlar

bilan ishlash, ularning to'g'ri taqsimlanishi va o'z vaqtida hal etilishini nazorat qilish maqsadida maxsus ishchi guruh tuzildi. Samarali faoliyatni ta'minlash maqsadida Kompaniya ma'muriy binosining birinchi qavatidan 103-xona ajratildi. Bundan tashqari, Huquqiy masalalar va murojaatlar departamentidan doimiy mas'ul xodim tayinlanib, unga



murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va nazorat qilish vazifasi yuklatildi. Ushbu chora-tadbirlar Kompaniyaning manfaatdor tomonlarning muammolarini hal qilishda shaffoflik, samaradorlik va tezkorlikka sodiqligini ko'rsatadi.

“O‘zbekgeofizika” AJ adolatli mehnat amaliyotlari va ijtimoiy mas‘uliyatga sodiqligini tasdiqlab, Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) asosiy konvensiyalarini to‘liq bajarilishini ta‘minlagan. Kompaniya majburiy mehnatga, teng mehnat haqi to‘lashga, onalikni himoyalashga, kollektiv muzokaralar va ishchilar huquqlariga doir global standartlarga qat‘iy rioya qiladi, bu esa eng yaxshi xalqaro tajribalarga mos keladigan ish muhitini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu majburiyatlarga muvofiq, “O‘zbekgeofizika” AJ barcha xodimlarga adolatli ish sharoitlari, teng imkoniyatlar va kasaba uyushmasida vakillik huquqini kafolatlaydi, bu esa uning ishga qabul qilishdagi etik standartlarga sodiqligini tasdiqlaydi.

Kompaniya milliy mehnat qonunchiligiga amal qiladi va ish haftasining 40 soatdan oshmasligini ta‘minlaydi, bu besh kunlik yoki olti kunlik ish jadvali bo‘lishidan qat‘i nazar amal qiladi. Smena asosida ishlaydigan xodimlar uchun ish vaqti normativ talablariga mos kelishini ta‘minlaydigan maxsus qoidalar mavjud. Bundan tashqari, imkoniyati cheklangan shaxslar, kuchli stress ostida ishlaydigan xodimlar hamda kichik yoshdagi farzandli ota-onalar uchun Mehnat kodeksiga muvofiq qisqartirilgan ish vaqti belgilangan. Shuningdek, kompaniya ishga qabul qilishda yagona boquvchilar va davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlariga kiritilgan shaxslarni sinov muddatidan ozod qiluvchi siyosatni joriy qilgan.



GRI 2-30

2024 va 2025-yillarda Kompaniyaning barcha xodimlari 100% mehnat shartnomasi bilan qamrab olingan bo‘lib, unda mehnat munosabatlarining asosiy jihatlari, jumladan mehnat sharoitlari, mehnat haqi, ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar tartibi belgilangan. Bu ish beruvchi va mehnat jamoasi o‘rtasidagi yuqori darajadagi ijtimoiy sheriklik hamda Kompaniyaning amaldagi mehnat qonunchiligi va korporativ siyosatga muvofiq

xodimlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlashga bo‘lgan sadoqatining aniq ifodasidir.

Jamoa shartnomasiga muvofiq, Kompaniya ommaviy ishdan bo‘shatishlarni amalga oshirish niyati haqida kamida ikki oy oldin Birlashgan kasaba uyushmalari qo‘mitasiga ma‘lumot berishi shart. Shuningdek, ishdan bo‘shatish oqibatlarini yumshatish choralarini izlash maqsadida xodimlar vakillari bilan maslahatlashuvlar o‘tkaziladi.

Xodimlar tarkibi

Bandlik

GRI 2-7

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, "O'zbekgeofizika" AJdagi ro'yxatga olingan xodimlar soni 3 183 nafarga yetgan bo'lib, ulardan 84%i erkaklar va 16%i ayollardir. Kompaniya jamoasi ko'pchilik erkaklardan iborat bo'lib, bu geofizika sohasining o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Kompaniyaning asosiy faoliyati dala ishlarini, xizmat safarlarini va Kompaniyaning asosiy faoliyati dala sharoitidagi ishlab chiqarish jarayonlari va xizmat safarlari bilan bog'liq. Shu bilan birga, ayol xodimlarning ko'pchiligi ofis sharoitida faoliyat yuritadi.

Kompaniya asosan O'zbekiston Geologiya fanlari universiteti bilan hamkorlik asosida kadrlar jalb qilish faoliyatini amalga oshiradi. Mazkur oliy ta'lim muassasasida geologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar tarkibida erkak talabalar ulushi yuqori bo'lib, bu geologiya va geofizika sohalaridagi mavjud mehnat bozori tarkibiga ta'sir ko'rsatmoqda.

2025-yil holatiga ko'ra, universitetda tahsil olayotgan jami 2146 nafar talabadan 1758 nafari erkaklar va 388 nafari ayollardan iborat.

Shu bilan birga, Kompaniya kelgusida xotin-qizlarni sohaga jalb qilish va ularning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tashabbuslarni davom ettirishni rejalashtirmoqda.

2023-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda xodimlar sonining jinsi, yoshi va hudud bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda keltirilgan.

20- jadval. 2023–2025-yillar oxiriga ro'yxatga olingan xodimlar soni, kishi

GRI 2-7

Ko'rsatkich	2023	2024	2025	O'zgarish,%
Erkaklar	3 122	2871	2557	-7%
Ayollar	598	558	518	-6%
Jami	3720	3429	3183	-7%

"O'zbekgeofizika" AJ kompaniyasi mamlakatning quyidagi 5 asosiy hududida tog'-kon muhandislik-texnik sohasida faoliyat yuritadi: Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati va Farg'ona viloyati.

21- jadval. Filiallar va hududlar bo'yicha ro'yxatga olingan xodimlar soni, kishi

GRI 2-7

No	Hudud	2023	2024	2025
1	Toshkent shahri	826	783	424
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	376	355	634

3	Buxoro viloyati	1007	924	851
4	Qashqadaryo viloyati	1004	932	900
5	Farg'ona viloyati	507	435	374

Xodimlarning yoshi asosan 30-50 yosh oralig'ida bo'lib, bu umumiy xodimlar sonining 80% ini tashkil etadi. Shuningdek, "O'zbekgeofizika" AJ yosh mutaxassislarni jalb etish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

22- jadval. 2023–2025-yillarda xodimlarning yosh guruhlari bo'yicha soni, kishi

GRI 2-7

No	Ko'rsatkich	2023	2024	2025
1	30 yoshgacha	634	720	269
2	30–50 yosh	2424	2263	2286
3	50 yoshdan yuqori	662	446	628

23- jadval. 2023–2025-yillarda shtatdan tashqari ishlovchi xodimlar soni, kishi

GRI 2-8

Ko'rsatkich	2023	2024	2025	O'zgarish, %
Shtatdan tashqari ishlovchilar	185	132	123	-7

Xodimlarni izlash va jalb qilish

GRI 401-1, 404-2

Xodimlar departamentining asosiy vazifalaridan biri yosh mutaxassislarni jalb qilishdir. "O'zbekgeofizika" AJ Kompaniyasi Geologik fanlar universiteti hamda I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali bilan hamkorlik shartnomalari doirasida talabalarning ta'lim xarajatlarini qoplab, ularni ish bilan ta'minlaydi. Xodimlar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlari yaratilgan bo'lib, bu ularning professional rivojlanishini rag'batlantiradi.

"O'zbekgeofizika" AJ "Ishga nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma"ni ishlab chiqilib va nomzodlarni tekshirish mexanizmlarini joriy etilgan. Ushbu mexanizmlar shaffoflikni ta'minlash va potentsial xatarlarning oldini olishga qaratilgan. Tekshiruv ish shakli qanday bo'lishidan — doimiy, vaqtinchalik yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida bo'lishidan qat'i nazar, barcha nomzodlarga nisbatan o'tkaziladi. Xodimlar bo'limi va ichki antikorrupsiya nazorat bo'limi to'liq tekshiruvni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lib, jarayon besh ish kunigacha davom etadi va qonuniylik hamda betaraflik tamoyillariga qat'iy rioya qilinadi.

Jarayonning ishonchliligini oshirish maqsadida, kompaniya davlatning rasmiy resurslari va ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda, masalan, Davlat xizmatlari agentligi platformasi, Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reestri, soliq portali, ochiq ma'lumotlar portali va boshqalar orqali tekshiruvlarni amalga oshiradi. Tekshiruv jarayonida rahbarlar shuningdek, nomzodning jinoyatga oid ma'lumotlari, firibgarlik, korrupsiya va zo'ravonlik bilan bog'liqligi bor-yo'qligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlardan ma'lumot oladi. Korrupsiya xavfi aniqlansa, mutaxassislar qo'shimcha baholash o'tkazib, xavflarni kamaytirish choralari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. Agar xavflarni bartaraf etish imkoni bo'lmasa, nomzodga nisbatan rad etish qarori qabul qilinib, kompaniyaga potentsial xavfning oldi olinadi.

Shunday qilib, ishga qabul qilish jarayoni bir nechta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: ariza berish, dastlabki tanlov, nomzodni chuqur tekshirish, kasbiy test va suhbat, qaror qabul qilish va mehnat shartnomasini rasmiylashtirish. Ushbu chora-tadbirlar "O'zbekgeofizika" AJning ishga qabul qilishning shaffof va axloqiy amaliyotini shakllantirishga intilishini ta'kidlaydi.

Hisobot davrida Kompaniyaga 31 nafar yangi xodim qabul qilindi. Xodimlarni tanlash yosh, madaniy, diniy, irqiy yoki boshqa belgilar bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyili asosida amalga oshirildi.

24- jadval. Hisobot yilida ishga qabul qilingan xodimlar soni, nafar

GRI 404-1

		2023	2024	2025	O'zgarish, %
Jins bo'yicha	Erkaklar	174	53	28	-47
	Ayollar	17	10	3	-25
Yosh bo'yicha	30 yoshgacha	67	20	16	-2
	30–50 yosh	112	32	14	-56
	50 yoshdan yuqori	5	5	1	-8
	Toshkent shahri	47	28	11	-60

		2023	2024	2025	O'zgarish, %
Hudud bo'yicha	Qoraqalpog'iston Respublikasi	7	6	8	33
	Buxoro viloyati	38	12	4	-66
	Qashqadaryo viloyati	77	5	0	
	Farg'ona viloyati	15	6	8	33
Jami		184	57	31	-46

2025-yilda Kompaniyada yangi xodimlarni jalb qilish hajmining kamayishi shtat tarkibini optimallashtirish va mavjud ehtiyojlardan kelib chiqqan holda cheklangan miqdordagi vakant lavozimlarni to'ldirish bilan bog'liq bo'ldi.

Shu sababli hisobot yilida yangi ishga qabul qilingan xodimlar soni, jumladan ayol xodimlar ulushi ham kamaydi.

Shu bilan birga, Kompaniya kelgusida yosh mutaxassislar va xotin-qizlarni sohaga jalb qilish hamda ularning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni davom ettirishni rejalashtirmoqda.

25- jadval. Xodimlar qo'nimsizligi, %

GRI 404-1

		2023	2024	2025	O'zgarish, %
Jins bo'yicha	Erkaklar	12	10.7	8.9	-16
	Ayollar	9.4	7.5	7.5	0
Yosh bo'yicha	30 yoshgacha	9.6	7.9	13.01	64
	30–50 yosh	7	7.3	6.3	-13
	50 yoshdan yuqori	28.9	28.2	15.61	-45

GRI 401-3

2025-yilda 48 nafar ayol xodim homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til hamda/yoki bola parvarishi bo'yicha ta'tilga chiqqan. Hisobot yilida bola parvarishi bo'yicha ta'tilning o'rtacha davomiyligi 365 kunni tashkil etdi.

Inklyuzivlik va teng imkoniyatlar

GRI 405-1, 405-2

“O‘zbekgeofizika” AJ har qanday shakldagi kamsitishlarga, jumladan kasbiy sifatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan yosh, irq, madaniyat, din va boshqa xususiyatlarga ko‘ra kamsitishlarga qarshi qat‘iy turadi. Kompaniyada yosh mutaxassislar va tajribali ustozlarni o‘z ichiga olgan holda faoliyat yuritadi.

Gender tengligini rivojlantirish bo‘yicha ishlar

2025-yilda Kompaniya gender tengligini targ‘ib qilish borasida ishlarni faol davom ettirdi va “O‘zbekgeofizika” AJda gender tengligi masalalari bo‘yicha Maslahat Kengashini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Maslahat Kengashining faoliyati doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita kamsitishni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- Statistik ma‘lumotlarning muntazam tahlili;
- Fuqarolarning tengsizlik masalalariga oid murojaatlarini ko‘rib chiqish va buzilgan huquqlarni tiklashga ko‘maklashish;
- Xodimlarning gender tengligi tamoyillari haqida xabardorligini oshirish;
- Kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish;
- Maslahat Kengashi yig‘ilishlarida muhokama qilinayotgan masalalarni ommaviy axborot vositalarida yoritishda hamkorlik qilish;
- Jamoada imkoniyatlarning adolatli taqsimlanishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

Shuningdek, Kengash ishga qabul qilish jarayonlarida ishtirok etadi, lavozimlarni taqsimlash va xodimlar zaxirasini shakllantirishda gender xilma-xilligi tamoyillarining bajarilishini tahlil qiladi. Samaradorlikni oshirish maqsadida Kengash xodimlarning mehnat huquqlari bajarilishini o‘rganish, ish sharoitlari bilan tanishish, aniqlangan gender tengsizlikni bartaraf etishga doir takliflar ishlab chiqish va ularni tegishli bo‘limlarga taqdim etish huquqiga ega.

2025-yilda “O‘zbekgeofizika” AJ gender tengligi va inklyuziv mehnat muhitini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan tashabbuslarni davom ettirdi. Hisobot davrida ayollar uchun professional rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish, teng imkoniyatlarni qo‘llab-quvvatlash hamda gender masalalari bo‘yicha ichki maslahat mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib borildi.

Hisobot davrida Kompaniyaning gender tengligi va inklyuzivlik masalalariga yondashuvi hamda ESG hisobotida ushbu yo‘nalishlarning yoritilishi tashqi ekspertlar tomonidan ijobiy baholandi.

Boshqaruv va quyi turuvchi xodimlar safidagi xilma-xillik

Quyida jins va yoshga ko‘ra bo‘lingan quyi bo‘gin va rahbar xodimlar sonini ko‘rsatuvchi jadvallar taqdim etiladi.

26- jadval. Boshqaruv organlaridagi xilma-xillik, nafar

GRI 405-1

	2023	2024	2025
Erkaklar	258	253	254
Ayollar	16	16	14

	2023	2024	2025
30 yoshgacha	18	22	5
30-50 yosh	199	190	216
50 yoshdan yuqori	45	45	46
Jami	274	269	268

Kompaniyada rahbarlik lavozimlariga tayinlashda ishlab chiqarish va dala tajribasining mavjudligi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Geofizika sohasining o'ziga xos xususiyatlari sababli ushbu yo'nalishda uzoq muddatli amaliy tajribaga ega ayol mutaxassislar soni cheklangan.

Shu bilan birga, noishlab chiqarish va ofis yo'nalishlaridagi lavozimlarda ayol xodimlar ulushi barqaror saqlanib qolmoqda.

Kompaniya kelgusida xotin-qizlarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning malakasini oshirish hamda boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha tashabbuslarni davom ettirishni rejalashtirmoqda.

27- jadval. Quyi bo'g'in xodimlarning xilma-xilligi, nafar

GRI 405-1

	2023	2024	2025
Erkaklar	2 864	2 618	2410
Ayollar	582	542	505
30 yoshgacha	616	698	264
30-50 yosh	2 225	2073	2070
50 yoshdan yuqori	617	401	582
Jami	3 446	3 160	2915

2024–2025-yillarda 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar sonidagi o'zgarishlar ayrim xodimlarning keyingi yosh toifasiga o'tishi, kompaniyada amalga oshirilgan optimallashtirish jarayonlari hamda tabiiy kadrlar oqimi bilan bog'liq bo'ldi.

Kompaniya ushbu yo'nalishni inson kapitalini rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim masala sifatida ko'rib chiqadi va kelgusida yosh mutaxassislarni jalb qilish hamda ularning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni davom ettiradi.

Ayollar umumiy ishchi-xodimlarning 17% ini tashkil qiladi.

Geologiya va geofizika yo'nalishlari an'anaviy ravishda texnik mutaxassisliklar qatoriga kiradi. Shu sababli ushbu sohalarda ayol mutaxassislar ulushi mehnat bozorida nisbatan cheklangan bo'lib qolmoqda. Kompaniya xodimlari tarkibidagi gender nisbatlari ham tarmoqning ushbu xususiyatlarini aks ettiradi.

“O‘zbekgeofizika” AJ gender tengligi va teng imkoniyatlar tamoyillariga qat’iy amal qiladi hamda xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish, o‘qitish va lavozim bo‘yicha o‘sish jarayonlarida kasbiy malaka va kompetensiyalarni asosiy mezon sifatida qo‘llaydi. Kompaniya ayol mutaxassislarni rivojlantirish va ularning geologiya hamda geofizika yo‘nalishlaridagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashni davom ettiradi.

Mehnat haqining tengligi

GRI 405-2

“O‘zbekgeofizika” AJ kompaniyasida mehnat haqi to‘lashda gender tengligi tamoyillari saqlanadi. Hisobot davriga oid ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi o‘rtacha ish haqi va umumiy mukofotlanish miqdori sezilarli darajada farq qilmaydi. Kompaniya jinsdan qat’i nazar, mehnat uchun adolatli mukofotlashni ta’minlab, teng imkoniyatlar siyosatini izchil amalga oshiradi. Respublika qonunchiligiga muvofiq, dala sharoitida ishlash uchun hisoblangan koeffitsientlar va ustamalar erkaklar va ayollar orasidagi umumiy mehnat haqidagi tegishli farqni shakllantiradi.

Quyidagi jadvallarda ish haqi, umumiy mukofot va bonuslarning o‘rtacha miqdori jinsga ko‘ra taqdim etilgan.

28- jadval. O‘rtacha ish haqi miqdori, mln so‘m

Ko‘rsatkich	2023		2024		2025		O‘zgarish, %	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Quy bo‘g‘in lavozimlar	1.950	1.613	2.217	1.793	2.606	2.186	0.17	0.22
Rahbar lavozimlar	3.109	2.813	3.282	2.917	3.675	3.266	0.12	0.12
Jami	2.046	1.621	2.311	1.801	2.708	2.215	0.17	0.23

29- jadval. O‘rtacha umumiy mukofot miqdori, mln so‘m

Ko‘rsatkich	2023		2024		2025		O‘zgarish, %	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Asosiy (oddiy) lavozimlar	4.988	3.964	5.810	4.465	6.167	4.721	6	6
Rahbar lavozimlar	7.162	6.646	7.944	7.188	8.455	7.652	6	6
Jami	5.168	3.982	5.998	4.484	6.385	4.799	6	7

Jadval 30. O'rtacha oylik va yillik bonus miqdori, mln so'm

	2023		2024		2025		O'zgarish, %	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
O'rtacha oylik bonus miqdori	2.069	1.545	2.566	1.814	2.509	1.678	-0.02	-7
Yillik bonus miqdori	1.053	0.816	1.121	0.869	1.169	0.906	0.04	4
Jami	3.122	2.361	3.687	2.683	3.678	2.584	-0.002	-4

“O'zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyati xilma-xillik va tenglik qadrlanadigan inklyuziv ish muhitini yaratish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Kompaniya gender tengligini ta'minlash va mehnat uchun adolatli rag'batlantirishni amalga oshirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xodimlarning xilma-xilligi va ish haqidagi tenglik bo'yicha Kompaniya inklyuziv va teng imkoniyatlarga asoslangan ish muhitini rivojlantirish bo'yicha ishlarni davom ettirmoqda. Kompaniyaning etik me'yorlar va yuksak korporativ boshqaruv standartlariga sodiqligini tasdiqlaydi.

Xodimlar tarkibini rivojlantirish bo'yicha yondashuv

2025-yilda Kompaniya xodimlar tarkibidagi ayrim demografik ko'rsatkichlarda o'zgarishlar kuzatilganligini qayd etadi. Xususan, yosh xodimlar va ayol xodimlar ulushining kamayishi kadrlar tarkibini optimallashtirish hamda ishlab chiqarish faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ldi.

Kompaniya ushbu yo'nalishlarni inson kapitalini rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim masala sifatida ko'rib chiqadi va kelgusida yosh mutaxassislarni jalb qilish, xotin-qizlarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda inklyuziv ish muhitini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

Shuningdek, gender tengligi va teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha maslahat kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda xodimlar uchun professional rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish rejalashtirilgan.

Xodimlarni o'qitish

GRI 404-1, 404-2

2025-yilda Kompaniya xodimlarning ta'lim salohiyatini rivojlantirish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarni faol ilgari surdi. Ta'lim dasturlari doirasida kiberxavfsizlik masalalariga bag'ishlangan seminar tashkil etildi, unda xodimlar profilaktika inspektoridan amaliy tavsiyalar olishdi. Bundan tashqari, sohaning yosh mutaxassislari bilan tog'-kon sanoati va geologiya vaziri o'rtasida ochiq muloqot bo'lib o'tdi, unda ularning ilmiy tadqiqot tashabbuslari, innovatsion takliflari va geologiya sohasidagi dolzarb muammolar muhokama qilindi. Eng faol ishtirokchilar mukofotlandi.



O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi qoshidagi malaka oshirish instituti, "O'zbekgeofizika" AJdagi o'quv-uslubiy markaz hamda boshqa ixtisoslashgan ta'lim markazlari talabga muvofiq geofizika profilidagi mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha dasturlarni amalga oshiradi.

Dastur soha taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha so'nggi texnologiyalarni qamrab oladi, jumladan, maydon va kon geofizikasi sohasida 3D seysmorazvedkalar, ko'pkanalli raqamli telemetrik ro'yxatga olish tizimlari, zamonaviy kompyuterli karotaj stansiyalari va quduqlardagi geofizik tadqiqotlar (QGT) operativ qayta ishlash tizimlari, shuningdek geofizik ma'lumotlarni mashina orqali chuqurlashtirilgan qayta ishlash va talqin usullari. Maxsus e'tibor seysmik izlanishlar va quduqlarda o'q otish va portlatish ishlarini boshqarish bo'yicha treninglarga qaratiladi.

Mashg'ulotlarni "O'zbekgeofizika" AJning yuqori malakali mutaxassislari, institut o'qituvchilari hamda import uskuna yetkazib beruvchi tashkilotlar vakillari olib boradi. Kursni tamomlagan tinglovchilarga tegishli uskunalariga xizmat ko'rsatish va maxsus ishlar bajarish huquqini tasdiqlovchi sertifikatlar taqdim etiladi.

Xalqaro hamkorlik va malaka oshirish

2025-yilda "O'zbekgeofizika" AJ xalqaro servis kompaniyasi SLB (Schlumberger) bilan seysmorazvedka ma'lumotlarini qayta ishlash va interpretatsiya qilish sohasida hamkorlik bo'yicha muzokaralar olib bordi. Uchrashuv davomida ilg'or geofizik texnologiyalarni joriy etish, 3D seysmik ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha pilot loyihalarni amalga oshirish hamda mutaxassislar malakasini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Hamkorlik doirasida geofizik ma'lumotlarni qayta ishlash va interpretatsiya qilish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xodimlarning professional salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ustoz-shogird tizimi

Kompaniyada yosh mutaxassislarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ustoz-shogird" tizimi joriy etilgan.

Mazkur tizim doirasida yosh geologlar tajribali mutaxassislar rahbarligida amaliy tayyorgarlikdan o'tmoqda. Xususan, ko'p yillik tajribaga ega geolog va pedagog Sh. Urazmetov tomonidan yosh xodimlarga geologiya va geofizika yo'nalishlarida amaliy bilim va ko'nikmalar berib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtda "Ustoz-shogird" tizimi qayta ko'rib chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda. Mazkur tizimni yosh mutaxassislarni tayyorlash va ularning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha korporativ o'quv dasturlariga integratsiya qilish rejalashtirilgan.

Kompaniya ushbu tizimni tajribali mutaxassislarning bilim va amaliy ko'nikmalarini yosh xodimlarga samarali yetkazishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida ko'rib chiqadi.

2025-yilda xodimlarni o'qitishga ajratilgan mablag'lar 1,269 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan kamaygan (-39%). Ushbu o'zgarish xarajatlarni optimallashtirish siyosati bilan bog'liq bo'lib, shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshirishga e'tibor qaratildi.

31- jadval. Xodimlarni o'qitishga sarflangan xarajatlar, mln so'm

	2023	2024	2025	O'zgarish, %
Xodimlarni o'qitishga yillik xarajatlar	1 544.50	2 097	1 269	-39

2025-yilda "O'zbekgeofizika" AJ xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish dasturlarini davom ettirdi. Ishlab chiqarish xodimlari uchun umumiy o'qitish soatlari soni 59 952 soatni tashkil etdi, shundan 45 552 soat erkaklarga va 14 400 soat ayollarga to'g'ri keldi. Rahbarlik lavozimlaridagi xodimlar uchun o'qitish soatlari umumiy miqdori 2 880 soat bo'lib, uning 2 160 soati erkaklarga va 720 soati ayollarga tegishli. Kompaniya barcha xodimlar uchun kasbiy rivojlanishga teng imkoniyatlar yaratishga amalga oshiradi va bu orqali xodimlar salohiyatini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

32- jadval. O'qitish, quyi bo'g'in lavozimlar, soatlarda

GRI 404-1

	2023		2024		2025	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Umumiy o'qitish soatlari	19 224	2 016	5 760	2 304	45 552	14 400
Bir xodimga to'g'ri keladigan yillik o'qitish soatlari	6.7	3.4	2	4	19	29

33- jadval. O'qitish, rahbarlik lavozimlari, soatlarda

GRI 404-1

	2023		2024		2025	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Umumiy o'qitish soatlari	3 600	288	1 512	144	2 160	720
Bir xodimga to'g'ri keladigan yillik o'qitish soatlari	14	18	6	9	9	51

2025-yilda rahbarlik lavozimlari uchun o'qitish dasturlarida umumiy o'quv soatlarining 2024-yilga nisbatan ko'payishi qayd etildi. Ushbu o'zgarish asosli bo'lib, boshqaruv xodimlarini tayyorlash samaradorligini oshirishga qaratilgan. Asosiy sabablar quyidagilar:

- O'quv modullari rahbar xodimlarning amaldagi ehtiyojlari hisobga olinib qayta ko'rib chiqildi, natijada o'quv davomiyligidan ko'ra mazmun va amaliy ahamiyatga ko'proq e'tibor qaratildi.
- Rahbarlik lavozimlari yuqori bandlikni talab qiladi. Soatlarning ko'payish o'quv jarayonini ushbu guruh uchun qulayroq qildi, shu bilan birga tayyorgarlik darajasi oshdi.
- Dasturlar ko'proq amaliy yo'nalishga ega bo'lib, haqiqiy boshqaruv vaziyatlari va ssenariylariga urg'u berildi, bu esa olingan bilimlarni tezda amalda qo'llash imkonini yaratadi.
- O'quv materiallarining katta qismi elektron shaklda taqdim etilgan bo'lib, rahbarlarga zarur paytda bilimlarini mustaqil chuqurlashtirish imkonini beradi, barcha mashg'ulotlarda jismoniy qatnashishni talab qilmaydi.

Shunday qilib, 2025-yilda rahbarlik lavozimlari uchun o'qitish dasturlaridagi umumiy soatlar sonining ko'payishi o'quv jarayonining modernizatsiyasi natijasi bo'lib, uning samaradorligini oshirish va boshqaruv kompetensiyalari zamonaviy talablariga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan.



“O‘zbekgeofizika” AJ "Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi" filiali xodimlari 2025-yil 27-30-yanvar kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi "Rahbar tarkibni tayyorlash" o‘quv markazida maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti mutaxassislari tomonidan olib borilgan 30 soatlik intensiv kurs davomida ular favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini egallab, maxsus guvohnomalarga ega bo‘lishdi.



Maxsus guvohnomalarga ega bo‘lgan mutaxassislar o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etib, filialning kon geofizikasi va dala partiyalari ishchi xodimlariga xavfsiz hayot asoslari va birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullarini o‘rgatishdi. Ular favqulodda vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirib, jamoaning umumiy xavfsizligini oshirishga hissa qo‘shdilar.

Mehnat jamoasini qo'llab-quvvatlash

GRI 2-30, 401-2, 401-3



2025-yilning yil davomida O'zbekgeofizika" AJda ayollar va erkaklar huquqlari hamda imkoniyatlarining tengligini ta'minlash bo'yicha maslahat kengashi xodimlar o'rtasida madaniy, ta'lim va sport sohasini rivojlantirish hamda ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarni faol amalga oshirdi.

2025-yil davomida xodimlarni rivojlantirish sohasida quyidagi tadbirlar o'tkazildi:

- Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ijodiga bag'ishlangan turli tadbirlar;
- Jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha seminar;
- Shaxmat va shashka turniri;
- Kiberxavfsizlik mavzusida profilaktik suhbat;
- Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan chiqishlar;
- Stol tennisi turniri;
- Navro'z bayramiga tadbirlar;
- Kamondan otish bo'yicha musobaqa;
- "Zakovat" intellektual o'yini;
- Voleybol musobaqasi;
- Futbol musobaqasi;
- Ichki turizm;
- 9-may — Xotira va qadrlash;
- "Chimgan challenge 2025" sport festivali

“O‘zbekgeofizika” AJ da buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi hamda boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning 542 yilligi munosabati bilan ishchixodimlar o‘rtasida tanlov tashkil etildi.

Tadbir davomida adiblarning hayoti va ijodiga oid test savollari taqdim etildi. G‘oliblar munosib taqdirlandilar.



Sport tashabbuslari

"Sport nafislik va salomatlik manbai" shiori ostida sport musobaqalari



Poytaxtimizning Shayxontohur tumani sport maktabida Sport vazirligi tomonidan xotin-qizlar o'rtasida stol tennisi, shaxmat va shashka bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

Tadbirda "O'zbekgeofizika" AJ ayollar jamoasi ham faol ishtirok etdi. Sport vaziri maslahatchisi barcha ishtirokchilarni 8-mart bayrami bilan tabriklab, sport bilan muntazam shug'ullanishga chorladi.

Musobaqa yakunida esdalik sovg'alari topshirildi..



"Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan "O'zbekgeofiza" AJ "Yakkabog' Geofizika Ekspeditsiyasi" ishchi-xodimlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida sportning "Volleyball" turi bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Musobaqada 4 ta jamoa g'oliblik uchun kurash olib bordilar va yakunida "Qosqala 3D" jamoasi birinchi o'rin sohibi bo'ldi.



G'oliblar qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



2025-yilning 21-23-fevral kunlari Sport vazirligi tomonidan Bo'stonliq tumanining Chimyon qishlog'ida an'anaviy "Chimgan challenge 2025" sport festivali tashkil etildi.

Ushbu sport tadbirida mamlakatimizdagi vazirliklar, davlat idora va tashkilotlarining 150 nafardan ziyod sport targ'ibotchilari ishtirok etishdi. Festival doirasida sport musobaqalari hamda o'quv seminarlar tashkil etildi.



Ushbu sport tadbirida "O'zbekgeofizika" AJ yoshlar yetakchisi ishtirok etib, uning jamoasi voleybol musobaqasida faxrli 1-o'rinni egalladi.

Sport tashabbuslari Kompaniyaning korporativ madaniyatining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va xodimlar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 2025-yilda shaxmat va shashka bo'yicha ichki musobaqalar tashkil etildi, unda 40 dan ortiq xodim ishtirok etdi. G'oliblar kasaba uyushmasi tomonidan mukofotlar bilan taqdirlandi, bu esa qo'shimcha motivatsiya berib, jamoaviy ruhni mustahkamladi. Shuningdek, Kompaniya xodimlari stol tennisi bo'yicha turnirda faol ishtirok etdilar, bu musobaqa ham tashkilot sport hayotida muhim voqea bo'ldi.

9-may — Xotira va qadrlash kuni muborak!

Bu muqaddas sana — yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida jonini fido qilgan yurtdoshlarimizni yod etish, ularning xotirasiga hurmat bajo keltirish kunidir. Ikkinchi jahon urushi faxriylari va ularga tenglashtirilgan fidoyi insonlarning jasorati qalbimizda mangu barhayotdir.

"O'zbekgeofizika" AJda ushbu sanani munosib tarzda nishonlash, faxriylarimizni e'zozlash va qo'llab-quvvatlash ezgu an'anaga aylangan. 2025-yilda ham Jamiyatda mehnat qilayotgan urush qatnashchilariga tenglashtirilgan xodimlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilib, ularga chuqur minnatdorchilik izhor etildi. Bu esa o'z o'rnida xodimlarni qo'llab-quvvatlaydiganidir.



Xalqaro xotin-qizlar kuni

Mart oyida, Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Kompaniyada bir qator muhim tadbirlar bo'lib o'tdi. Kompaniya rahbariyati va Birlashgan kasaba uyushmasi ayol hamkasblarni bayram bilan tabriklab, ularga gullar va esdalik sovg'alari topshirdi. Bayram doirasida "Balli Qizlar" va "Balli Buvijon" tanlovlari tashkil etildi, unda ayollar jamoalari turli sinovlarda ishtirok etib, o'zlarining ijodkorligi va jipsligini namoyon etdilar. G'oliblarga korporativ sovg'alar topshirildi.



Intellectual o'yin

"O'zbekgeofizika" AJ filiali "Buxoro geofizika ekspeditsiyasi"da 8 mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan ayol xodimlar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi.

Tadbirda ayollar o'z bilimi, zakovati va tafakkurini namoyish etishdi. G'olib va ishtirokchilarga esdalik sovg'alari hamda tashakkurnomalar topshirildi.



"O'zbekgeofizika" AJ Yoshlar dasturi doirasida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi

"Yoshlar dasturi"ga muvofiq va xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish maqsadida "Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi" filialida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi.

Tadbirda filialning barcha bo'linmalari tomonidan tuzilgan jamoalar ishtirok

etib, bilim va mantiqiy salohiyat borasida kuch sinashdilar. Musobaqa natijalariga ko'ra, eng yuqori natija ko'rsatgan g'olib jamoaga filialning kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Mazkur tadbir xodimlar o'rtasida intellektual faollikni oshirish va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Har tomonlama rivojlanish

Aprel oyida kiberxavfsizlik va yoshlar jinoyatchiligi masalalariga bag'ishlangan profilaktik seminar bo'lib o'tdi. Unda xodimlar profilaktika inspektoridan foydali tavsiyalar oldilar. Bundan tashqari, Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri yosh xodimlar bilan sohaga oid ochiq muloqot o'tkazdi. Unda ularning tadqiqotlari, innovatsion g'oyalari va geologiya sohasidagi dolzarb muammolar muhokama qilindi. Uchrashuvda eng faol ishtirokchilar mukofotlandi.

Yilning eng muhim voqealaridan biri "O'zbekgeofizika" AJ xodimlarining O'zbekiston Olimpiya shon-sharafi muzeyiga tashrifi bo'ldi. Ular bu yerda 2000 dan ortiq eksponatlar — medallar, kuboklar, sport kiyimlari va jihozlari bilan tanishdilar.

"Xon Atlas" festivali doirasida ayol xodimlar xon atlas matosining tarixi hamda milliy liboslarning zamonaviy moda olamidagi o'rni haqida ma'lumotga ega bo'ldilar. Tadbir davomida Kompaniya ayollari o'rtasida tanlov o'tkazildi va eng faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Ustoz-shogird tizimi

Yosh geologlar "O'zbekgeofizika" AJda ustoz Sh. Urazmetov rahbarligida tayyorgarlikdan o'tmoqdalar. U o'zining faoliyati davomida bir nechta konlarning ochilishiga katta hissa qo'shgan, rahbarlik lavozimlarida ishlagan tajribali geolog va pedagog hisoblanadi. Bugungi kunda u geologiya sohasidagi tajribasidan foydalanib, sohadagi yosh xodimlarga ustozlik qilmoqda.

Tibbiy xizmat ko'rsatish



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi buyrug'iga muvofiq, har yili xodimlarning mobil shaklda davriy tibbiy ko'rikdan o'tishi tashkil etiladi, bu esa xodimlar uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Ushbu tashabbuslar Kompaniyaning korporativ madaniyatni rivojlantirish, gender tengligini qo'llab-quvvatlash, xodimlarning sog'ligini mustahkamlash hamda yoshlarning professional o'sishi uchun imkoniyatlar yaratishga sodiqligini namoyon etdi.

Xodimlar uchun imtiyozlar

GRI 401-2

"O'zbekgeofizika" AJ o'z xodimlariga farovonlik va ijtimoiy himoyani ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli imtiyozlar paketini taqdim etadi. Berilayotgan imtiyozlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Hayotni sug'urtalash;
- Tibbiy xizmat ko'rsatish;
- Nogironlik va mehnatga qobiliyatsizligi bo'yicha to'lovlar (qonunchilikda belgilanganidan ortiq);
- Bola parvarishi uchun ta'til;
- Pensiya dasturlari;
- Aksiyalar egaligi;
- Yo'l xarajatlari va ovqatlanish uchun to'lovlar;
- To'y marosimini o'tkazish uchun moddiy yordam.

Ushbu barcha to'lovlar va imtiyozlar Jamoa shartnomasida batafsil tartibga solingan. Shuningdek, vaqtinchalik xodimlar uchun ham hayotni sug'urtalash, tibbiy xizmat ko'rsatish va aksiyalar egaligi dasturi kabi imtiyozlar taqdim etiladi.

Berilgan imtiyozlarning jami summasi 7 650 mln so'mni tashkil etdi.

Mukofotlash va rag'batlantirish tizimi

GRI 202-1

"O'zbekgeofizika" AJda barcha xodimlar uchun maosh indeksatsiyasi bir vaqtda amalga oshiriladi. Indeksatsiyaning o'tkazilish muddati, hisoblash tartibi va indeksatsiyalanadigan to'lovlar ro'yxati Rahbariyat ichki buyrug'iga asosan, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi ko'rsatmalariga muvofiq belgilanadi.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi hududida eng kam ish haqi miqdorining oshirilishi munosabati bilan, xodimlarning maoshi 2024-yil 1-oktyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-108-son Farmoni va Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 117-son buyrug'iga muvofiq indeksatsiyalandi. Eng kam ish haqi asosida hisoblangan oylik maosh va boshqa to'lovlar miqdori 10% ga oshirildi.

Tasdiqlangan ichki qoidalarga muvofiq, Kompaniya xodimlariga quyidagi rag'batlantiruvchi to'lovlar taqdim etiladi:

- Doimiy ish staji uchun oylik ustama;
- Xo'jalik faoliyatidagi asosiy natijalar uchun oylik mukofotlar;
- Yil yakunlari bo'yicha mukofotlar;
- Alohida muhim vazifalarni bajarganlik uchun mukofotlar;
- Ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etganlik uchun bir martalik to'lovlar;
- Ishdagi ijobiy natijalarga erishganlik uchun qo'shimcha to'lovlar.

34- jadval. Eng yuqori maosh oluvchi xodim yillik umumiy mukofotining boshqa xodimlarning yillik umumiy mukofotining medianasiga nisbati, taqqoslash

GRI 2-21

	2023	2024	2025	O'zgarish, %
Eng yuqori maosh oluvchi xodimning yillik umumiy mukofotining boshqa xodimlarning yillik umumiy mukofotining medianasiga nisbati	3.5	3.4	3.4	0
Eng yuqori maosh oluvchi xodimning yillik umumiy mukofotining o'sish foizining boshqa xodimlarning o'rtacha o'sish foiziga (eng yuqori maosh oluvchi xodimni hisobga olmaganda) nisbati	99.64%	99.07%	99.16%	0

Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi

Sog'liq bilan bog'liq xatarlar

GRI 3-3, 403-1

“O‘zbekgeofizika” AJda xodimlarning aksariyati (taxminan 90%) geologik qazish ishlarida dala sharoitida ishlaydi, qolgan qismi esa ofis sharoitida faoliyat yuritadi. Shunga ko‘ra, ko‘pchilik xodimlar uchun eng dolzarb bo‘lgan ish bilan bog‘liq xavflar quyidagicha saralangan:

- Jismoniy yuklama;
- Ob-havo sharoitlari;
- Zaharli moddalar;
- Jarohat olish xavfi;
- Uzoq vaqt dala sharoitida bo‘lish;
- Noto‘g‘ri tana holati va kamharakat turmush tarzi;
- Ko‘z zo‘riqishi;
- Jismoniy faollik yetishmasligi.

Tibbiy ko‘riklar va kasb kasalliklarining oldini olish

GRI 403-9, 403-10

2024-yilda davriy tibbiy ko‘riklar davomida 57 nafar xodimda arterial gipertoniya holatlari qayd etilgan. Dastlab ushbu holatlar hisobotda sog‘liq bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tarkibida aks ettirilgan.

Biroq, 2025-yilda tibbiy hujjatlar va mutaxassislar xulosalari qayta tahlil qilinib, mazkur holatlar ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq kasb kasalliklari sifatida tasniflanmasligi aniqlandi. Tibbiy komissiya va kasb patologlari xulosalariga ko‘ra, ushbu holatlar zararli ishlab chiqarish omillari ta‘siri natijasida yuzaga kelmagan bo‘lib, umumiy surunkali kasalliklar toifasiga kiradi.

Shu bilan birga, Kompaniya xodimlar salomatligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida quyidagi profilaktik choralarni kuchaytirdi:

- davriy tibbiy ko‘riklar qamrovini kengaytirdi;
- arterial qon bosimini muntazam monitoring qilish amaliyotini yo‘lga qo‘ydi;
- sog‘lom turmush tarzi va to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha tushuntirish tadbirlarini o‘tkazdi;
- yurak-qon tomir kasalliklari xavf omillarini erta aniqlash bo‘yicha tibbiy tavsiyalar berishni kuchaytirdi.

2025-yil 30-dekabrda tibbiy komissiya dalolatnomasiga muvofiq, Kompaniyada kasb kasalligi yoki ishlab chiqarish bilan bog‘liq zaharlanish holatlariga shubha qilingan xodimlar aniqlanmagan.

35-jadval Mehnat xavfsizligi va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar bo'yicha ko'rsatkichlar (2023–2025 yy.)

<i>Ko'rsatkich</i>	<i>2023</i>	<i>2024</i>	<i>2025</i>
<i>LTIFR</i>	<i>0,63</i>	<i>0,56</i>	<i>0,46</i>
<i>TRCF</i>	<i>1,20</i>	<i>1,10</i>	<i>0,94</i>
<i>Ishlab chiqarish bilan bog'liq o'lim holatlari soni</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>

Mazkur natijalar Kompaniyada mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi tizimi samarali faoliyat yuritayotganini hamda xavfsiz mehnat sharoitlari ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Mehnat muhofazasi va xodimlarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimi

GRI 403-2, 403-3, 403-6, 403-7

“O'zbekgeofizika” AJda ISO 45001:2018 “Mehnatni muhofaza qilish menejmenti tizimi” xalqaro standarti joriy etilgan bo'lib, Kompaniyaning barcha obyektlarida ishlar integratsiyalashgan xalqaro menejment tizimi standartlari asosida olib borilmoqda.

Shuningdek, Kompaniyaning ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi tipik xavflarni baholash tartibi ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatlar asosida ish bilan bog'liq xavflar aniqlanadi hamda ularning xodimlar sog'lig'iga ta'siri muntazam ravishda monitoring qilinadi.

Har yili “O'zbekgeofizika” AJning barcha xodimlari ish beruvchi hisobidan kompleks tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, xodimlar orasida kasb kasalliklari, jumladan gipertoniya holatlari qayd etilmadi, bu esa sog'liqni saqlash va profilaktika choralarining samaradorligini ko'rsatadi. Salomatligi yomonlashgan xodimlar aniqlangan hollarda ular ish beruvchi hisobidan klinik shifoxonalarda davolanishga yo'naltiriladi.

Kompaniya sog'liq bilan bog'liq xavflarni bartaraf etish maqsadida tizimli choralarini amalga oshirmoqda. “O'zbekgeofizika” AJda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha doimiy komissiya faoliyat yuritadi. Har oyda o'tkaziladigan nazorat tekshiruvlari davomida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli tavsiyalar va ko'rsatmalar berilib, ularning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatiladi. Ushbu ko'rsatmalar asosida uchastka (sex) boshliqlari tomonidan xavflarni kamaytirish va oldini olish choralar ko'riladi.

Shuningdek, har yili mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi tadbirlarini moliyalashtirish uchun 3 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratiladi. Ushbu mablag'lar hisobidan dala sharoitida ishlovchi xodimlar shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanadi, ularning mehnat va dam olish sharoitlari yaxshilanadi hamda xodimlar mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo'yicha muntazam o'qitiladi.

Hisobot yilida Kompaniyaning 158 nafar xodimi mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo'yicha o'qitildi.

Tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra zarur hollarda xodimlar “O'zbekgeofizika” AJ ko'p tarmoqli klinik shifoxonasida hamda boshqa ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida, shu jumladan xorijiy sanatoriylarda davolanishga yuboriladi.

GRI 403-4



36- jadval. Mehnat muhofazasi va ish joyida xavfsizlik bo'yicha o'z xodimlari o'rtasida kasbiy tayyorgarlik, xodim boshiga o'qish soatlari

GRI 403-5

	O'lchov birligi	2023	2024	2025
Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo'yicha xodim boshiga o'rtacha o'qish soatlari	Soat	48	48	48
Mehnat muhofazasi va ish joyidagi xavfsizlik bo'yicha o'qishni tamomlagan xodimlar soni	Nafar	158	157	158

2025-yilda Kompaniyaning barcha xodimlari mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimi doirasida qamrab olingan bo'lib, tizim ichki audit va mustaqil uchinchi tomon auditi jarayonidan muvaffaqiyatli o'tgan.



37- jadval. Mehnat muhofazasi va ish joyi xavfsizligi boshqaruv tizimi doirasida qamrab olingan xodimlar soni, nafar

GRI 403-8

	2023	2024	2025
Kompaniya mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimi bilan qamrab olingan xodimlar soni	3 720	3 429	3 199
Ichki auditdan o'tgan mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimi doirasida qamrab olingan xodimlar soni	3 720	3 429	3 199
Mustaqil uchinchi tomon auditidan/sertifikatlashidan o'tgan mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimi doirasida qamrab olingan xodimlar soni	3 720	3 429	3 199

38- jadval. Kompaniya xodimi bo'lmagan, ammo ish faoliyati va ish joyi kompaniya tomonidan nazorat qilinadigan, mehnat muhofazasi va ish joyi xavfsizligi boshqaruv tizimi doirasida qamrab olingan shaxslar, nafar

GRI 403-8

	2023	2024	2025
Pudratchi tashkilotlar xodimlari orasida mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimi bilan qamrab olinganlar soni	65	67	69
Ichki auditdan o'tgan mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimi doirasida qamrab olingan pudratchi tashkilotlar xodimlari soni	65	67	69

2026-yil uchun mehnat xavfsizligi ustuvor yo'nalishlari

2026-yilda "O'zbekgeofizika" AJ mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

ESG yo'l xaritasi doirasida quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

- ishlab chiqarishdagi xavf-xatarlarni baholash va monitoring qilish tizimini rivojlantirish;
- "near miss" holatlarini tahlil qilish va profilaktik choralarni kuchaytirish;
- xodimlarni mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha muntazam o'qitish;
- xodimlarning davriy tibbiy ko'riklarini tizimli tashkil etish;
- ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi nazoratini kuchaytirish;
- ISO 45001 standartlari bo'yicha nazorat auditlarini davom ettirish.

Mazkur chora-tadbirlar xavfsiz mehnat muhitini ta'minlash, ishlab chiqarishdagi xavflarni kamaytirish va xodimlar salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan.

Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik

2025-yilda Kompaniya mahalliy hamjamiyatlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida faoliyatini davom ettirdi. Barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda ijtimoiy va ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar qo'llanildi. Xususan, hisobot yilida gender jihatini ham o'z ichiga olgan ijtimoiy ta'sirni baholash hamda atrof-muhitga ta'sirni baholash ishlari amalga oshirilib, ularning doimiy monitoringi olib borildi. Mazkur baholash natijalari ochiq e'lon qilinib, Kompaniya faoliyatining shaffofligi ta'minlandi.

Kompaniya faoliyatida mahalliy hamjamiyatlarning haqiqiy ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratilib, rivojlanish dasturlari manfaatdor tomonlarning kutishlari va manfaatlarini chuqur tahlil qilish asosida shakllantirildi. Shu bilan birga, hamkorlik jarayonlari tizimli ravishda yo'lga qo'yilib, Kompaniya va mahalliy aholi o'rtasida barqaror muloqot muhiti yaratildi.

Kompaniyada mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi ishchi organlar, jumladan tegishli qo'mitalar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular orqali yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmogda. Har oyda o'tkaziladigan nazorat tadbirlari natijasida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli tavsiyalar berilib, ularning ijrosi ustidan qat'iy nazorat o'rnatiladi.

Aholi murojaatlarini ko'rib chiqishning rasmiy mexanizmlari faol ishlamoqda. Ushbu tizim orqali kelib tushayotgan murojaatlar o'z vaqtida ko'rib chiqilib, zarur choralar ko'riladi. Bu esa Kompaniyaga nisbatan jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Hisobot yilida yoshlarni kasbga yo'naltirish va ularning ilmiy-texnik sohalarga qiziqishini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, maktab o'quvchilari uchun geologiya va geofizika yo'nalishlari bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilib, ekskursiyalar va uchrashuvlar tashkil etildi. Ushbu tadbirlar yoshlar orasida soha nufuzini oshirishga xizmat qildi.

Shuningdek, Kompaniya tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadbirlari izchil davom ettirildi. Pensionerlar, mehnat faxriylari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Xayriya tadbirlari doirasida ehtiyojmand oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa zarur yordamlar yetkazib berildi.

Shu bilan birga, ijtimoiy zaif qatlamlar ishtirokidagi keng ko'lamli maslahatlashuv jarayonlarini yanada rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda va bu kelgusidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda.

2025-yilda ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmi oshirildi. Ushbu yo'nalishdagi investitsiyalar Kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish va barqaror rivojlanishga hissa qo'shishga xizmat qilmoqda.

2025-yilda Kompaniya tomonidan ko'rsatilgan homiylik yordami miqdori 327,1 million so'mni tashkil etdi. Homiylik yordami doirasida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, bolalar uylari va maktab-internatlarga yordam ko'rsatish, shuningdek boshqa ijtimoiy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshirildi.

39- jadval. Homiylik yordami, mln so'm

GRI 413-1

	2023	2024	2025	O'zgarish, %
Kam ta'minlanganlarga yordam	28	58	81.7	+40.9%
Bolalar uylari va maktab-internatlarga yordam	41.6	44	51.2	+16.4%
Bayram tadbirlarini tashkil etishda yordam			11.2	
Boshqa tashkilotlarga homiylik yordami	76.9	258.4	183	-29.2%
Homiylik yordami bo'yicha jami xarajatlar	168.4	600.4	327.1	-45.5%

2026-yil uchun ijtimoiy yo'nalishdagi ustuvor vazifalar

2026-yilda "O'zbekgeofizika" AJ inson kapitalini rivojlantirish va xodimlar farovonligini oshirishga qaratilgan ESG tashabbuslarini izchil davom ettirishni rejalashtirmoqda.

ESG yo'l xaritasi doirasida quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

- xodimlarning murojaatlarini ko'rib chiqish va qayta aloqa mexanizmlarini takomillashtirish;
- xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiya darajasini baholash tizimini joriy etish;
- xodimlarni o'qitish va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish;
- xodimlar salomatligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish;
- munosib mehnat tamoyillarini qo'llab-quvvatlash va xavfsiz mehnat muhitini mustahkamlash;
- xodimlarni barqaror rivojlanish va ESG tamoyillari bo'yicha xabardorligini oshirish.

Kompaniya kelgusida inson kapitalini rivojlantirishni barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadi.

4-bob. Korporativ boshqaruv

Korporativ boshqaruv tuzilmasi

GRI 2-9, 2-10, 2-11, 2-12, 2-13, 2-14

“O‘zbekgeofizika” AJda korporativ boshqaruv va jarayonlar tizimi qaror qabul qilishda va kundalik faoliyatda shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlaydigan qilib shakllantirilgan. Ushbu korporativ boshqaruv tizimi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xodimlar, aksiyadorlar, hamkorlar, mijozlar va jamiyat farovonligi yo‘lida oqilona va samarali faoliyat yuritishning zaruriy asosi hisoblanadi.

Kompaniya o‘zining barqaror rivojlanish bo‘yicha tashabbuslarini va hisobotlarini xalqaro me‘yorlar va standartlar bilan muvofiqligini ta‘minlash maqsadida, Global hisobot tashabbusi (GRI) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) kabi xalqaro e‘tirofdagi standartlarga rioya qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, “O‘zbekgeofizika” AJ boshqaruv organlari quyidagilardir:

- Aksiyadorlarning Umumiy Yig‘ilishi – Kompaniyaning oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Asosiy aksiyador Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bo‘lib, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar ham aksiyador sifatida ishtirok etadi. 2026-yildan boshlab asosiy aksiyador huquqlari "O‘zbekneftgaz" AJga o‘tadi. Ularning funksiyalari Kompaniya Ustavida belgilangan.
- Kuzatuv Kengashi – Kompaniyaning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi; Kompaniya faoliyatini samarali boshqarish hamda tegishli nazorat qilish yuzasidan Aksiyadorlik Jamiyati oldida to‘liq mas‘uldir.
- Ijroiya organi, Boshqaruv – Kompaniyaning joriy faoliyatini boshqarishni amalga oshiradi.

Kompaniya qo‘mitalari va ularning siyosatlarini 2024-yilga kelib shakllandi. Kompaniya Kuzatuv kengashi asosli va samarali qarorlar qabul qilinishini ta‘minlash maqsadida quyidagi qo‘mitalarni tayinladi:


- Audit qo‘mitasi – Kompaniya moliyaviy hisobotlarining mustaqilligi va xolisligini ta‘minlaydi, ichki nazorat tizimi samaradorligini, normativ talablarga rioya etilishini hamda tashqi auditorlar faoliyatini monitoring qiladi. 2025-yil davomida Qo‘mita bitta yig‘ilish o‘tkazdi.
- Korrupsiyaga qarshi kurash va etika qo‘mitasi – Korrupsiyaviy xatarlarning oldini olishga qaratilgan siyosat va taomillarni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, Kompaniyaning etika standartlariga rioya qilinishini ta‘minlash uchun mas‘uldir. 2025-yilda Qo‘mitaning ikkita majlisi o‘tkazildi.
- Tayinlovlar va mukofotlash qo‘mitasi – Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosini, xodimlar siyosatini, Kompaniya tashkiliy rivojlanishi va ichki hujjatlar ijrosini nazorat qiladi. 2025-yil davomida Qo‘mita uchta yig‘ilish o‘tkazdi.
- Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi – Kompaniya rivojining strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish, baholash va tasdiqlash, shuningdek, Kompaniyadagi transformatsiya va xususiyashtirish jarayonlarini boshqarish uchun javobgardir. 2025-yilda Kuzatuv kengashi Qo‘mita faoliyatini faollashtirdi va 2026-yildan boshlab Qo‘mita muntazam ravishda tegishli masalalarni ko‘rib chiqadi va muhokama qiladi.

Qo‘shimcha ravishda 2025-yilda Kuzatuv kengashi o‘z vazifalarini bajarish uchun quyidagi nazorat funksiyalariga tayanadi:

- Ichki audit xizmati Kompaniyaning moliyaviy- xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.
- Korporativ kotibiyat – Kuzatuv kengashining maslahatchisi kompaniya faoliyatining korporativ boshqaruv bo‘yicha qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash va ilg‘or amaliyotlarni joriy etilishga mas‘uldir.

- Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorati bo'limi - Korrupsiyaviy xatarlarning oldini olishga qaratilgan siyosat va taomillarni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, Kompaniyaning etika standartlariga rioya qilinishini ta'minlash uchun mas'uldir.

1- rasm. 2025-yil uchun korporativ boshqaruv tuzilmasi



Kompaniyada korporativ boshqaruv jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy ichki hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar:

- “O‘zbekgeofizika” AJ Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi nizom;
- “O‘zbekgeofizika” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizom;
- “O‘zbekgeofizika” AJ Ijroiya organi to‘g‘risidagi nizom;
- “O‘zbekgeofizika” AJ Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizom;
- “O‘zbekgeofizika” AJ Axloq kodeksi;
- Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha davlat komissiyasining 2015-yil 31-dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi (keyingi o‘rinlarda — Korporativ boshqaruv kodeksi);
- Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha davlat komissiyasining 2018-yil 20-aprelda 15-son bayonnomasi bilan ma‘qullangan Davlat ulushiga ega korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari;
- O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
- Boshqa sohalar bo‘yicha hujjatlar: korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va boshqalar.

Kompaniya korporativ boshqaruv tizimini bir vaqtning o‘zida uchta metodika bo‘yicha baholaydigan kam sonli korxonalardan biri hisoblanadi:

- 2016-yildan buyon amalda bo‘lgan Korporativ boshqaruv kodeksi,
- 2024-2028-yillarda O‘zbekiston bilan besh yillik sheriklik strategiyasi doirasida ishlab chiqilgan OTBning korporativ boshqaruv bo‘yicha yo‘l xaritasi.
- Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash

GRI 2-18

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha Davlat komissiyasining 2015-yil 31-dekabrda 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga muvofiq Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini har yili mustaqil kompleks baholash o'tkaziladi. Baholash O'zbekiston Respublikasi Raqobat siyosati davlat qo'mitasi va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tomonidan tasdiqlangan so'rovnoma asosida amalga oshiriladi. Baholash natijalaridan Kompaniyada korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.

Korporativ boshqaruvni mustaqil baholash natijalari Kompaniyaning korporativ veb-saytida e'lon qilinadi. So'nggi uch yil davomida "O'zbekgeofizika" AJning korporativ boshqaruv tizimi doimo yuqori deb baholangan (-1200 dan -600 gacha diapazon "qoniqarsiz", -599 dan 0 gacha "past", 1 dan 600 gacha "qoniqarli", 601 dan 1200 gacha "yuqori"). Metodika bo'yicha ruxsat etilgan maksimal ball soni 1200 tani tashkil etadi. 2024-yilda "Investment Management Group" MCHJ tomonidan o'tkazilgan mustaqil baholash kompaniyaga 1025 ball berdi, bu 2023-yilga (1005 ball) nisbatan ijobiy dinamikani ko'rsatadi. "Investment Management Group" MCHJning mustaqil baholash natijalariga ko'ra, 2025-yil 9 oylikda Kompaniya 1015 ball to'pladi, 2025-yil yakunlariga ko'ra, Kompaniya 1025 ball natijani saqlab qolib, korporativ boshqaruv tizimining barqarorligi va samaradorligini yana bir bor tasdiqladi. Kontragentlarni tanlashning yanada shaffof va rasmiylashtirilgan tartib-qoidalarini joriy etish va ushbu sohadagi jarayonlarning ochiqligini oshirish bunday rivojlanishning asosiy omili bo'ldi. Mustaqil a'zoning fikriga ko'ra, Kompaniya korporativ boshqaruv tizimi darajasi bo'yicha O'zbekistonning eng yaxshi kompaniyalari top 10 foizligiga kiradi.

“O‘zbekgeofizika” AJ Korporativ kotibiyati.

Korporativ kotibiyat – Kuzatuv kengashining maslahatchisi kompaniya faoliyatining korporativ boshqaruv bo‘yicha qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash va ilg‘or amaliyotlarni joriy etilishga mas‘uldir.



Shek Evgeniy Yuryevich — “O‘zbekgeofizika” AJ Sekretariati rahbari. U korporativ boshqaruv va qimmatli qog‘ozlar bozori sohasida 20 yillik tajribaga ega mutaxassis hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar bozorini nazorat qilish sohasida tajribaga ega. Turli yillarda depozitar hisob-kitob, brokerlik operatsiyalari, aktivlarni boshqarish va korporativ boshqaruv sohaslarida mas‘ul lavozimlarda faoliyat yuritgan. Hozirgi kunda jamiyat ustav kapitalini shakllantirish, investitsiya portfelini boshqarish, qimmatli qog‘ozlar muomalasini nazorat qilish hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan shug‘ullanadi. Korporativ boshqaruv sohasida bir qator malaka attestatlari va sertifikatlariga ega, jumladan: “Aktivlarni boshqarish va kapital bozori” sohasida sertifikat; Inson resurslari va sanoatni rivojlantirish assotsiatsiyasi (Yaponiya) sertifikati; Koreya iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi bo‘yicha sertifikat; ISO 37001:2016 standarti asosida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi bo‘yicha sertifikat.



Babadjanova Dilnoza Xusnovna — “O‘zbekgeofizika” AJ korporativ sekretariati yetakchi mutaxassisi. Jamiyatda 15 yillik ish tajribasiga ega. Quyidagi attestat va sertifikatlariga ega: Korporativ menejer attestati; qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi II toifali malaka guvohnomasi; ommaviy axborot vositalarida yoritish va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha sertifikat; press-revizlar tayyorlash va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda axborot xizmatini samarali tashkil etish bo‘yicha sertifikat; “Korporativ boshqaruv amaliyoti va tamoyillari” sertifikati (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan berilgan). Geologiya-qidiruv ishlari, uglevodorodlarni qazib olish sohasi hamda davlat organlari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha tajribaga ega.



Xolmatova Feruza Hamidjon qizi — “O‘zbekgeofizika” AJ korporativ sekretariati yetakchi mutaxassisi. Jamiyatda 9 yillik ish tajribasiga ega. Auditorlik va moliyaviy tashkilotlarda ishlagan bo‘lib, korporativ hamrohlik va boshqaruv jarayonlarini nazorat qilish bilan shug‘ullangan. Quyidagi malaka va sertifikatlariga ega: Korporativ menejer attestati; “Strategiya va transformatsiyani boshqarish” sertifikati; “Korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari” sertifikati; “Liderlik va korporativ madaniyat” sertifikati; “Korporativ boshqaruv amaliyoti va tamoyillari” sertifikati (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan berilgan). Davlat organlari bilan hamkorlik qilish tajribasiga ega, jumladan kuzatuv kengashlari bilan ishlash va davlat ulushi mavjud korxonalar aktivlarini boshqarishda ishtirok etgan.



Abdullayeva Umida Sayfulla qizi — “O‘zbekgeofizika” AJ muhandisi. U korporativ faoliyatni yuritish sohasida tajribaga ega bo‘lib, aksiyadorlarga dividendlarni hisoblash va to‘lash, meros huquqlarini rasmiylashtirish, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi bilan hamkorlik qilish, aksiyadorlar reyestrini yuritish va yopish, shuningdek investitsiya vositachilari bilan axborot almashinuvini kabi yo‘nalishlarda ishlagan. U O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan berilgan “Korporativ boshqaruv amaliyoti va tamoyillari” sertifikatiga ega.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Iqtisodiyot va aholini energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4388-son qaroriga muvofiq, Kompaniyaning yagona yirik aksiyadori bo'lgan "O'zbekneftgaz" AJning "O'zbekgeofizika" AJ ustav kapitalidagi 97,2 foiz ulushi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazildi. Jamiyat aksiyalarining qolgan qismi minoritar aksiyadorlar bo'lgan 4439 nafar jismoniy va 12 nafar yuridik shaxslarga tegishli. 2026-yilda Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga tegishli aksiyalar paketi "O'zbekneftgaz" AJ foydasiga o'tkazildi.

Jamiyatning 2025-yilda tasdiqlangan Ustaviga asosan jami 1 305 459 255 (bir milliard uch yuz besh million to'rt yuz ellik to'qqiz ming ikki yuz ellik besh) dona aksiya, shundan 1 268 323 655 (bir milliard ikki yuz oltmish sakkiz million uch yuz yigirma uch ming olti yuz ellik besh) dona egasi yozilgan oddiy va 37 135 600 (o'ttiz yetti million bir yuz o'ttiz besh ming olti yuz) dona egasi yozilgan imtiyozli aksiyalar chiqarilgan va joylashtirilgan. Boshqaruv raisi va 2 nafar a'zosi jami 390 700 dona imtiyozli aksiyalarga egalik qiladi va bunday aksiyadorlarning huquqlari Jamiyat ustavi va siyosatida cheklangan. Shuningdek, ushbu aksiyalarning egalari Jamiyatni boshqarishda ovoz berish huquqiga ega emas.

2023-yilda Jamiyatga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar uchun imtiyozli aksiyalar toifasi berildi, bu "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" davlat korxonasi tomonidan berilgan tegishli sertifikat bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, ushbu qimmatli qog'ozga ISO 6166, ISO 10962 va ISO 18774 xalqaro standartlariga muvofiq ISIN (qimmatli qog'ozning xalqaro identifikatsiya raqami), CFI (moliyaviy vositani tasniflash kodi) va FISN (moliyaviy vositaning qisqacha nomi) kodlari berildi, bu esa moliyaviy vositalarni identifikatsiyalash va tasniflash bo'yicha belgilangan xalqaro talablarga muvofiqligini ko'rsatadi.

Ko'rsatilgan chora-tadbirlar moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, hisob tizimlarida ma'lumotlarning to'g'ri aks ettirilishi, chiqarilgan imtiyozli aksiyalarning qonuniyligi, shuningdek, ularning huquqiy hujjatlarda to'g'ri aks ettirilishiga yordam beradi.

Kompaniyaning yagona yirik aksiyadori uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ma'qullaydi. Jamiyatning tasdiqlangan Ustaviga muvofiq, yagona aksiyador, shuningdek, Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, uni amalga oshirishning aniq muddatlarini belgilagan holda, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini tasdiqlaydi.

Kompaniya minoritar aksiyadorlar manfaatlarini himoya qiladi hamda ularning o'z huquqlarini amalga oshirishlari uchun qulay sharoitlar yaratadi.

"O'zbekgeofizika" AJ aksiyalari Respublika fond bozorida listing ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu Jamiyatning imtiyozli aksiyalarini O'zbekiston fond bozorlarida erkin sotish va sotib olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Jamiyat minoritar aksiyadorlarga brokerlik xizmatlarini ko'rsatish maqsadida 2007-yildan buyon "Neftegazdepozit" MCHJ bilan shartnoma asosida hamkorlik qilib kelmoqda hamda aksiyadorlarga quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi:

- aksiyadorlar uchun DEPO hisobvaraqlarini ochish va yuritish (yuridik va jismoniy shaxslar uchun);
- qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va tasdiqlash xizmatlarini ko'rsatish (mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida egalik qiluvchilar uchun);
- deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi hamda boshqa ashyoviy huquqlarini tasdiqlash va uning DEPO hisobvarag'idan tegishli ko'chirma taqdim etish;
- mijozlar hisobvaraqlaridagi qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larining mavjudligi hamda harakati to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash (qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno). Mazkur xizmatlar minoritar aksiyadorlarga bepul ko'rsatiladi, ushbu xarajatlar Kompaniya tomonidan qoplanadi.

2025-yilda Kompaniya ilk bor barcha toifadagi aksiyadorlarga dividendlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'z vaqtida va markazlashtirilgan tarzda to'lash imkonini beruvchi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariyasining dasturiy kompleksini amaliyotga joriy etdi.

Kuzatuv kengashi

GRI 2-9, 2-10, 2-11,2-15

Kuzatuv kengashining asosiy vazifasi – aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, tegishli korporativ boshqaruvni ta'minlash hamda Kompaniya faoliyatida shaffoflikni saqlashdir. Kuzatuv kengashi kompaniyaning strategik maqsadlari amalga oshirilishini nazorat qiladi, xatarlar va moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qiladi, shuningdek yuqori boshqaruv xodimlarini tayinlash, yirik bitimlarni ma'qullash va strategiyaga o'zgarishlar kiritish kabi muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Kuzatuv kengashi iqtisodiyot, ekologiya va ijtimoiy tashabbuslar sohasida ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi, shuningdek Boshqaruv tomonidan qisqa va uzoq muddatli barqaror rivojlanish rejalarning ijro etilishini nazorat qiladi. Kompaniya strategiyasi va rivojlanish yo'lini belgilashda kengash O'zbekiston Respublikasi Davlat siyosatiga, xalqaro tarmoq standartlari va manfaatdor tomonlarning barqaror rivojlanishga oid fikrlarini hisobga oladi.

Kompaniya Nizomi va O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy aksiyadorlar yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Hisobot davrida Kuzatuv kengashi a'zolari soni 9 nafarni tashkil etdi, shuningdek Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibiga ikki nafar mustaqil a'zolari Gary Hays va Nazarov Shukurjonlar jalb etilgan bo'lib, ular xalqaro va mahalliy boshqaruv tajribasiga ega. Mustaqil a'zolar moliyaviy boshqaruv, strategik rejalashtirish, kadrlar siyosati hamda korporativ transformatsiya yo'nalishlarida ko'p yillik amaliy tajribaga ega. Ularning faoliyati kompaniyada qarorlar qabul qilish jarayonining xolisligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mustaqil a'zolar Kuzatuv kengashi faoliyatida xalqaro korporativ boshqaruv standartlari va ilg'or amaliyotlarni joriy etishga ko'maklashmoqda. Mazkur holat kompaniyaning ESG tamoyillariga, xususan Governance yo'nalishiga muvofiqligini yanada mustahkamlaydi. Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish tartibida o'tkaziladi. Saylanishda aksiyadorlar oliy ma'lumot, boshqaruv organlaridagi ish tajribasi va ba'zi hollarda korporativ boshqaruvchi malakaviy sertifikatiga e'tibor qaratadi.

Kuzatuv kengashi a'zolarining asosiy majburiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kompaniyaning ustuvor faoliyat yo'nalishlarini belgilash;
- Boshqaruv hisobotlarini muntazam tinglash;
- Yillik va navbatdan tashqari Umumiy aksiyadorlar yig'ilishlarini chaqirish;
- Mulkning bozor qiymatini baholash;
- Kompaniyaning yillik biznes-rejasini ma'qullash;
- Audit xizmatini tashkil etish va uning hisobotlarini muntazam eshitish;
- Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Boshqaruv a'zolarini tayinlash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;
- Mustaqil a'zolikka nomzodlarni ilgari surish;
- Sho'ba va bo'ysunuvdagi korxonalarni tashkil etish;
- Yirik bitimlar va loyihalar bo'yicha qarorlar qabul qilish;
- Xayriya (homiylilik) yoki beg'araz yordam ko'rsatish shartlarini belgilash;
- Korporativ strategiyani tasdiqlash va faoliyat natijalari monitoringini amalga oshirish;
- Risklarni boshqarish;
- Boshqaruv raisi faoliyati samaradorligini va uning mukofotlash tizimini baholash

- Normativ talablarga rioya etish, biznes etikasi, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ madaniyat va qadriyatlarga rioya qilish madaniyatini shakllantirishga ko'maklashish
- 2026-yilda Kuzatuv kengashi ESG masalalarini o'zining nazorat faoliyatiga integratsiya qildi.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida, boshqaruv a'zolari Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiradigan masalalarni muhokama qilishda ishtirok etolmaydi va uning tarkibiga saylanmaydi. Shuningdek, Kuzatuv kengashi raisi bir vaqtda Kompaniya Boshqaruvi Raisi vazifasini bajarishi mumkin emas.

Kuzatuv kengashi tarkibi

2025-yil uchun "O'zbekgeofizika" AJ Kuzatuv kengashi tarkibi Yagona aksiyadorning qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, Jamiyat ustaviga muvofiq kuzatuv kengashi tarkibi 9 nafar a'zodan iborat qilib belgilangan. Ular quyidagi a'zoldan iborat:



Muxutdinov Nodir Ubaydullayevich — Kuzatuv kengashi raisi. Geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi. 25 yildan ortiq amaliy va boshqaruv faoliyati tajribasiga ega bo'lgan neft-gaz sohasidagi tajribali rahbar va mutaxassis. U o'z kasbiy faoliyatini ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutida muhandis va ilmiy xodim sifatida boshlab, keyinchalik "O'zbekneftgaz" AJ, Energetika vazirligi hamda Konchilik sanoati va geologiya vazirligi tizimlarida rahbarlik lavozimlarigacha yetib borgan. Geologiya-qidiruv ishlari, uglevodorodlarni qazib olish, ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tarmoq boshqaruvi sohalarida katta tajribaga ega.



Daminov Avazbek Xo'jiakbarovich — geologiya va investitsiyalarni jalb qilish sohasida ko'p yillik tajribaga ega mutaxassis. U Konchilik sanoati va geologiya vazirligida mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritgan bo'lib, zamonaviy geologiya-qidiruv texnologiyalarini joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish yo'nalishlariga rahbarlik qilgan.



Gari Keys — Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi. Fizika fanlari doktori, kimyo fanlari bakalavri. HR sohasida xalqaro ekspert hamda strategik konsalting (strategiya, ESG, HSE, liderlik) yo'nalishida 40 yildan ortiq tajribaga ega yetakchi mutaxassis. U Shell, TNK-BP, Samruk-Kazyna, Sibur, ERG va ESA kabi yirik kompaniya va tashkilotlarda texnik, boshqaruv va konsalting lavozimlarida faoliyat yuritgan. Hozirgi kunda Niderlandiyada va Qozog'istonda joylashgan ikkita konsalting kompaniyasining asoschisi va yetakchi maslahatchisi bo'lib, turli mamlakatlardagi bir qator kompaniyalar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.



Xusanov Nodirbek Jummaevich — iqtisodiyot fanlari nomzodi, moliya, davlat boshqaruvi va moliya bozorlari sohasida ko'p yillik tajribaga ega yuqori malakali rahbar. Turli yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritib, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, davlat aktivlarini boshqarish, valyuta aktivlari va moliyaviy instrumentlar bilan ishlash yo'nalishlariga mas'ul bo'lgan. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy hamkorlik sohasida ham tajribaga ega.



Nazarov Shukurjon Nabijonovich — Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi, sanoat va ishlab chiqarish sohasida ko'p yillik xalqaro tajribaga ega mutaxassis. Turli yillarda Bosch und Siemens Hausgeräte AG (Germaniya), Arçelik Global A.Ş., Huhtamaki Packaging A.Ş. hamda Gecem Lighting kabi yirik xalqaro kompaniyalarda rahbarlik va ekspert lavozimlarida faoliyat yuritgan. Ushbu faoliyati davomida Markaziy Osiyo, Kavkaz, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarida moliyaviy tahlil, ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish hamda hududiy boshqaruv yo'nalishlarini muvofiqlashtirgan. Shuningdek, O'zbekistonda maslahat va tadbirkorlik faoliyati tajribasiga ega bo'lib, qurilish, ishlab chiqarish va to'qimachilik kompaniyalarining asoschisi va rahbari hisoblanadi. Bundan tashqari, "Uzeltexsanoat" assotsiatsiyasi boshqaruvi raisining maslahatchisi sifatida ham faoliyat yuritgan.



Mirkhadiev Shuxrat Karimovich — geologiya va davlat boshqaruvi sohasida ko'p yillik tajribaga ega mutaxassis. U o'z faoliyatini dala geologik partiyalarida geolog va ixtisoslashgan davlat korxonalarida yetakchi mutaxassis sifatida boshlagan, keyinchalik Konchilik sanoati va geologiya vazirligi tizimi, Vazirlar Mahkamasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Geologik ma'lumotlarni boshqarish, xavfli geologik jarayonlarni monitoring qilish, mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish hamda tarmoq qarorlarini analitik qo'llab-quvvatlash sohalarida katta tajribaga ega.



Nabiyev Tulkin Nabiyevich — iqtisodiy va monopoliyaga qarshi qonunchilik, davlat boshqaruvi hamda davlat aktivlarini boshqarish sohasida tajribali mutaxassis.

U o'z professional faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida boshlagan bo'lib, maslahatchilikdan iqtisodiy qonunchilik yo'nalishidagi bo'lim boshlig'igacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan. Keyingi yillarda xususiylashtirish, raqobatni rivojlantirish organlarida hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. Metodologiya, iqtisodiy tahlil, strategik rejalashtirish va normativ-huquqiy ta'minot sohalarida katta tajribaga ega.



Mamatov Behzod Abdug'afurovich — iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi va davlat boshqaruvi sohasida tajribali mutaxassis. U o'z professional faoliyatini akademik muhitda boshlagan, keyinchalik iqtisodchi sifatida ishlagan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida muhim lavozimlarni egallagan. Ushbu davrda buxgalteriya hisobi metodologiyasi, audit, sanoatning bazaviy tarmoqlari, yoqilg'i-energetika kompleksi va geologiya sohalarida moliyaviy va tarif tartibga solish masalalariga mas'ul bo'lgan. Keyingi yillarda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Konchilik sanoati va geologiya vazirligida tegishli boshqarmalarga rahbarlik qilib, strategik rivojlanish va investitsiyalar yo'nalishlari uchun javobgar bo'lgan.



Ahmedov Sharofiddin Shodimurotovich — davlat aktivlarini boshqarish va korporativ boshqaruv sohasida tajribali mutaxassis. U qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish organlari, raqobatni rivojlantirish va xususiylashtirishga mas'ul davlat tuzilmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish tizimida ko'p yillik amaliy tajribaga ega. Kasbiy faoliyati davomida korporativ boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirish, davlat ulushi mavjud korxonalarda boshqaruv va nazorat organlari faoliyatini tashkil etishda faol ishtirok etgan. Mulkdor huquqlarini himoya qilish, davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirish hamda korporativ boshqaruvning ilg'or amaliyotlarini joriy etish sohaslarida chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarga ega.

Kuzatuv kengashi kotibi



Shek Yevgeniy Yuryevich — korporativ boshqaruv va qimmatli qog'ozlar bozori sohasida ko'p yillik tajribaga ega mutaxassis.

U qimmatli qog'ozlar bozori nazorati sohasida faoliyat yuritgan. Turli yillarda "Neftgazdeposit" UK, "O'zbekneftgaz" MXK, "O'zkiimyosanoat" AJ va "Neffta'minot" AJda mas'ul lavozimlarda ishlagan. Shuningdek, "O'zbekgeofizika" AJda aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgan. Jamiyat ustav kapitalini shakllantirish, investitsiya portfelini boshqarish, qimmatli qog'ozlar muomalasini nazorat qilish hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'nalishlarida faoliyat olib boradi.

Hisobot davrida Kuzatuv kengashi a'zolari ijroiya organi (Boshqaruv) a'zolari va Kompaniyaning boshqa muhim xodimlari bilan ularning qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qarindoshlik yoki boshqa aloqalarga ega bo'lmagan. Kuzatuv kengashi ham kengash darajasida, ham boshqaruv a'zolari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan korporativ mulkdan noqonuniy foydalanish va manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarda suiiste'molchilik holatlarini faol nazorat qiladi va imkon qadar bartaraf etadi. Kuzatuv kengashi faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi holatlari hisobot yilida aniqlanmadi.

"O'zbekgeofizika AJ rivojlanish strategiyasiga erishish maqsadida hisobot davrida Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirdi, qonun va ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiradigan masalalar bundan mustasno."

Kengash yig'ilishlari

2025 yilda 12 ta yig'ilish o'tkazildi, ularda "O'zbekgeofizika" AJ faoliyatiga oid turli masalalar muhokama qilinib, ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

Har chorakda jamiyat ijroiya organining rivojlanish strategiyasiga erishish, yillik biznes-rejani bajarish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlari yuzasidan hisobotlari, shuningdek ichki audit xizmati hisobotlari eshitildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

2025 yil 30 yanvar yig'ilishi

"Uzbek Overseas Geology Company" MChJ bo'yicha masalani ko'rib chiqish.

2025 yil 19 fevral yig'ilishi

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024 yil 28 oktyabrdagi №02/09-3-21-17/1308xdfu-sonli xati asosida "O'zbekgeofizika" AJ Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolarni kiritish masalasini ko'rib chiqish.

2025 yil 20 fevral yig'ilishi

"O'zbekgeofizika" AJ ustav kapitalini kamaytirish masalasini ko'rib chiqish. "O'zbekgeofizika" AJ ustavining yangi tahriri loyihasini ko'rib chiqish.

2025 yil 28 mart yig'ilishi

"O'zbekgeofizika" AJ Kuzatuv kengashi raisi va kotibini saylash. 2024 yil uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) ko'rib chiqish. 2025 yil 2-chorak uchun moddiy-texnik resurslar hamda import tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari ro'yxatini ko'rib chiqish. 2024 yil 4-chorak xaridlari bo'yicha hisobotni eshitish.

2025 yil 14 may yig'ilishi

Klinik shifoxonani topshirish masalasini ko'rib chiqish.

2025 yil 20 may yig'ilishi

2024 yil uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) ko'rib chiqish. 2025 yil 1-chorak bo'yicha ichki audit xizmati hisobotini ko'rib chiqish. 2025 yil 3-chorak uchun moddiy-texnik resurslar va import tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari ro'yxatini ko'rib chiqish. 2025 yil 1-chorak xaridlari bo'yicha hisobotni eshitish. 2024 yil uchun majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha auditor tashkilotlarni tanlash natijalarini, ularning xizmatlari uchun to'lovning eng yuqori miqdorini hamda shartnomalar tuzish masalalarini ko'rib chiqish.

2025 yil 5 iyun yig'ilishi

Ijroiya organining 2024 yil yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish. 2024 yil uchun auditorlik tashkilotlari xulosalarini ko'rib chiqish. "O'zbekgeofizika" AJning 2024 yil uchun yillik hisobotini dastlabki tasdiqlash. 2024 yil uchun sof foydani taqsimlash. Jamiyat boshqaruvi raisining vakolatlarini uzaytirish va u bilan mehnat shartnomasini tuzish. Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyati jarayonida kelgusida tuzilishi mumkin bo'lgan affillangan shaxslar bilan bitimlarni, keyingi aksiyadorlar qarorigacha bo'lgan davr uchun ma'qullash. 2024 yil uchun Kuzatuv kengashi faoliyati to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqish. "O'zbekgeofizika" AJ ichki audit xizmati hisobotini 2024 yil bo'yicha ko'rib chiqish. Yagona aksiyador qarorini qabul qilish uchun tayyorgarlik tadbirlarini tasdiqlash.

2025 yil 16 iyun yig'ilishi

Geofizik uskunalarni xarid qilish bo'yicha bitim tuzish masalasini ko'rib chiqish.

2025 yil 12 sentyabr yig'ilishi

Ijroiya organining 2025 yil 1-yarim yillik yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish. 2025 yil 1-yarim yillik bo'yicha ichki audit xizmati hisobotini ko'rib chiqish. 2025 yil 4-chorak uchun moddiy-texnik resurslar va import tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari ro'yxatini ko'rib chiqish. 2025 yil 2-chorak xaridlari bo'yicha hisobotni eshitish. "O'zbekgeofizika" AJ Boshqaruv a'zolari vakolatlarini uzaytirish va ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish. Kuzatuv kengashi huzuridagi ichki korrupsiyaga qarshi nazorat bo'limining yangi tashkiliy tuzilmasi va faoliyatini tashkil etish masalasini ko'rib chiqish.

2025 yil 28 noyabr yig'ilishi

2025 yil uchun Biznes-reja parametrlariga o'zgartirish va qo'shimchalarni ko'rib chiqish. "O'zbekgeofizika" AJning 2026 yil uchun Biznes-reja loyihasini ko'rib chiqish. Jamiyat ijroiya organining 2025 yil 9 oy yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish. Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorati bo'limining 2025 yil 9 oy yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish. Ichki audit xizmati hisobotini 2025 yil 9 oy yakunlari bo'yicha ko'rib chiqish. 2026 yil hamda 2026 yil 1-chorak uchun moddiy-texnik resurslar va import tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari ro'yxatini ko'rib chiqish. 2025 yil 3-chorak xaridlari bo'yicha hisobotni eshitish. 2025 yil hamda 2026 yil 9 oy yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholashni amalga oshirish. "O'zbekgeofizika" AJ korporativ boshqaruv tizimi baholash natijalarini 2025 yil 9 oy yakunlari bo'yicha ko'rib chiqish. "O'zbekgeofizika" AJ tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish. "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi nizomga o'zgartirishlar kiritishni ko'rib chiqish. Ichki audit xizmati xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish, 2026 yil uchun ish reja va xarajatlar smetasini tasdiqlash.

2025 yil 18 dekabr yig'ilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18 noyabrdagi №F-59-sonli farmoyishini bajarish hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025 yil 1 dekabrdagi №02/09-1-12/4088-sonli xatini ko'rib chiqish.

Yuqorida ko'rsatilgan masalalarni ko'rib chiqishda Kuzatuv kengashi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda jamiyatning ichki hujjatlariga amal qildi.

2025 yil davomida Kuzatuv kengashi tomonidan 13 ta masala aksiyadorlar muhokamasiga kiritildi. Jami 2025 yilda Kuzatuv kengashi tomonidan 36 ta masala ko'rib chiqildi.

Kuzatuv kengashi qo'mitalari

GRI 2-9

Qo'mitalarning asosiy vazifasi Kuzatuv kengashiga ichki nazorat bo'yicha funksiyalarini bajarishda, jumladan ichki va tashqi audit jarayonlarini nazorat qilishda ko'mak ko'rsatishdan, shuningdek moliyaviy hisobdorlik tizimi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Kompaniya xatarlarining ichki nazorati va boshqaruvi tizimining, shuningdek ichki audit xizmati faoliyati samaradorligining monitoringi muhim unsur sanaladi. "O'zbekgeofizika" AJda Kuzatuv kengashi huzurida to'rtta qo'mita to'laqonli ish olib boradi.

Audit qo'mitasi

2024-yilda tashkil etilgan ushbu qo'mita Kuzatuv kengashining ko'pchilik ovozi asosida 3 nafar a'zosidan tashkil topgan. Audit Qo'mitasi raisi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, biroq u Kuzatuv kengashi raisi lavozimini egallamaydi.

Audit qo'mitasining asosiy vazifalariga moliyaviy hisobotlarni tuzish, auditorlik tashkilotini tanlash, ichki va tashqi tekshiruvlar natijalarini baholash ustidan nazorat qilish kiradi. Qo'mita, shuningdek, Kuzatuv kengashiga ichki audit xizmatini tashkil etish, uning rahbariyati va ish samaradorligini baholash bo'yicha tavsiyalar beradi. Bundan tashqari, u tashqi auditorni tanlashda yordam beradi, ma'lumotlarni oshkor qilishning shaffofligi masalalarini ko'rib chiqadi va Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajaradi. Kompaniyaning ichki audit xizmati o'z faoliyatida Audit qo'mitasiga hisobdordir.

Audit qo'mitasi a'zolari



Маматов Бехзод Абдугафурович –
*Первый заместитель председателя
правления АО «Алматыкский ГМК» по
экономике, финансам и трансформации*



Назаров Шукуржон Набижонович -
*Независимый член Наблюдательного
совета*



Хусанов Нодирбек Жумаевич –
*Первый заместитель директора
Агентства по управлению
государственными активами
Республики Узбекистан*

Auditorlik qo'mitasi tomonidan 2025-yilda 1 ta yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilish 26.11. 2025-yil.

2025-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha ichki audit xizmati hisobotini dastlabki ko'rib chiqish.

Ichki audit xizmati xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi "Davlat korxonalarida tannarxni pasaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi R-59-sonli farmoyishi talablarini ko'rib chiqish.

Auditorlik qo'mitasining ishchi organiga quyidagilar kiradi:

Bozorov Boxodir Fozilovich - Boshqaruv raisining moliya, transformatsiya va xususiylashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari;

Boyniyozov To'lqin Bozorovich - bosh hisobchi;

Matveyev Leonid Viktorovich - ichki audit xizmati rahbari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qo'mitasi

Qo'mita bu sohadagi tajribasi va malakasiga asosan saylangan uch nafar Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat. Kompaniyada ushbu qo'mita hisobot davrining boshidan faoliyat yuritmoqda.

Uning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida korrupsiyaga qarshi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ichki siyosat va chora-tadbirlarni belgilashdan iborat. Qo'mita korrupsiyaga qarshi tamoyillarga qat'iy rioya qilishni ta'minlaydi, doimiy monitoring olib boradi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qiladi hamda mansabdor shaxslarning faoliyatida shaffoflikni ta'minlaydi. Shuningdek, qonunlarga rioya etilishini nazorat qiladi, xodimlar axloq qoidalarini ishlab chiqadi, korrupsiyaga qarshi faoliyatni takomillashtirishda qatnashadi va korrupsiyaga qarshi tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydi va Kuzatuv kengashiga taqdim etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi a'zolari



Мирхадиев Шухрат Каримович –
Заместитель директора ГП
«Узбегидрогеология»



Набиев Тулкин Набиевич–
Начальник управления Агентства по
управлению государственными
активами Республики Узбекистан



Назаров Шукуржон Набижонович -
Независимый член Наблюдательного
совета

Axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan 2025-yilda 2 ta yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilish 04.06.2025-yil.

"O'zbekgeofizika" AJ korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'linmasi faoliyatini ko'rib chiqish, shuningdek, risklarni boshqarish darajasini baholash haqida.

Yig'ilish 05.12.2025-y.

"O'zbekgeofizika" AJ korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan 2025-2026-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlar dasturini ko'rib chiqish to'g'risida.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va axloq qo'mitasining ishchi organiga quyidagilar kiradi:

Aliqulov Toxir Murodullaevich - komplektlash, qurilish, transport, infratuzilma va ijtimoiy masalalar boshqarmasi boshlig'i;

Ochilov Nurjamol Axmatovich - korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat bo'limi boshlig'i;

Toxirov Aziz Zairovich - korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat bo'limi xodimi.

Strategiya va investitsiyalar bo'yicha qo'mita

Ushbu qo'mita Kuzatuv kengashi raisining tavsiyasiga ko'ra ko'pchilik ovozi bilan o'z vakolat muddatiga saylangan Kuzatuv kengashining strategik rejalashtirish va investitsiyalarning samaradorligini baholash sohasida yetarlicha malaka va tajribaga ega 3 nafar a'zodan iborat (2025-yilda).

Qo'mitaning asosiy funksiyalari transformatsion jarayonlarini va xususiylashtirish faoliyatini boshqarish, Kompaniyaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish hamda monitoring qilish, shuningdek dividend siyosati va investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha tavsiyalarni shakllantirishdan iborat. Qo'mita yana Kompaniyani qayta tashkil etish va tugatish, tashkiliy tuzilmani o'zgartirish hamda aktivlardan samarali foydalanish masalalarini ham ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, qo'mita investitsiya faoliyatini monitoring qiladi va o'z faoliyati yuzasidan Kuzatuv kengashiga hisobotlar tayyorlaydi.

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi a'zolari



Даминов Авазбек Ходжиакбарович –
Руководитель департамента
Министерства горнодобывающей
промышленности и геологии



**Руководитель комитета
Мухитдинов Нодир Убайдуллаевич -
Главный геолог
АО "Узбекнефтегаз"**



**Набиев Тулкин Набиевич - Начальник
управления Агентства по управлению
государственными активами Республики
Узбекистан**



**Гари Хейс - Независимый член
Наблюдательного совета**



**Назаров Шукуржон Набижонович -
Независимый член Наблюдательного
совета**

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi tomonidan 2025-yilda majlislar o'tkazilmagan. 2025-yilda Kuzatuv kengashi Qo'mita faoliyatini faollashtirdi va 2026-yildan boshlab Qo'mita tegishli masalalarni muntazam ravishda ko'rib chiqib, muhokama qilib bormoqda. Qo'mita tarkibi ikki nafar mustaqil direktor bilan to'ldirildi.

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasining ishchi organiga quyidagilar kiradi:

Azimboev Anvar Azimboevich - boshqaruv raisining ishlab chiqarish va innovatsiyalar bo'yicha birinchi o'rinbosari;

Qudratov Sobir Sultonovich - dala geofizik ishlarini muvofiqlashtirish, ishlab chiqarishni texnik qo'llab-quvvatlash va sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i;

Muratayev Mirmaqsud Mirmuhsinovich — kon-geofizika ishlari sifatini nazorat qilish, texnik qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i.

Kuzatuv kengashining 2025-yil 28-noyabrdagi qarori bilan Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi tarkibiga mustaqil a'zolar Sh. Nazarov va G. Xeys kiritildi.

Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi

Qo'mita ushbu sohada tegishli tajriba va malakaga ega bo'lgan Kuzatuv kengashining uch nafar a'zosidan iborat. Mazkur qo'mita hisobot davrining boshidan buyon Jamiyatda faoliyat yuritib kelmoqda.

Qo'mita kompaniyaning kadrlar siyosati, korporativ boshqaruv va tashkiliy rivojlanish masalalarini nazorat qiladi. Kuzatuv kengashi faoliyati doirasida u Kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, Kuzatuv kengashi a'zolari, Kuzatuv kengashining o'zi hamda uning qo'mitalari faoliyatini baholaydi va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi. Bunga Kuzatuv kengashi a'zolarini rivojlantirish va o'qitish, shuningdek ularni mukofotlash siyosati ham kiradi.

Boshqaruv (Ijroiya organi) faoliyati yuzasidan Qo'mita Boshqaruv tarkibiga nomzodlarni tavsiya etadi hamda Boshqaruv a'zolari, ayniqsa Boshqaruv raisi faoliyatini baholaydi.

Kadrlar siyosati va tashkiliy rivojlanish masalalari bo'yicha Qo'mita ushbu yo'nalishdagi barcha qarorlar va o'zgarishlarni, shu jumladan kadrlar zaxirasini shakllantirish, vorislikni rejalashtirish hamda mukofotlash siyosatini nazorat qiladi.

2025-yil uchun ustuvor yo'nalishlar

- Kuzatuv kengashi a'zolarining bilim, tajriba va kompetensiyalarini baholash hamda ushbu natijalar asosida Kuzatuv kengashi a'zolari vorisligini rejalashtirish;
- Boshqaruv uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirish;
- Boshqaruv faoliyati uchun vazifa va maqsadlarni belgilash;
- Tashkiliy tuzilmani takomillashtirish va o'zgartirishlar kiritish.

2026-yil uchun ustuvor yo'nalishlar

- 2025-yilda Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini baholash hamda uning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- Kuzatuv kengashi a'zolarining bilim, tajriba va kompetensiyalarini baholash jarayonini yakunlash hamda vorislik rejasini shakllantirish;
- Boshqaruv va kelajakdagi rahbar kadrlar uchun zaxira shakllantirish jarayonlarini yanada takomillashtirish;
- Mukofotlash tizimini, shu jumladan natijalarga bog'liq rag'batlantirish mexanizmlarini ko'rib chiqish;
- "O'zbekgeofizika" AJ boshqaruv va biznes jarayonlariga ESG tamoyillarini joriy etish hamda ESG hisobotini takomillashtirish.

Tayinlovlar va mukofotlash qo‘mitasi a‘zolari



Гари Хейс - Независимый член
Наблюдательного совета



Ахмедов Шарофиддин Шодимуротович
Первый заместитель начальника
департамента Агентства по управлению
государственными активами Республики
Узбекистан



Мирхадиев Шухрат Каримович
Заместитель директора ГП
«Узбекгидрогеология»

Qo‘mita faoliyati

Tayinlovlar va mukofotlash qo‘mitasi 2025-yilda 3 ta rasmiy yig‘ilish o‘tkazdi: 4-iyun, 4-sentabr va 26-noyabr kunlari.

Qo‘mita a‘zolarining yig‘ilishlarda ishtiroki 100 foizni tashkil etdi.

Qo‘mita a‘zolari yig‘ilishlar oralig‘ida ham tegishli ishlarni amalga oshirdilar. Bundan tashqari, Qo‘mita faoliyatiga bir qator yordamchi xodimlar ko‘maklashdi.

Ko‘rib chiqilgan asosiy masalalar quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- Tayinlovlar va mukofotlash qo‘mitasining vakolatlari va mas‘uliyatlari, shuningdek Qo‘mita to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish (jumladan, Qo‘mita kotibini tayinlash);
- Tashkiliy o‘zgarishlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish (jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurash va kompayens nazorati bo‘limini bevosita Kuzatuv kengashi bo‘ysunuviga o‘tkazish hamda Boshqaruv tarkibidagi rahbar o‘rinbosarlaridan birining shtatini qisqartirish);
- Boshqaruv a‘zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini uzaytirish;
- Boshqaruv a‘zolarining 2026-yil uchun vazifa va maqsadlarini aniqlashtirish;
- Amaldagi kadrlar zaxirasi, o‘qitish tizimi hamda Boshqaruv uchun kadrlar zaxirasiga saralash tartib-taomillarini qayta ko‘rib chiqish;
- Kuzatuv kengashi a‘zolarining mavjud tajriba va kompetensiyalarini, shuningdek kompaniya uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni tahlil qilish hamda kelajakdagi Kuzatuv kengashi a‘zolari uchun potensial nomzodlar ro‘yxatini shakllantirish;
- Kuzatuv kengashi a‘zolarini mukofotlash siyosatini ko‘rib chiqish;
- Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini baholash va bu bo‘yicha hisobot tayyorlash;
- Mehnatga haq to‘lashning natijalarga bog‘liq tizimini joriy etish imkoniyatlarini o‘rganish.

Tayinlash va mukofotlash qo‘mitasining ishchi organiga quyidagilar kiradi:

Yuldashev Otabek Asroliyevich - boshqaruv raisining geologiya va geofizik ishlar bo'yicha o'rinbosari;
Sharipova Mariya Ilxomovna - kadrlar va malaka oshirish bo'limi boshlig'i;
Shek Yevgeniy Yuryevich — korporativ kotibiyat boshlig'i.



Qo'mita raisi doktor Garri Xeys quyidagilarni ta'kidladi:

«Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi "O'zbekgeofizika" kompaniyasini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat Kuzatuv kengashiga beriladigan tavsiyalar, balki kompaniyadagi tayinlash, mukofotlash va tashkiliy tuzilma jarayonlari hamda ularning natijalari ustidan nazorat nuqtai nazaridan ham muhimdir. Bundan tashqari, Boshqaruv va Kuzatuv kengashi faoliyatini tahlil qilish "O'zbekgeofizika"ning natijalarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Men Qo'mita a'zolarining ushbu ishga bo'lgan sa'y-harakatlari va fidoyiligidan faxrlanaman».

2026-yil boshida Kuzatuv kengashi ESG va korporativ boshqaruv masalalarini Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi vakolatlari doirasiga kiritish to'g'risida qaror qabul qildi. Shu munosabat bilan qo'mita nomi «Tayinlovlar, mukofotlash va ESG qo'mitasi» deb o'zgartirildi.

Jamiyat Boshqaruvi va mukofotlash

GRI 2-13

Vakolati Kompaniyaning ustavi va ijroiya organi to'g'risidagi nizomda belgilangan "O'zbekgeofizika" AJ Boshqaruvi strategik rahbarlik, asosiy qarorlarni qabul qilish va Kompaniya faoliyatini nazorat qilish uchun javobgardir.

Korporativ tuzilmaga muvofiq Boshqaruvni tayinlash va uning vakolatlarini to'xtatish Kuzatuv kengashi qarori bilan amalga oshiriladi. Boshqaruv rahbari bo'lgan Boshqaruv Raisi Jamiyatning Yagona aksiyadori tomonidan saylanadi.

"O'zbekgeofizika" AJ Boshqaruvi Jamiyat faoliyatiga rahbarlik qilish va barqaror rivojlanish sohasidagi asosiy vazifalarni bajarish uchun mas'uldir. Boshqaruvning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Kompaniyaga malakali xodimlarni ta'minlash hamda ularning professional bilim va ko'nikmalaridan samarali foydalanishni tashkil etish.
- Mehnat intizomi va xodimlarning ijtimoiy kafolatlari hamda mehnat muhofazasi standartlariga rioya qilinishini nazorat qilish.
- Xodimlarning malakasini oshirish, ularning ixtisoslashgan kurslar va treninglarda ishtirokini tashkil etish.
- Kollektiv muzokaralarda qatnashish va Jamoa shartnomalari bo'yicha barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash.

Bundan tashqari, Boshqaruv quyidagi boshqaruv vazifalari uchun mas'ul:

- Kompaniya manfaatlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlarda ifodalash.
- Kompaniya faoliyati doirasida barcha qonunchilik talablarining bajarilishini ta'minlash.
- Buxgalteriya hisoboti va moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi ta'minlash va kafolatlash.
- Har chorakda Kuzatuv kengashiga yillik biznes-reja bajarilishi bo'yicha hisobot taqdim etish.
- Kuzatuv kengashi, tekshiruv komissiyasi yoki auditor so'rovi bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy faoliyatga oid hujjatlarni taqdim etish.
- Davlat statistika hisobotlarini o'z vaqtida va to'liq taqdim etishni ta'minlash.
- Tijorat va xizmat axborotlarining maxfiylikiga rioya qilish.
- Kompaniya bitimlarida affillangan shaxslarning mavjudligi to'g'risida Kuzatuv kengashini xabardor qilish.

Mazkur vazifalar Kompaniyaning samarali faoliyat yuritishini, manfaatdor tomonlar oldidagi barcha majburiyatlarning bajarilishini hamda normativ talablarning to'liq bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Barqaror rivojlanish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, 2025-yilda Boshqaruv Kompaniyaning barcha funksiyalarida ushbu tashabbuslarni joriy etish va nazorat qilish uchun mas'ul shaxslarni tayinladi. Shuningdek, bajarilayotgan ishlarning xususiyati inobatga olinib, "O'zbekgeofizika" AJ Boshqaruvi ekologiya sohasidagi vakolatlarni delegatsiya qiladi hamda kompaniya faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan ekologik standartlarga rioya etilishi va chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi.

Boshqaruv tarkibi

Kompaniya Boshqaruvi a'zolari Kuzatuv Kengashi tomonidan 3 yillik muddatga saylanadi, Boshqaruv raisi esa Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Kompaniya Ijro organi to'g'risidagi

Nizomga muvofiq, Boshqaruv organi turli sohalarda bilim va tajribaga ega 5 kishidan iborat. 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra tarkib:

- Yusupjonov Ravshanjon Anvarovich – Boshqaruv raisi.
- Azimboyev Anvarjon Azimboyevich – Boshqaruv raisining ishlab chiqarish va innovatsiyalar bo'yicha birinchi o'rinbosari.
- Yuldashev Otabek Asrolevich – Boshqaruv raisining geologiya va geofizika ishlari bo'yicha o'rinbosari.
- Bozorov Bahodir Fazilovich – Boshqaruv raisining moliya, transformatsiya va xususiylashtirish bo'yicha o'rinbosari.
- Alikulov Tohir Murodullayevich – Ta'minot, qurilish, transport, infratuzilma va ijtimoiy masalalar departamenti rahbari.

Mukofotlash

Kompaniyada mukofotlash tizimi korporativ boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, iste'dodli mutaxassislarni jalb qilish va ushlab turishga qaratilgan. Ushbu tizimning asosiy tamoyillari shaffoflik va xalqaro standartlarga rioya qilishdir. Tasdiqlangan va amalda bo'lgan Nizomlarga muvofiq, Kompaniya xodimlariga quyidagi rag'batlantiruvchi to'lovlar taqdim etiladi:

- Uzluksiz ish staji uchun oylik ustama,
- Xo'jalik faoliyatidagi asosiy natijalari uchun oylik rag'batlantiruvchi to'lovlar (mukofot),
- Yillik ish natijalariga ko'ra mukofotlar,
- Alohida muhim vazifalarni bajarganlik uchun mukofotlar,
- Ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etganlik uchun bir martalik mukofotlar,
- Bajarylgan ishning ijobiy natijalari uchun qo'shimcha to'lovlar.

Boshqaruv a'zolarining mukofotlanishi

GRI 2-19, 2-20

Boshqaruv raisi va a'zolarini taqdirlash Jamiyat faoliyatining samaradorligiga bog'liq bo'ladi va shartnomaga muvofiq belgilanadi. Ish haqi va mukofotlarni to'lash ijroiya organi mehnatiga haq to'lashni tartibga soluvchi Kompaniyaning ichki siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqaruv a'zolari Kompaniyaning strategik maqsadlari va biznes-rejasi asosida Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadigan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishganlik uchun mukofot to'lovlarini oladilar. Ichki nizomlarga muvofiq, mukofot to'lovlari moliyaviy va operatsion maqsadlarni bajarganlik, shuningdek, strategik loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirganlik uchun to'lanadi.

Bundan tashqari, Boshqaruv a'zolari korporativ tibbiyot muassasasida tibbiy xizmatdan foydalanish, o'quv dasturlaridan foydalanish, shuningdek, xizmat transporti bilan ta'minlanish va xizmat safari xarajatlarning qoplanishi huquqiga ega.

Kompaniyadagi mukofotlash tizimi strategik maqsadlarga erishishni rag'batlantirishga va Boshqaruv a'zolarining o'z majburiyatlari va lavozim majburiyatlarini bajarishga yuqori darajada jalb etilishini ta'minlashga qaratilgan.

Manfaatlar to'qnashuvi

GRI 2-15

“O'zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatida qaror qabul qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va boshqarish bo'yicha choralar ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Barcha xodimlar va rahbarlar har qanday ehtimoliy yoki amaldagi manfaatlar to'qnashuvini oshkor etishga hamda ularni bartaraf etish bo'yicha chora ko'rishga majburdir. Kompaniya ichki jarayonlari va siyosatlarini faoliyatda shaffoflikni ta'minlashga, shuningdek, lavozim vazifalarini bajarishda obyektivlik va betaraflikka ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olishga qaratilgan. Bu me'yorlarning samarali nazorati va bajarilishini ta'minlash maqsadida komplayens bo'limi faoliyat ko'rsatadi, u axloq me'yorlariga rioya etilishini monitoring qiladi hamda ehtimoliy nizoli holatlarda tavsiya va ko'mak ko'rsatadi.

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi Nizom 2024-yil 29-noyabrda tasdiqlangan bo'lib, u 2024-yil 5-iyunda qabul qilingan va 2024-yil 6-dekabrda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ushbu siyosatning maqsadi – boshqaruv jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, xodimlarning shaxsiy manfaatlarining Kompaniya faoliyatiga ta'sirini minimallashtirish hamda korrupsiya xavfining oldini olish mexanizmlarini yaratishdir. Manfaatlar to'qnashuvi xodimning yoki uning affillangan shaxslari (ya'ni yaqin qarindoshlari, biznes sheriklari) shaxsiy manfaati kasbiy vazifalarning obyektiv bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarda yuzaga kelishi mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan:

- Qonuniylik – ichki siyosat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq bo'lishi;
- Shaffoflik va ochiqlik – barcha xodimlar va rahbariyat tomonidan manfaatlar to'qnashuvining ehtimoliy holatlarini majburiy deklaratsiya qilish;
- Korporativ manfaatlar ustuvorligi – qarorlar faqatgina Kompaniya manfaatlar yo'lida qabul qilinishi lozim;
- Korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik – suiiste'mollarning oldini olish uchun samarali monitoring va ichki nazorat tizimini yaratish;
- Javobgarlik va etika normalariga rioya qilish – manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va hal etish bo'yicha belgilangan tartiblarga qat'iy amal qilish.

Kompaniyada ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish uchun quyidagi vositalar va jarayonlar joriy etilgan:

– *Ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyati:*

- Barcha xodimlar, jumladan direktorlar kengashi a'zolari, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishga majbur;
- Lavozim vazifalari bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan shaxsiy yoki oilaviy aloqalar maxsus korporativ reyestrda kiritiladi;
- Manfaatlar to'qnashuvining darajasini o'zgartiruvchi yangi holatlar paydo bo'lsa, xodimlar darhol rahbariyatga xabar berishlari shart.

– *Vakolatlarni cheklash:*

- Manfaatlar to'qnashuvida bo'lgan shaxslar o'zlari bilan bog'liq tomonlarga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok eta olmaydi;
- Manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda, Kompaniya rahbari xodimni manfaatdor tomonlar bilan bog'liq vazifalardan vaqtincha chetlatish huquqiga ega.

– *Komplayens monitoringi va audit:*

- Manfaatlarni to'qnashuvi ehtimoliy holatlarini doimiy monitoring qiluvchi mas'ul shaxslar tayinlangan;
- Ichki audit doirasida manfaatlarni to'qnashuvining mustaqil tekshiruv mexanizmi joriy qilingan;
- Komplayens nazorati bo'limi tomonidan yashirin yoki bayon qilinmagan manfaatlarni to'qnashuvini aniqlash bo'yicha muntazam tekshiruvlar o'tkaziladi.

– *Ta'lim va korporativ madaniyat:*

- Barcha xodimlar manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish bo'yicha majburiy o'quv kurslaridan o'tadi;
- Korporativ axloq va korrupsiyaga qarshi qonunchilik bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etiladi.

“O'zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatida manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish va hal etish siyosati muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda, bu esa korporativ madaniyatning muhim qismi bo'lib, yuqori darajadagi ish axloq kodeksi standartlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Xodimlarning ushbu sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi “Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risida”gi qonun talablarini amalga oshirish maqsadida 2025 yil 11 fevral, 14-15 may va 10-11 noyabr kunlari Kompaniya markaziy apparati va filiallar markaziy apparatlarida maxsus seminarlar tashkil etildi. Ushbu tadbirlar xodimlarning manfaatlarni to'qnashuvi bilan bog'liq ehtimoliy xavflardan xabardorligini oshirish hamda Kompaniya doirasida samarali ravishda ularning oldini olish va hal etish amaliyotlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish siyosatining bajarilishini ta'minlash uchun Kompaniyada quyidagi nazorat choralari qo'llaniladi:

- Manfaatlarni to'qnashuvlari reyestri yaratilgan bo'lib, unga barcha deklaratsiya qilingan holatlar kiritiladi;
- Ichki audit va komplayens nazorat bo'limining muntazam tekshiruv taomillari joriy etilgan.

Siyosat talablarini buzganlik uchun intizomiy choralar belgilangan, jumladan:

- Ogohlantirishlar berish;
- Ma'muriy jarimalar qo'llash;
- Boshqaruv qarorlari qabul qilish huquqidan mahrum qilish;
- Og'ir qoidabuzarlikda mehnat shartnomasini bekor qilish.

2025-yil 13-martda “O'zbekgeofizika” AJ Axloq komissiyasi tomonidan Kompaniya xodimlari taqdim etgan yillik deklaratsiyalar tahlili o'tkazildi. Ushbu tahlilning maqsadi manfaatlarni to'qnashuvi ehtimoliy holatlarini aniqlash, ularni tartibga solish choralari ishlab chiqish va kelgusidagi qonunbuzarliklarni oldini olish edi.

2025-yilda “O'zbekgeofizika” AJda manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish va oldini olish maqsadida 3 318 nafar xodim tomonidan yillik deklaratsiyalar topshirildi. Deklaratsiyalar tahlili natijasida 7 ta “haqiqiy” va 587 ta “ehtimoliy” manfaatlarni to'qnashuvi holatlari aniqlandi.

Aniqlangan “haqiqiy” manfaatlarni to'qnashuvlari asosan:

xodimlarning bir-biriga bevosita bo'ysunishi;

tadbirkorlik subyektlarida rahbarlik yoki ta'sischi faoliyati bilan bog'liq bo'ldi.

Hisobot davrida aniqlangan holatlarning aksariyati bo'yicha tartibga solish choralari ko'rildi, jumladan:

lavozimlarni o'zgartirish;

mehnat shartnomalarini bekor qilish yoki uzaytirmaslik;

tadbirkorlik subyektlari rahbarligi va ta'sischi ligidan chiqarish choralarini qo'llash orqali manfaatlar to'qnashuvi holatlari bartaraf etildi.

587 ta "ehtimoliy" manfaatlar to'qnashuvi holatlarining:

60 tasi xodimlarning yaqin qarindoshlari tadbirkorlik subyektlari bilan bog'liqligi;

527 tasi esa yaqin qarindoshlarning birgalikda ishlashi yoki boshqa tashkilotlarda faoliyat yuritishi bilan bog'liq bo'ldi.

Mazkur holatlar bo'yicha quyidagi profilaktik va cheklov choralari joriy etildi:

manfaatdor tadbirkorlik subyektlari bilan shartnoma tuzishga cheklovlar o'rnatildi;

xodimlarning bir-biriga bevosita hisobot topshirishi yoki nazorat funksiyalarida ishtirok etishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha cheklovlar belgilandi;

tushuntirish va profilaktika ishlari olib borildi.

"O'zbekgeofizika" AJ manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlarini faol joriy etmoqda va rivojlantirmoqda, bu esa:

- Korporativ shaffoflikni oshirishga;
- Korrupsiya xavfini kamaytirishga;
- Moliyaviy va obro'ga oid yo'qotishlar ehtimolini minimallashtirishga;
- Hamkorlar, mijozlar va davlat organlari bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishga xizmat qiladi.

Ichki va tashqi audit

Ichki audit

“O‘zbekgeofizika” AJ Ichki audit xizmati (keyingi o‘rinlarda – Xizmat) kompaniyaning moliyaviy operatsiyalarining shaffofligi va samaradorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. U moliyaviy hisobotlar va ichki nazoratning muntazam tekshiruvini amalga oshiradi, bu esa aksiyadorlar va hamkorlar tomonidan ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Ichki audit xizmatining siyosati 2021-yil 29-iyunda tasdiqlangan bo‘lib, Kompaniyaning Kuzatuv kengashiga hisobdorligi tartibini belgilaydi. Shuningdek, siyosatda Ichki audit xizmatining yillik ish rejasi va xarajatlar smetasining Kuzatuv kengashi yig‘ilishida tasdiqlanishi ko‘zda tutilgan.

Xizmat guruhi 2 kishidan iborat bo‘lib, Kompaniyaning Kuzatuv kengashi huzurida faoliyat yuritadi. Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash;
- Moliyaviy hisobotlarni tekshirish;
- Moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish va aniqlash;
- Moliyaviy jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish;
- Ichki normativ hujjatlarga muvofiqlikni audit qilish;
- Shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash;
- Kompaniya faoliyatiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy, operatsion va boshqa xavflarni baholash.

Bundan tashqari, Ichki audit xizmati xodimlari buxgalteriya hisobi va audit sohasida kamida 15 yillik tajribaga ega yuqori malakali mutaxassislardir. Ular xalqaro va milliy sertifikatlariga ega bo‘lib, jumladan tashqi va ichki auditorlar, professional buxgalterlar, korporativ boshqaruvchilar sertifikatlari hamda CAP/CIPA va ACCA/DiplIFR dasturlariga oid sertifikatlar mavjud.

Ichki audit xizmati xodimlari har yili O‘zbekiston Respublikasi auditorlar jamoat birlashmalari tomonidan tashkil etilgan malaka oshirish dasturlarida ishtirok etib, o‘z malakalarini doimiy ravishda oshirib boradilar. Ular doimiy ta‘lim jarayonini faol qo‘llab-quvvatlaydilar, bu esa audit va buxgalteriya hisobi sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va standartlardan xabardor bo‘lishlariga yordam beradi. Natijada, ularning kasbiy kompetensiyasi mustahkamlanib, xizmatning ish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ichki audit xizmati o‘z faoliyatida ichki normativ hujjatlarga, jumladan Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi Nizomga, Xalqaro ichki auditning kasbiy amaliyoti asoslariga (IPPF) hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladi.

“O‘zbekgeofizika” AJ Ichki audit xizmati.

Ichki audit xizmati Kompaniyaning moliyaviy- xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.



Matveyev Leonid Viktorovich — Ichki audit xizmati bo‘limi boshlig‘i. U Toshkent moliya institutining buxgalteriya hisobi va audit fakultetini tamomlagan. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan tashqi auditor sertifikat, O‘zbekiston Buxgalterlar va Auditorlar milliy assotsiatsiyasi tomonidan berilgan ichki auditor sertifikat, Yevroosiyo Sertifikatlangan buxgalterlar va auditorlar kengashi tomonidan berilgan CAP (Certified Accounting Practitioner) sertifikat, Oliy biznes va tadbirkorlik maktabi tomonidan berilgan korporativ boshqaruvchi sertifikat hamda O‘zbekiston Buxgalterlar va Auditorlar milliy assotsiatsiyasi tomonidan berilgan professional buxgalter (milliy sertifikat) sertifikatlariga ega.

2012-yilda “Yilning eng yaxshi auditori” tanlovi g‘olibi bo‘lgan.

Faoliyati davomida:

- DAJ “TAPOiCh”da ichki auditor yordamchisi;
- “FTF-LEA-AUDIT” MChJ auditorlik tashkilotida auditor lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Hozirgi kunda “O‘zbekgeofizika” AJda ichki auditor sifatida faoliyat olib bormoqda.



Karimova Shoista Fatxullayevna — Ichki audit xizmati bo‘limi xodimi. U Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini tamomlagan.

Quyidagi professional sertifikatlarga ega:

- CAP (Certified Accounting Practitioner) — Yevroosiyo Sertifikatlangan buxgalterlar va auditorlar kengashi;
- MHXS bo‘yicha sertifikatlangan bosh buxgalter (IAPBE Certification) — Yevroosiyo Sertifikatlangan buxgalterlar va auditorlar kengashi;
- Sertifikatlangan professional buxgalter sertifikat — O‘zbekiston Auditorlar palatasi;
- Auditor malaka sertifikat — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- Ichki auditor sertifikat — O‘zbekiston Auditorlar palatasi;
- “Qimmatli qog‘ozlar bozori va aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv” diplomi — Yangi bozorlar mutaxassislarini tayyorlash milliy markazi.

Tashqi audit

GRI 2-5

Shaffoflikni ta'minlash va manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirish maqsadida, Kompaniya har yili mustaqil auditorlarni jalb qilib, tashqi audit o'tkazadi. Ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, jumladan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", "Audit faoliyati to'g'risida" va "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi hamda 2025-yilni tashqi audit o'tkazish bo'yicha shartnoma tuzilgan.

"O'zbekgeofizika" AJ o'z faoliyatining shaffofligi va belgilangan standartlarga va talablar muvofiqligini ta'minlash uchun tashqi auditorlar va nazorat organlari bilan faol hamkorlik qiladi.

- Buyurtmachi supervayzerlarining kundalik nazorati:
 - Buyurtmachi vakillari obyektlarda har kuni bo'lib, ish sifatining tezkor monitoringini amalga oshiradilar.
 - Texnik parametrlar, metodologik standartlarga va bajarilish muddatlariga rioya qilinishi tekshiriladi.
 - Aniqlangan barcha kamchiliklar qayd etilib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar tatbiq etishga topshiriladi.
- Aksiyador va tarmoq boshqaruv organlari tomonidan nazorat:
 - 2026-yildan boshlab Kompaniya faoliyati aksiyador va tarmoq boshqaruv organlari tomonidan belgilangan tartibda monitoring qilinadi.
 - Texnik hujjatlar hamda ishlab chiqarish faoliyati natijalari muntazam tahlil qilinadi.
- Rejalashtirilgan tashqi auditlar:
 - Mustaqil auditorlar Kompaniyaning moliyaviy hisobotlari va ichki nazorat tizimini tahlil qiladilar.
 - Tekshiruvlar ISO va boshqa xalqaro standartlarga va qonunchilik talablariga muvofiqlikni baholashni o'z ichiga oladi.
 - Audit natijalari operatsion faoliyatni takomillashtirish uchun ishlatiladi.
- Tekshiruv natijalari:
 - Tashqi tekshiruvchilar tomonidan aniqlangan barcha kamchiliklar va tavsiyalar hisobotlarda qayd etiladi.
 - Muntazam tekshiruvlar taqdim etilayotgan xizmatlarning yuqori sifat darajasini va buyurtmachi hamda nazorat organlari ishonchini ta'minlashga xizmat qiladi.

2025-yilda "O'zbekgeofizika" AJ "DQS Quality Systems" xalqaro sertifikatlash kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan inspeksion auditdan muvaffaqiyatli o'tdi. Audit kompaniya menejment tizimining ISO 9001:2015 xalqaro sifat standartlariga muvofiqligini, shuningdek boshqaruv jarayonlarining samaradorligini va belgilangan normativ talablarning bajarilishini tekshirishga qaratilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 19-iyundagi №173-son qaroriga muvofiq, "O'zbekgeofizika" AJda "Geofizik ishlar sifatini boshqarish tizimi" (GISBT) ishlab chiqilgan, hujjatlashtirilgan, sertifikatlangan, takomillashtirilmoqda va samarali faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizim ISO 9001:2015 xalqaro standarti va Kompaniya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga oladi.

2011-yilda birinchi marta Milliy va Xalqaro muvofiqlik sertifikatlari olingan, keyinchalik 2014, 2017, 2020 va 2023-yillarda muvaffaqiyatli qayta sertifikatlash auditlari o'tkazilgan.

ISO 9001 talablariga moslik sertifikatining mavjudligi kompaniyaning samarali boshqarilayotganligini, sifatli xizmatlar ko'rsatilayotganligini tasdiqlaydi, uning obro'sini oshiradi va raqobatchilar bilan kurashishda afzallik yaratadi.

Ushbu sertifikat quyidagi maqsadlarga erishishga imkon beradi:

- Kompaniya samaradorligini oshirish;
- Kompaniya boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish;
- Raqobatbardosh ustunliklarni qo'lga kiritish (xususan, xalqaro loyihalarda ishtirok etishda);
- Kompaniya imijini oshirish;
- Yangi hamkorlar yoki investorlar uchun jozibadorlikni ta'minlash.

ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyasi

2025-yilda "O'zbekgeofizika" AJda ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish bo'yicha muhim tashkiliy choralar amalga oshirildi.

Hisobot yilida ESG bilan bog'liq masalalarni Kuzatuv kengashining tayinlov va mukofotlash qo'mitasi doirasida ko'rib chiqish amaliyoti joriy etildi. Shuningdek, Kuzatuv kengashi tomonidan ESG yo'nalishlari korporativ nazorat va monitoring jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilinmoqda.

Ichki audit tizimi doirasida ESG bilan bog'liq risklar va boshqaruv jarayonlarini monitoring qilish mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar boshlandi.

Shu bilan birga, Kompaniya manfaatdor tomonlar bilan muloqot, xodimlar fikrini o'rganish va qayta aloqa mexanizmlarini takomillashtirish orqali ESG tamoyillarini boshqaruv qarorlariga integratsiya qilishni davom ettirmoqda.

2026-yilda ESG yo'l xaritasi doirasida ESG monitoringi, manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalar hamda ichki boshqaruv mexanizmlarini yanada rivojlantirish rejalashtirilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi

GRI 2-23, 2-24, 2-25, 2-26, 3-3

“O‘zbekgeofizika” AJ korrupsiyaga qarshi qat’iy siyosatni amalga oshiradi hamda yuksak biznes etikasi standartlariga rioya qiladi, bu Kompaniya korporativ madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Kompaniyaning butun faoliyati ichki normativ hujjatlar bilan tartibga solinib, korrupsiyaviy xatarlarning oldini olish va axloqiy ish muhitini yaratishga qaratilgan.

Ushbu yo‘nalishda Kompaniyaning asosiy siyosatlari va ichki hujjatlari quyidagilardan iborat:

- Korrupsiyaga qarshi turish siyosati.
- Korrupsiyaviy xatarlarni baholash tartibi.
- Manfaatlarni to‘qnashuvini hal qilish tartibi.
- Korporativ axloq kodeksi.
- Jamoa shartnomasi.
- Ichki mehnat tartibi qoidalari.
- Xulq-atvor kodeksi



Shuningdek, “O‘zbekgeofizika” AJ O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qaratilgan bir qator qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat yuritadi. Ulardan eng muhimlari:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 29-iyunda qabul qilingan PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon. Ushbu farmon mamlakatdagi korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish va davlat korxonalarida xalqaro standartlarga mos keluvchi komplayens-nazoratni joriy etishga qaratilgan.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 6-iyulda qabul qilingan PF-6257-sonli “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Farmon korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish va davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati o‘rtasida samarali hamkorlikni ta‘minlash choralarini belgilaydi.
- O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni (2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son). Ushbu qonun davlat siyosatining asosiy tamoyillari va yo‘nalishlarini, jumladan davlat va davlat ulushi mavjud korxonalarda oshkoralik va javobgarlikni ta‘minlash choralarini belgilaydi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21 aprel 2025 yil PQ-147-son “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarini mustaqilligini ta‘minlash va ustivor yo‘nalishlar belgilangan.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2025 yildagi PF-270-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi bilan uzviy hamkorlikda tashkil etilishi va Korrupsiya omillarini aniqlash va bartaraf etish samaradorligini oshirish choralari belgilangan.
- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.

Kompaniyaning komplayens nazorati

"O'zbekgeofizika" AJ ichki nazorat tizimini joriy qilgan bo'lib, u barcha biznes jarayonlarning qonunchilik talablariga va korrupsiyaga qarshi choralarga muvofiq tekshirilishini ta'minlaydi. Ichki antikorrupsiya nazorati bo'limining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish va nazorat qilish;
- Xodimlarga korrupsiyaga qarshi siyosat bo'yicha ko'rsatma va maslahat berish;
- ISO 37001:2016 standarti talablariga rioya etilishini ta'minlash;
- Faoliyat to'g'risida boshqaruv organlariga hisobot berish.

Ichki antikorrupsiya nazorati bo'limi xodimlari yuqori malakaga ega, ularning aksariyati huquqni muhofaza qilish organlari yoki yuridik sohada kasbiy tajribaga ega bo'lib, bu huquqbuzarliklarni samarali aniqlash va oldini olish, shuningdek, qonunchilikka va Kompaniyaning ichki siyosatiga rioya etilishini ta'minlash imkonini beradi. Mazkur bo'linma belgilangan tartibda Kuzatuv kengashi, Boshqaruv va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga bo'ysunadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati

"O'zbekgeofizika" AJning 2023-yil 23-iyuldagi Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati Kompaniya faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olish va ularga chek qo'yishga qaratilgan asosiy tamoyillar, maqsadlar va chora-tadbirlarni belgilaydi. Hujjat korrupsiyaga nisbatan murossasizlikni belgilab, Kompaniya bilan o'zaro aloqada bo'lgan barcha xodimlar, hamkorlar va uchinchi shaxslarni qamrab oladi. Siyosat doirasida xodimlarning korrupsiyaga qarshi xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga oid shubhalar haqida o'z vaqtida xabar berish, shuningdek, axloqli va shaffof korporativ madaniyatni shakllantirishda faol ishtirok etish majburiyatlari qat'iy belgilangan.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va kamaytirish, xodimlarni o'qitish, shuningdek, ehtimoliy qoidabuzarliklar to'g'risida xavfsiz va maxfiy xabardor qilish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Siyosatga rioya etilishini nazorat qilish bevosita Kompaniya rahbariga bo'ysunadigan maxsus korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi, bu esa uning mustaqilligi va xolisligini ta'minlaydi. Siyosat muntazam ravishda qonunchilik va Kompaniyaning ichki muhitidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi.

Tasdiqlangan korrupsiya holatlari va ko'rilgan choralar

GRI 205-3

2023-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda Kompaniyada korrupsiya holatlari tasdiqlanmadi. Xodimlar yoki biznes hamkorlar tomonidan korrupsiya bilan bog'liq qonunbuzarliklar qayd etilmadi, shuningdek, Kompaniya yoki uning xodimlariga nisbatan korrupsiya bo'yicha sud ishlari qo'zg'atilmadi.

Korrupsiyaviy xatarlarni baholash

GRI 205-1

Bosh direktorning 2025 yil 30 dekabdagi 163-sonli buyrug'iga muvofiq, "O'zbekgeofizika" AJda Kompaniyaning bo'linmalari, shu'ba tashkilotlari va filiallari faoliyatini tahlil qilish asosida 2025-yilda korrupsiyaviy xatarlarni baholash bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Korrupsiyaviy xatarlar aniqlandi va baholandi;
- Korrupsiyaviy xatarlar xaritasi ishlab chiqilgan;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ishlab chiqilgan;
- Korrupsiyaviy xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirildi;
- Korrupsiyaga moyil munosabatlar reestri yuritilmoqda.

Korrupsiyaviy xatar xavfi yuqori lavozimlar va xodimlar uchun alohida harakatlar rejasi ishlab chiqildi.

“O‘zbekgeofizika” AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti” talablariga muvofiq korrupsiogen xavf-xatarlar “Yuqori”, “O‘rta” va “Past” darajalarga taqsimlandi.

Unga ko‘ra, 422 ta lavozimlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi aniqlanib, Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalarida 2025 yil korrupsiyaviy xavf-xatarlari 3 darajaga ajratilib baholandi. Natijada, yuqori darajadagi xavfi mavjud 193 ta, o‘rta darajadagi 191 ta, past darajadagi 38 taga baholandi.

“O‘zbekgeofizika” AJ faoliyatida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va oldini olish hamda 2022 yil 11 maydagi PQ-240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga talablariga muvofiq 2025 yilda “O‘zbekgeofizika” AJda aniqlangan 19 ta funksiyalar bo‘yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholandi (10 ta “Yuqori”, 7 ta “O‘rta” va 2 ta “Past”) va “E-anticor.uz” elektron platformasiga joylashtirilib, elektron tarzda Agentlikga ma‘lumot taqdim qilindi.

Agentlik tomonidan ushbu taqdim qilingan ma‘lumotlarni ko‘rib chiqish natijalariga bo‘yicha “ijobiy xulosa” berildi hamda avtomatik tarzda Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi “Chora-tadbirlar Dasturi”, “Xavf-xatarlar xaritasi” hamda “Yuqori xavfga ega lavozimlar ro‘yxati” elektron platformada shakllantirildi.

40- jadval. 2023–2025-yillarda korrupsiyaga bog‘liq xatarlar baholangan tuzilmaviy bo‘linmalar / biznes jarayonlari soni va foizi

GRI 205-1

2023		2024		2025	
soni	%	soni	%	soni	%
38	100	38	100	193	100

O‘tgan 3 yil davomida korrupsiyaviy xatarlar baholangan tarkibiy bo‘linmalar/biznes jarayonlari foizi, qamrab olingan bo‘linmalar va jarayonlar foizi 100% ni tashkil etdi, bu esa ushbu uch yil davomida Kompaniyaning barcha bo‘linmalari va jarayonlari korrupsiyaviy xatarlar bo‘yicha baholanganligini anglatadi. Ushbu baholash natijasida xaridlar va xodimlar siyosati bo‘limlarida affillangan shaxslar bilan TMZni xarid qilish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha bitim va shartnoma tuzish hamda manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda lavozimga tayinlash bilan bog‘liq xatarlar aniqlandi.

Ushbu natijalar asosida Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalarining vazifalari belgilab olindi, ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi" xalqaro standarti bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqildi va uning talablari amaliyotga joriy etildi. Mazkur qo‘llanma doirasida korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat siyosati bo‘yicha savol-javoblar shakllantirildi hamda Kompaniya xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish dasturi tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi 240-son "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu jarayonlarda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, 2024-yildan boshlab

"O'zbekgeofizika" AJda aniqlangan va baholangan korrupsiyaviy xatarlar to'g'risidagi ma'lumotlar "E-anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirilib, Agentlikka taqdim etib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi 81-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2024-yildan boshlab barcha reyting baholash indikatorlari "E-Anticor.uz" platformasiga kiritilmoqda.

2024 yil natijalari bo'yicha, 2025 yilning 23 fevral kuni Agentlik va mustaqil ekspertlar guruhi tomonidan "O'zbekgeofizika" AJning "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi" 85 ball to'plab "yashil hudud" toifasiga kiritildi

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi 2026-yilda yuqoridagi qarorga muvofiq "O'zbekgeofizika" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini 2025 yil natijalari bo'yicha reyting baholashdan o'tkazadi.

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish

2025 yilda "Manfaatlar to'qnashuvini" boshqarish va oldini olish bo'yicha 3318 nafar xodimlar tomonidan Deklaratsiyalar to'ldirildi. Natijasi bo'yicha 7 ta "Haqiqiy" va 587 ta "Ehtimoliy" manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlandi.

7 ta "Haqiqiy" manfaatlar to'qnashuvi holatlaridan, 3 ta holatda xodimlarning bir-biriga bo'ysinuvi natijasida va 4 ta holatda, tadbirkorlik sub'ektlari rahbari yoki ta'sischiligi bilan bog'liq holatlar xisoblanadi.

Shundan, 3 ta holatdan, **2 tasi bartaraf etildi** va 4 ta holatdan **1 tasi** bartaraf etildi.

2025 yilda bir-biriga bo'ysinuvi natijasida (G.Ulpetov) 1 ta holat va 3 nafar xodimlarning tadbirkorlik sub'ektlarida rahbar yoki ta'sischiligi bilan bog'liq 3 ta holat bartaraf etilmasdan qolgan.

Qo'shimcha ravishda 2025 yil davomida olib borilgan tadbirlar natijasida, 7 nafar xodimlarga ta'luqli **9 ta "Haqiqiy"** manfaatlar to'qnashuvi (xodimlarning o'zlari tadbirkorlik sub'ektlari rahbari yoki ta'sischiligi bilan bog'liq) holatlar aniqlandi va ularning barchasi bartaraf etildi.

Xususan, 1 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi bilan **1 ta holat**, 1 nafar xodimning lavozimni pasaytirish xisobiga **1 ta holat**, 3 nafar xodimlarning bilan tuzilgan FXT mehnat shartnomasi muddati uzaytirilmasligi orqali **5 ta holat**, 2 nafar xodimlarni tadbirkorlik sub'ekti rahbarligi va ta'sischiligidan chiqarilishi xisobiga **2 ta holat**.

587 ta "Ehtimoliy" manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha, 60 ta holatda xodimlarning yaqin qarindoshlari tadbirkorlik sub'ektlari rahbari yoki ta'sischiligi bilan bog'liq, 527 ta holatda xodimlarning bir-biriga yaqin qarindoshligi va boshqa tashkilotlarda faoliyat olib borishi bilan bog'li.

Shundan, Jamiyat tomonidan 60 ta tadbirkorlik sub'ektlari bilan shartnoma tuzmaslik bo'yicha cheklovlar o'rnatildi.

527 ta holatda xodimlarning bir-biriga yaqin qarindoshligi va boshqa tashkilotlarda faoliyat olib borishi bo'yicha tushuntirish profilaktika va bitta vazifani bajarmaslik, bir – biriga xisobot topgirmaslik yoki qabul qilmaslik va yaqin qarindoshiga nisbatan o'tkaziladigan nazorat tadbirlarida ishtirok etmaslik bo'yicha cheklovlar o'rnatildi.

Korrupsiyaviy xatarlarni minimallashtirish choralari

Korrupsiyaviy xatarlarni minimallashtirish maqsadida Kompaniyada barcha me'yoriy talablarga rioya etilishini ta'minlash va xodimlarning xatti-harakatlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Asosiy jihatlardan biri korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratishga yordam beradigan keng qamrovli siyosat va tartib-qoidalarni joriy etishdir.

Kuzatuv kengashi huzurida Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qo'mitasi faoliyat yuritadi, u korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish ustidan nazorat qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

Qo'mita, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, xodimlar, iste'molchilar va Kompaniyaning qonuniy huquqlarini korrupsiyaning salbiy oqibatlar bilan bog'liq xatarlardan himoya qilish ustida ish olib boradi. Bundan tashqari, Qo'mita Kompaniyada odob-axloq kodeksiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

2025-yilda Kompaniya xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish doirasida hamda tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq 17 ta seminar va 27 ta targ'ibot-profilaktika tadbirlari o'tkazildi. Ushbu tadbirlar Kompaniya rahbariyati tomonidan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha harakatlar rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

41- jadval. Korrupsiyaga qarshi siyosat va taomillar bo'yicha ma'lumot berish va o'qitish, 2023–2025-yillar

GRI 205-2

	2023		2024		2025	
<i>Kompaniya korrupsiyaga qarshi siyosat va usullari bo'yicha ma'lumot berish</i>	nafar	%	nafar	%	nafar	%
Ma'lumot berilgan asosiy korporativ boshqaruv organlari a'zolari umumiy soni	14	100	16	100	16	100
Ma'lumot berilgan xodimlarning umumiy soni (toifalar bo'yicha)	3564	100	3455	100	3166	100
- Rahbar lavozimlarida	95	100	95	100	95	100
- Mutaxassislar	857	100	864	100	716	100
- Ishchilar	2612	100	2496	100	2355	100
Ma'lumot berilgan amaliy hamkorlarning umumiy soni	75	100	179	100	214	100
<i>Korrupsiyaga qarshi siyosat va usullar bo'yicha o'qitish</i>	nafar	%	nafar	%	nafar	%
O'qitilgan asosiy korporativ boshqaruv organlari a'zolari soni	5	100	5	100	5	100
O'qitilgan xodimlarning umumiy soni	650	15	1150	30	1251	40
- Rahbar lavozimlarida	5	100	5	100	5	100

	2023		2024		2025	
- Mutaxassislar	20	100	44	100	182	100
- Ishchilar	630	100	1101	100	1064	100

7- jadvalga ko'ra, xabardorlik darajasi barqaror yuqori bo'lib qolmoqda: 2025-yilda 100% xodimlar, jumladan rahbarlar, mutaxassislar va ishchilar hamda amaliy hamkorlar mavjud korrupsiyaga qarshi siyosatlar va usullar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan. Ma'lumot berilgan xodimlar soni 2024-yilga nisbatan ozgina kamaygan (3455 dan 3166 kishigacha), bu esa xodimlar sonining o'zgarishi bilan bog'liq.



Korrupsiyaga qarshi kurash usullarini o'rgatish sohasida ijobiy dinamikaga erishildi. 2025-yilda 1251 nafar xodim (umumiy sonning 40%) o'qitildi, bu esa 2024-yil ko'rsatkichidan (1150 nafar, 30%) sezilarli darajada yuqori. Dasturga rahbarlar (5 kishi) va ishchilar (1064 kishi) kiritildi, bu esa ta'lim tashabbuslari kengayishi va Kompaniyaning barcha darajalarida korrupsiyaga qarshi nazoratning kuchayganini ko'rsatadi. Oldingi davrda quyidagi treninglar va ta'limlar amalga oshirildi:

O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi haqida"gi Qonuni (2024-yil 5-iyun, 931-son) qabul qilinishi munosabati bilan xodimlarni ushbu qonunning talab va mazmuni bilan tanishtirish ishlari davom ettirildi. Xususan, "O'zbekgeofizika" AJ "Odob-axloq" komissiyasining Qarorlari bilan, "O'zbekgeofizika" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarining 16 nafar xodimlariga tadbirkorlik sub'ektlarida rahbar yoki ta'sischi sifatida ishtirok etayotganliklari va bir-birining buysinuvida faoliyat olib borishi natijasida yuzaga kelgan "Mavjud" manfaatlar to'qnashuvi holatlarini bartaraf etishlari bo'yicha ogohlantirish berilib, ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 12 ta "Mavjud" va 587 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari bartaraf etildi.



2024 yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Xisob palatasi tomonidan "O'zbekgeofizika" AJning 2022-2023 y.y. va 2024 yilning 11 oyi maboynida davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi bo'yicha muvofiqlik auditi o'tkazilganligi va uning natijalari bo'yicha 2025 yilning 27 yanvar kuni Xisob palatasi tomonidan 04-122-sonli ko'rsatma berilib, unga ko'ra davlat Jamiyatda davlat xaridlari yo'nalishida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yilganligini holatlari bo'lim tashabbusi bilan "Odob-axloq" komissiyasida ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Xisob-palatasi topshirig'iga asosan Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalarida 50 nafar xodimlarning 2 va undan ortiq joyda faoliyat olib borib qo'shimcha daromad olayotganliklari hamda 1217 nafar Jamiyat xodimlarida mavjud "nepotizm" va manfaatlar to'qnashuvi holatlari tahlil qilinib, ularning qonuniy asoslari o'rganilib, to'plangan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Xisob-palatasiga Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi elektron platformasi orqali taqdim qilindi.

- 2025 yil davomida 5 ta Kompaniyada yangi qonunning bandlari tushuntirilgan o'quv seminarlar tashkil etildi. Seminarlar yakunida "onlayn-test"lar o'tkazilib, natijalari vazirlik va adliya organlariga taqdim etildi.
- Shuningdek, "CERT International" xalqaro auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma doirasida, "Amirobod KGE", "Farg'ona GE", "Yakkabog' GE" va "Ustyurt GE" filiallaridagi xodimlar uchun ISO 37001:2015 xalqaro standarti talablariga oid maxsus trening o'tkazildi va trening yakunida tegishli sertifikatlar berildi.
- Joriy yilning avgust oyida "O'zbekgeofizika" AJ ijro apparati hamda "Yakkabog' geofizika ekspeditsiyasi" filiali korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001:2016 halqaro standarti talablari asosida "CERT International" halqaro auditorlik kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tashqi audit natijalari bo'yicha "himoya qilindi".
- Belgilangan biznes rejaga muvofiq, 2025 yilning 4 choragida "O'zbekgeofizika" AJning "Farg'ona GE" hamda "Ustyurt GE" filiallari faoliyatini ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari bo'yicha sertifikatlandi.
- Komplayens-nazorat bo'limi va Jamiyatning 137 nafar mas'ul xodimlari O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish organlari akademiyasining "Davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish" mavzusidagi onlayn kursini tamomladi. Shuningdek, ular korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi va Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan tashkil etilgan turli seminarlarda ishtirok etdi va tegishli sertifikatlar oldi.
- Filiallardagi korrupsiyaga qarshi kurash tadbirlarini yaxshilash, ichki hujjatlar tatbiqini kuchaytirish va xodimlarga metodik yordam ko'rsatish maqsadida 2025-yilda "Yakkabog' GE", "Amirobod KGE", "Buxoro", "Farg'ona GE" va "Ustyurt GE" filiallarga ishchi safarlar uyushtirildi. Ushbu filiallardagi tushuntirish va profilaktika tadbirlari, shuningdek amaliy yordam ko'rsatildi.

2026-yilda komplayens-nazorat bo'limi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ishlarni davom ettirish uchun quyidagi vazifalarni belgiladi:

- "O'zbekgeofizika" AJ uchun 2026-yilga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.
- Kompaniya rahbariyatining O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi haqida"gi Qonun talablariga rioya qilinishini ta'minlash.
- Jamiyatning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatida yuqori xavf-xatarlar mavjud bo'lgan yo'nalishlardar korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash, oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida inson omilini cheklash, raqamlashtirish, shu jumladan sunniy intellektni joriy etish bo'yicha elektron tizim (platforma, dastur va modul)lar yaratilishi bo'yicha takliflar berish va ularni amalga oshirilishini tashkil qilish.
- Ichki hujjatlarni yangi qonun talablariga moslashtirish maqsadida tegishli bo'limlar va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish.
- Xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, seminarlar, treninglar va profilaktika tadbirlarini o'tkazish.

- Ichki tartib-qoidalar, jumladan “Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati” va “Axloq” kodeksiga rioya etilishini nazorat qilish hamda manfaatlar to’qnashuvining oldini olish tadbirlarini amalga oshirish.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-228-sonli Qarori talablariga ko‘ra xodimlarni “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi”da “umumiy” va “maxsus” o‘qitish bo‘yicha reja-grafik asosida o‘qitishni tashkil qilish (300 nafar xodim, Jamiyat hodimlarining umumiy sonining 10%).
- Korrupsiya bilan bog‘liq murojaatlarni, jumladan kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish va ularning adolatli hamda obyektiv ko‘rib chiqilishini ta‘minlash.
- Korrupsiyaga qarshi kurash tadbirlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish orqali jamoatchilikni olib borilayotgan ishlar haqida xabardor qilish.

“O‘zbekgeofizika” AJning “Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorati” bo‘limi

Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorati bo‘limi - Korrupsiyaviy xatarlarning oldini olishga qaratilgan siyosat va taomillarni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, Kompaniyaning etika standartlariga rioya qilinishini ta‘minlash uchun mas‘uldir.



Ochilov Nurjamol Axmatovich — “O‘zbekgeofizika” AJning “Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorati” bo‘limi boshlig‘i. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini tamomlagan. Quyidagi sertifikatlariga ega: O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi — “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining samarali faoliyatini ta‘minlash” (Sertifikat № A-128890, 2025-yil iyun); “Korrupsion xatarlarni bartaraf etish” (Sertifikat № A-172474, 2025-yil dekabr); “Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari uchun manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, tartibga solish va oldini olish” (Sertifikat № MO-022455, 2024-yil noyabr); CERT Akademiyasi — korrupsiyaga qarshi xalqaro ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha (ro‘yxatga olish raqami ABMS-UZ KHFVQHmjU7, 2023-yil 14–17-fevral); O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi — “Korrupsiyaga qarshi kurashishda ustuvor vazifalarni belgilash va zamonaviy oldini olish mexanizmlarini joriy etish” (2022-yil 30–31-may); Xalqaro korrupsiyaga qarshi akademiya (IASA) — “Davlat sektorida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish” (Sertifikat № IASA-01, 2022-yil 19-aprel); “Korrupsiya indikatorlarini aniqlash vositasi sifatida aktivlarni deklaratsiya qilish” (Sertifikat № IASA-01, 2022-yil 14-iyun).



Qodirov Zafar Abdurahimovich — “O‘zbekgeofizika” AJning “Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorati” bo‘limi xodimi. O‘zbekiston Respublikasi IIV Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurtini tamomlagan. Quyidagi sertifikatlariga ega: O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi — “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining samarali faoliyatini ta‘minlash” (Sertifikat № A-128888, 2025-yil iyun); “Korrupsion xatarlarni bartaraf etish” (Sertifikat № A-172472, 2025-yil dekabr); “Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari uchun manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, tartibga solish va oldini olish” (Sertifikat № MO-022456, 2024-yil noyabr); CERT Akademiyasi — korrupsiyaga qarshi xalqaro ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha (ro‘yxatga olish raqami ABMS-UZ OL4ipFxXJo, 2024-yil 26–29-mart).



Takhirov Aziz Zairovich — “O‘zbekgeofizika” AJning “Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorati” bo‘limi xodimi. Toshkent davlat milliy universitetini tamomlagan. Quyidagi sertifikatlarga ega: O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi — “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining samarali faoliyatini ta‘minlash” (Sertifikat № A-128889, 2025-yil iyun); “Korrupsion xatarlarni bartaraf etish” (Sertifikat № A-172473, 2025-yil dekabr); “Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari uchun manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, tartibga solish va oldini olish” (Sertifikat № MO-022457, 2024-yil noyabr); CERT Akademiyasi — korrupsiyaga qarshi xalqaro ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha (ro‘yxatga olish raqami ABMS-UZ 95P9ivHlnZ, 2023-yil 14–17-fevral).

Tezkor aloqa liniyasi

GRI 2-15, 2-16

“O‘zbekgeofizika” AJda murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tizimi “Korrupsiyaviy xulq-atvor to‘g‘risidagi xabarlarni aloqa kanallari orqali qabul qilish va ko‘rib chiqish” hujjati bilan tartibga solingan. Ushbu tizim xodimlar hamda manfaatdor tomonlarga kompaniyada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiya holatlari yoki korrupsiyaga oid har qanday xatti-harakatlar haqida shaffof va xavfsiz tarzda xabar berish imkonini yaratadi.

Tezkor aloqa liniyasi xodimlar, biznes hamkorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga korrupsiyaga oid gumonlar, mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilish, manfaatlar to‘qnashuvi va korporativ axloq qoidalarining buzilishi kabi holatlar bo‘yicha xabar berish imkoniyatini taqdim etadi.

Kompaniya barcha aloqa kanallarining mavjudligi va maxfiyligini kafolatlaydi. Murojaatlar quyidagi yo‘llar bilan qabul qilinishi mumkin:

- Ishonch telefoni (tezkor liniya) u haqdagi ma‘lumotlar ichki portalda va umumiy foydalanish hududlarida joylashtirilgan;
- Antikorrupsiya xabarlari uchun maxsus mo‘ljallangan elektron pochta manzili;
- Anonim murojaatlar uchun ma‘muriy va ishlab chiqarish binolarida joylashtirilgan pochta qutlari;
- Ichki antikorrupsiya nazorati bo‘limining vakolatli xodimiga shaxsan murojaat qilish;
- Har chorshanba belgilangan soatlarda boshqaruv raisi tomonidan qabul o‘tkaziladi. Bunda murojaatchilarning anonimligi ta‘minlanadi, masalalar maxsus tayinlangan komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Kelib tushgan murojaatlar maxsus jurnalda yoki axborot tizimida qayd etiladi va haqqoniylik alomatlari mavjudligi bo‘yicha dastlabki tekshiruvdan o‘tkaziladi. Asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, protsessual adolatning barcha normalariga rioya etilgan hamda arizachi va yarayonning barcha ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari majburiy tartibda ta‘minlangan holda xizmat tekshiruvi tayinlanadi.

Axborotni taqdim etgan shaxslarni himoya qilishga alohida e‘tibor qaratiladi: tashkilot siyosati qonunbuzarliklar to‘g‘risida vijdonan xabar bergan arizachilarga nisbatan, hatto bayon etilgan faktlar oxir-oqibat tasdiqlanmasa ham, har qanday shakldagi ta‘qib yoki kamsitish qat‘iyan taqiqlaydi. Huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, tegishli intizomiy yoki qonuniy choralar ko‘riladi.

2025-yilda "O‘zbekgeofizika" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi hamda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish metodikasi talablariga muvofiq turli aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazildi.

Jami Jamiyatga 30 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, shundan 17 tasi elektron shaklda, 13 tasi esa og‘zaki tarzda yuborilgan. Murojaatlar ish haqi, ishga joylashish, ssuda, pensiya va boshqa turli ma‘muriy muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, shundan 3 ta murojaat korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga oid bo‘ldi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish

- Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha shikoyatlar: xodimlar va fuqarolarning kompaniya faoliyatida yuzaga kelgan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi va boshqa qoida buzilishlari haqida bergan shikoyatlari sinchkovlik bilan tekshirildi. Tegishli choralar ko‘rildi, ba‘zi murojaatlar esa yanada batafsil surishtiruv uchun vakolatli organlarga yuborildi.

Qarorlar va xulosalar:

- Manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaviy holatlar bilan bog‘liq barcha murojaatlar ko‘rib chiqilib, tekshiruv natijalariga ko‘ra rasmiy javoblar berildi.

Murojaatlar monitoringi samarali tashkil etilgan bo'lib, bu kompaniyada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qoida buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash va oldini olish imkonini beradi. Barcha tekshiruvlar batafsil hujjatlashtiriladi va zarurat tug'ilganda vakolatli organlarga yuboriladi.

Ilovalar

1- ilova. Salmoqlilik tahlili

GRI 3-1

2025-yil uchun ikkinchi ESG hisobotini tayyorlash jarayonida “O‘zbekgeofizika” AJ salmoqlilikni baholash tartibini o‘tkazdi. Kompaniyaning yondashuvi GRI standarti: Material Topics 2021 va barqaror rivojlanish bo‘yicha eng yaxshi xalqaro amaliyotlarga asoslangan edi. Baholashning maqsadi — Kompaniyaning iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhitga ta‘sirini hamda asosiy manfaatdor tomonlarning manfaatlarini aks ettiruvchi eng muhim mavzularni aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Salmoqli mavzularni aniqlash jarayoni to‘rt bosqichni o‘z ichiga oldi:

1-bosqich. Tashqi kontekstni tahlil qilish

- Geofizika sohasidagi strategik ustuvorliklarni tahlil qilish;
- ESG bo‘yicha global va milliy tendensiyalarni o‘rganish.

2-bosqich. ESG mezonlari va moliyaviy bo‘lmagan hisobot talablari tahlili

- GRI 2021 standartlari talablari va metodologiyasini tahlil qilish;
- Yetakchi xalqaro ESG reyting agentliklari (S&P Global CSA, MSCI) baholagan mavzularni o‘rganish.

3-bosqich. Mavzularni reytinglash

- Mavzularni Kompaniya faoliyati bilan solishtirish va ularning dolzarbligini aniqlash;
- Salmoqli mavzularni tashqi kontekst va ESG mezonlari asosida baholash va taqqoslash.

4-bosqich. Salmoqli mavzular ro‘yxatini tasdiqlash

- Yakuniy mavzular ro‘yxatini mas‘ul bo‘linmalar bilan kelishish va Kompaniya rahbariyatida tasdiqlash.

GRI 3-2

O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, Kompaniyaning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv sohaslarini qamrab olgan 8 ta salmoqli mavzu aniqlangan. Ushbu mavzular barqaror rivojlanish sohasidagi Kompaniya ustuvorliklarini va asosiy manfaatdor tomonlarning kutilmalarini taqdim etadi.

Jihat	№	Dolzarb mavzu
Ekologik	1	Chiqindilarni boshqarish
	2	Energiya boshqaruvi va energiya samaradorligi
	3	Bioxilma-xillik
Ijtimoiy	4	Inklyuzivlik va teng imkoniyatlar

Jihat	№	Dolzarb mavzu
	5	Mehnat jamoasini qo'llab-quvvatlash
	6	Xodimlarni rivojlantirish va o'qitish
	7	Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi
Boshqaruv-iqtisodiy	8	Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi

2- ilova. GRI Content Index mazmun ko'rsatkichi

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
<i>GRI 2. Umumiy ma'lumot</i>					
1. Tashkilot va hisobot amaliyoti					
2-1	Tashkilot haqida ma'lumot	"Kompaniya haqida" bo'limi			
2-2	Tashkilotning barqarorlik hisobotiga kiritilgan korxonalar	1-ilova "Hisobot to'g'risida"			
2-3	Hisobot davri, chastotasi va bog'lanish uchun shaxs	1-ilova "Hisobot to'g'risida" 4-ilova. "Aloqa ma'lumotlari"			
2-4	Ma'lumotni qayta ko'rib chiqish	-	Qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlar	Qo'llanil madi	2024-yil ma'lumotlari taqqoslama maqsadida keltirilgan

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
2-5	Tashqi kafolat	-	Tashqi kafolat	Qo'llanil madi	Ushbu hisobot davrida tashqi kafolatlar amalga oshirilmagan
2. Faoliyat va xodimlar					
2-6	Operatsiyalar, qiymat zanjiri va boshqa biznes aloqalari	"Kompaniya haqida" bo'limi			
2-7	Xodimlar	"Xodimlar tarkibi" bo'limi			
2-8	Tashkilot xodimlari bo'lmagan xodimlar	-	Tashkilot xodimlari bo'lmagan ishchilar soni	Qo'llanil madi	
3. Boshqaruv					
2-9	Boshqaruv organlarining tuzilmasi va tarkibi	"Korporativ boshqaruv tuzilmasi" bo'limi "Kuzatuv kengashi" bo'limi, "Kuzatuv kengashi qo'mitalari" bo'limi			

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
2-10	Yuqori boshqaruv organini saylash va nomzodlarni ilgari surish	“Korporativ boshqaruv tuzilmasi” bo'limi “Kuzatuv kengashi” bo'limi			
2-11	Oliy boshqaruv organi raisi	“Korporativ boshqaruv tuzilmasi” bo'limi “Kuzatuv kengashi” bo'limi,			
2-12	Ta'sirni boshqarishni nazorat qilishda yuqori boshqaruv organining roli	“Korporativ boshqaruv tuzilmasi” bo'limi			
2-13	Ta'sirni boshqarish uchun mas'uliyatni topshirish	“Korporativ boshqaruv tuzilmasi” bo'limi			
2-14	Barqarorlik hisobotida oliy boshqaruv organining roli	“Korporativ boshqaruv tuzilmasi” bo'limi			
2-15	Manfaatlar to'qnashuvi	“Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi”			

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
2-16	Muhim muammolar haqida ma'lumot uzatish	"Tezkor aloqa liniyasi" bo'limi			
2-17	Oliy boshqaruv organi to'g'risida jamoaviy bilim	"Kuzatuv kengashi" bo'limi			
2-18	Oliy boshqaruv organi faoliyatining samaradorligini baholash	"Korporativ boshqaruv tuzilmasi" bo'limi			
2-19	Mukofotlash siyosati	"Rag'batlantirish va mukofotlash" bo'limi			
2-20	Mukofotlash miqdorini aniqlash jarayoni	"Rag'batlantirish va mukofotlash" bo'limi			
2-21	Yillik umumiy ish haqi koeffitsiyenti	"Rag'batlantirish va mukofotlash"			
4. Strategiya, siyosat va amaliyot					

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
2-22	Barqaror rivojlanish sohasidagi bayonot	“Rahbariyat murojaati” bo'limi			
2-23	Siyosatga sodiqlik	“Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi” bo'limi			
2-24	Zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarish	“Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi” bo'limi			
2-25	Salbiy ta'sirlarni bartaraf etish jarayonlari	“Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi” bo'limi			
2-26	Maslahat olish va xavotir bildirish mexanizmlari	“Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi” bo'limi			
2-28	Uyushmalarga a'zolik	-	Ochib berilmagan		Kompaniyada uyushmalardagi a'zolik haqida ma'lumot yo'q.
5. Manfaaddor tomonlar bilan o'zaro aloqalar					
2-29	Manfaaddor tomonlar bilan	“Manfaaddor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar” bo'limi			

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
	aloqalarga yondashuv				
2-30	Jamoa shartnomalari	"Xodimlarni boshqarish yondashuvi" bo'limi			
GRI 3 Salmoqli mavzular 2021					
Salmoqli mavzularni aniqlash jarayoni					
3-1	Salmoqli mavzularni aniqlash jarayoni	1- ilova. "Salmoqlilik tahlili"			
3-2	Salmoqli mavzular ro'yxati	1- ilova. " Salmoqlilik tahlili"			
3-3	Salmoqli mavzularni boshqarish	"Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi" bo'limi "Xodimlarni boshqarishga yondashuv" bo'limi "Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi" bo'limi "Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligini boshqarishga yondashuv" bo'limi			
GRI 205 Korrupsiyaga qarshi kurash 2016					

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
205-1	Korrupsiyaga bog'liq xatarlar baholangan amaliyotlar	"Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi" bo'limi			
205-2	Korrupsiyaga qarshi siyosat va taomillar bo'yicha xabardorlikni oshirish va o'qitish	"Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi" bo'limi			
205-3	Tasdiqlangan korrupsiya holatlari va ko'rilgan chora-tadbirlar	"Korrupsiyaga qarshi kurash va biznes etikasi" bo'limi			
GRI 302 Energiya 2016					
302-1	Tashkilot ichidagi energiya iste'moli	"Energiya boshqaruvi va energiya samaradorligi bo'limi			
302-3	Energiya intensivligi	"Energiya boshqaruvi va energiya samaradorligi" bo'limi			
GRI 306 Chiqindilar 2020					
306-1	Chiqindilarning shakllanishi va	"Chiqindilarni boshqarish tizimi" bo'limi			

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
	chiqindilar bilan bog'liq muhim ta'sirlar				
306-2	Chiqindilar bilan bog'liq muhim ta'sirlarni boshqarish	“Chiqindilarni boshqarish tizimi” bo'limi			
306-3	Hosil bo'lgan chiqindilar	“Chiqindilarni boshqarish tizimi” bo'limi			
306-4	“Ko'mishga yuborilmagan chiqindilar”	“Chiqindilarni boshqarish tizimi” bo'limi			
306-5	“Ko'mishga yuborilgan chiqindilar”	“Chiqindilarni boshqarish tizimi” bo'limi			
GRI 401 Bandlik 2016					
401-1	Yangi xodimlarni yollash va xodimlar qo'nimsizligi	“Xodimlarni izlash va jalb qilish” bo'limi			

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
401-2	To'liq bandlik shartlari asosida ishlaydigan xodimlarga beriladigan, vaqtinchalik xodimlarga yoki to'liq bandlik shartlari asosida xodimlarga berilmaydigan imtiyozlar	"Xodimlarni boshqarishga yondashuv"			
401-3	Dekret ta'tili	"Xodimlarni boshqarishga yondashuv"			
GRI 402 Xodimlarni boshqarish 2016					
402-1	Tashkilot faoliyatidagi muhim o'zgarishlar to'g'risida xabar berishning minimal davri	"Xodimlarni boshqarish yondashuvi bo'limi: Etika, tenglik va mehnat huquqlariga rioya qilish tamoyillari"			

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
GRI 405 Turli xillik va teng imkoniyatlar 2016					
405-1	Boshqaruv organlari va xodimlarining xilma-xilligi	“Inklyuzivlik va teng imkoniyatlar” bo'limi			
405-2	Mehnat haqi bo'yicha tenglik	“Inklyuzivlik va teng imkoniyatlar” bo'limi			
GRI 403 Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik 2018					
403-1	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			
403-2	Xavfni aniqlash, xatarni baholash, baxtsiz hodisalarni tekshirish	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
403-3	Mehnatni muhofaza qilish xizmatlari	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			
403-4	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha xodimlarning ishtiroki, maslahatlashuv va muloqot	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			
403-5	Mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi bo'yicha xodimlarni o'qitish	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			
403-6	Xodimlar salomatligini ilgarilatish	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			
403-7	Amaliy aloqalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan sog'liq va xavfsizlikka ta'sirning oldini olish	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
403-8	Mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi bilan qamrab olingan ishchilar	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			
403-9	Ishlab chiqarish jarohatlari	“Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi” bo'limi			
GRI 404 Treninglar va ta'lim 2016					
404-1	Bir xodimga to'g'ri keladigan yillik o'rtacha o'quv soatlari soni	“Xodimlarni izlash va jalb qilish” bo'limi “Xodimlarni o'qitish” bo'limi			
404-2	Xodimlarni rivojlantirish dasturlari va boshqa lavozimlarga o'tish uchun yordam dasturlari	“Xodimlarni izlash va jalb qilish” bo'limi			
GRI 413 Mahalliy hamjamiyatlar 2016					

Indikator	Oshkor qilish	Bo'lim	Istisno		
			Yetishma yotgan talab	Sabab	Izoh
413-1	Mahalliy hamjamiyat ishtirokidagi tadbirlar, ta'sirni baholash va rivojlanish dasturlari	"Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik"			

3- ilova. Glossariy

Qisqartmalar	Tasnifi
ACCA	Sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasi
AJ	Aksiyadorlik jamiyati
BMT BRM	BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari
CAP/CIPA	Certified Accounting Practitioner — Sertifikatlangan buxgalter-amaliyotchi Certified International Professional Accountant — Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter
CFI	Classification of Financial Instruments — Moliyaviy vositalar tasnifi kodi
CH ₄	Metan
CO ₂	Karbon dioksid (CO ₂)
DIPIFR	Diploma in International Financial Reporting - Xalqaro moliyaviy hisobot diplomi
DST (Davlat standartlari)	Davlat standarti
EBITDA	Earnings before interest, taxes, depreciation, and amortization — Sof foyda (daromad) foizlar, soliqlar, amortizatsiya va amortizatsiya hisobidan chiqarilmagan yoki qisqacha EBITDA (Inglizcha atama sifatida qo'llaniladi).
EBT	Ekologik boshqaruv tizimi
ESG	Atrof-muhit, Ijtimoiy va Boshqaruv (ESG) tamoyillari.
ESK	Ekologik samaradorlik ko'rsatkichlari
ETK	Ekspert-texnik komissiya
FISN	Financial Instrument Short Name — Moliyaviy vositaning qisqa standartlashtirilgan nomi
FV	Favqulodda vaziyatlar
CSR	Corporate Social Responsibility — Korporativ ijtimoiy mas'uliyat
GE	Geofizika ekspeditsiyasi
GISM	Geofizik ishlar sifatini boshqarish tizimi

Qisqartmalar	Tasnifi
GJ	Gigajoul
GRI	Global Reporting Initiative — Hisobot berish bo'yicha global tashabbus
GTT	Geologiya-texnika tadqiqotlari
IAX	Ichki audit xizmati
IPPF	International Professional Practices Framework — Xalqaro professional amaliyotlar doirasi
ISIN	International Securities Identification Number — Xalqaro qimmatli qog'ozlarni identifikatsiyalash raqami
ISO	International Organization for Standardization — Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti
KK	Kuzatuv kengashi
KPI	Key Performance Indicator — Asosiy samaradorlik ko'rsatkichi
kVt	Kilovatt
LTIFR	Lost Time Injury Frequency Rate — Ish vaqtida vaqtincha mehnat qobiliyatining yo'qotilishi bilan bog'liq baxtsiz hodisalar chastotasi koeffitsienti
MCHJ	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
MIH	Minimal ish haqi miqdori
MMvaSX	Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi
MMQ	Moddiy-madaniy qiymatlar
MQCH	Maishiy qattiq chiqindilar
MRCH	Maksimal ruxsat etilgan chiqindilar
MRT	Maksimal ruxsat etilgan tashlama
MVt-soat	Megavatt-soat
N ₂ O	Azot chala oksidi
NO _x	Azot oksidlari
OAJ	Ochiq aksiyadorlik jamiyati

Qisqartmalar	Tasnifi
OAV	Ommaviy axborot vositalari
OTB	Osiyo Taraqqiyot Banki (Asian Development Bank, ADB)
PAXA	Ichki audit professional amaliyotining xalqaro asoslari
PF	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni
PQ	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
QFES	Quyosh fotoelektr stansiyalari
QGT	Quduqdagi geofizik tadqiqotlar
QTM	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari
SanQvaN	Sanitariya qoidalari va normativlari
SOx	Oltinugurt oksidi
TT	Texnik topshiriq
UzSAMA	O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
UX	Uglevodorod xomashyosi
VSP	Vertikal seysmik profillash
XMT	Xalqaro mehnat tashkiloti
XTMI	Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi
YM	Yonilg'i-moylash materiallari
YTT	Yakka tartibdagi tadbirkor
O'RQ	O'zbekiston Respublikasi qonuni
Scope 1	Tashkilotning bevosita issiqxona gazlari emissiyasi
Scope 2	Sotib olingan energiya bilan bog'liq bilvosita issiqxona gazlari emissiyasi
2D	Ikki o'lchamli seysmorazvedka
3D	Uch o'lchamli seysmorazvedka

Qisqartmalar	Tasnifi
HSE	Health, Safety and Environment — Sog'liq, xavfsizlik va atrof-muhit
EMS	Environmental Management System — Ekologik boshqaruv tizimi
ESG KPI	ESG samaradorlik ko'rsatkichlari

4-ilova. Bog'lanish uchun ma'lumotlar

GRI 2-1, 2-3

ESG va barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha aloqa

📍 **Manzil:**100037, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani, Buyuk kelajak ko'chasi, 5-uy

☎ **Telefon:**(+998 71) 264-84-94
(+998 97) 150-85-58

🌐 **Korporativ veb-sayt:**www.uzbekgeofizika.uz

✉ **Elektron pochta:**(antimonopoly@uzbekgeofizika.uz)

ESG hisoboti bo'yicha mas'ul shaxs

Farhod Riskiyev Fatxulla o'g'li

Yetakchi muhandis, ESG hisoboti koordinatori



“Ushbu hisobot “O'zbekgeofizika” AJning barqaror rivojlanish, ekologik mas'uliyat, ijtimoiy barqarorlik va korporativ boshqaruv tamoyillariga sodiqligini aks ettiradi. Hisobot yuzasidan taklif va mulohazalar kompaniya uchun muhim ahamiyatga ega.”

5-ilova. 2026-yil uchun ESG yo'l xaritasi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati
Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va atrof-muhit muhofazasi (Occupational health and safety - Environmental protection and climate change)			
1.	“O‘zbekgeofizika” AJ va uning tarkibidagi filiallar tomonidan hududlaridagi daraxtlar soni va turi haqida ma’lumotlarni Tog’-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan belgilanadigan shakl asosida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlariga taqdim etish.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va kelishilgan shakl asosida daraxtlar soni va turi haqida ma’lumotlar taqdim etib borish.	Yil davomida
2.	“O‘zbekgeofizika” AJda ISO14001:2015 “Ekologiya menedjmenti tizimi” muvofiqlik sertifikatini bo‘yicha ikkinchi nazorat auditi o‘tkazish.	“O‘zbekgeofizika” AJ va uning tizimidagi filiallarda geologiya-geofizika obyektlarida mehnatni muhofaza qilish hamda ekologiya sohasi bo‘yicha joylarga chiqqan holda nazorat auditini amalga oshirish.	2026 yil aprel oyi
3.	Dala geofizik qidiruv ishlari natijasida payhon bo‘lgan ekin maydonlari va o‘rmon ho‘jaligi yerlari uchun rekultivatsiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.	1. Payhon bo‘lgan maydonlarni aniqlash va ko‘lamini baholash. 2. Rekultivatsiya ishlari yakuni bo‘yicha qabul qilish va hujjatlashtirish. 3. Payhon bo‘lgan maydonlar zararini qoplash uchun tomonlar o‘rtasida tuzilgan servitut shartnomasi talablari asosida kompensatsiya to‘lovini amalga oshirish.	Yil davomida
4.	Suv iste‘molini optimallashtirish va nazorat qilish tizimini joriy etish.	Har bir obyekt uchun avtomatik suv hisoblagich va monitoring tizimi o‘rnatib, hisoblagichlarni yagona onlayn monitoring tizimiga ulash va tizim orqali har oylik suv sarfi hisobotlarini avtomatik shakllantirish.	Yil davomida
5.	Elektr energiyasi sarfini kamaytirish va energiya auditi o‘tkazish.	“O‘zbekgeofizika” AJ va unga qarashli filiallarda quyosh panellari mavjud bo‘lmagan obyektlarga quyosh panellari o‘rnatish. Energiya iste‘molini qisqartirish maqsadida, ichki xonalarda ishlab turgan yoritish chiroqlarini me‘yor bo‘yicha qisqartirish.	Yil davomida
6.	Chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish va xavfli chiqindilarni boshqarish tizimini kuchaytirish.	1. Hududdagi sertifikatga ega bo‘lgan chiqindi qayta ishlovchi tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirib, ular bilan chiqindilar turiga qarab shartnoma tuzish. Har oyda chiqindi topshirish grafigi va qabul-qayta ishlash aktlar bo‘yicha ekologiya hisobotlarini yuritish. 2. Xavfli chiqindilarni alohida tartibda saqlash va utilizatsiya qilish. Bunda xavfli bo‘lgan chiqindilar (akkumulyator, moy, filtrlardan chiqindilar, reagentlar, bo‘yoqlar) uchun maxsus izolyatsiyalangan saqlash hududi ajratish.	Yil davomida

		Xodimlar uchun xavfli chiqindilar bilan ishlash bo'yicha o'quv-treninglar o'tkazish.	
7.	2026-yilga mo'ljallangan “Munosib mehnat” bo'yicha Jamiyat dasturini amalga oshirish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlar salomatligini tizimli nazoratga olish bo'yicha Yo'l xaritasini ishlab chiqish.	<p>1. Jamiyatda ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar, ishlab chiqarish bilan bog'liq kasalliklar hamda ularning qayd etilish mexanizmini batafsil tahlil qilish.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Statistik ma'lumotlarni yig'ish; • Har bir holat bo'yicha sabab-oqibat tahlili; • Xavf-xatar darajasini baholash hamda takomillashtirish choralarini belgilash “near miss” tahlili asosida “Xavf-xatarlarni baholash” tizimini avtomatlashtirish. <p>2. Xodimlarning sog'lig'ini nazorat qilishni kuchaytirish maqsadida har yili ularni belgilangan tartibda davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazish.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tibbiy ko'rik natijalarini yig'ish va tahlil qilish; • Sog'liq bilan bog'liq xavf omillarini aniqlash; • Profilaktik choralar bo'yicha takliflar ishlab chiqish. <p>3. O'tkazilgan tahlil natijalari asosida ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlikni oshirish, xodimlar salomatligini muhofaza qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amaliy choralarni belgilash.</p> <p>4. Jamiyatda baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida, ishchi xodimlarining ish jarayonida maxsus himoya vositalaridan doimiy foydalanishi nazorati.</p> <p>5. Barcha ishchi xodimlarni davriy va navbatdan tashqari mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalardan o'tkazib borish.</p> <p>6. Jamoa shartnomasiga asosan imtiyozli ravishda xodimlar va ularning oila a'zolari uchun “O'zbekgeofizika” AJ klinik shifoxanasida salomatliklarini yaxshilash va O'zbekiston Kasaba Uyushmasi Federatsiyasi tomonida tasdiqlangan sanatoriyalarga imtiyozli yo'llanmalarni davomli amalga oshirish.</p>	Yil davomida
8.	“O'zbekgeofizika” AJda ISO45001:2018 “Salomatlik muhofazasi va mehnat xavfsizligini ta'minlash menedjmenti” muvofiqlik sertifikatini bo'yicha ikkinchi nazorat auditi o'tkazish.	“O'zbekgeofizika” AJ va uning tizimidagi filiallarda geologiya-geofizika obyektlarida mehnatni muhofaza qilish hamda ekologiya sohasi bo'yicha joylarga chiqqan holda nazorat auditini amalga oshirish.	2026 yil aprel oyi

9.	Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining xavfsizligini nazorat qilib borish.	Jamiyat tizimidagi "Xavfli ishlab chiqarish obyektlari"ning doimiy nazorati, xavfsizligi, qoida va me'yoriy hujjatlar yuritilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 271-son Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining "Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta'minlash" qoidalariga asosan olib borilishi.	Doimiy
10	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlar talablari asosida xodimlarni o'qitish.	Jamiyatdagi ishchi xodimlarni tegishli yo'nalishlar bo'yicha o'qitish; <ul style="list-style-type: none"> • Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi; • Ishlab chiqarish va sanoat xavfsizligi; • Radiatsiyaviy manbalar xavfsizligini ta'minlash; • Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; • Xavfli ishlab chiqarish obyektlariga xizmat ko'rsatish; 	Doimiy
Ijtimoiy javobgarlik (Social responsibility)			
11	"Bir murojaat — natija" tamoyili asosida xodim murojaatlarini o'rganish, ularni tezkor va sifatli ko'rib chiqish, huquqiy masalalar bo'yicha uslubiy-amaliy yordam ko'rsatish va sayyor qabullarni samarali tashkil etish.	<p>1. Xodim murojaatlarini qabul qilish tizimini takomillashtirish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Onlayn va oflayn shakllarda murojaatlarni qabul qilishning qulay va samarali mexanizmini joriy etish. • Murojaatlarni ko'rib chiqish jarayoniga mas'ul shaxslarni belgilash va ularning javobgarligini kuchaytirish. • Har bir murojaatni o'z vaqtida ko'rib chiqish va xodimga rasmiy, aniq natija taqdim etish. <p>2. Murojaatlarni o'rganish va natijalarning shaffofligini ta'minlash</p> <ul style="list-style-type: none"> • Har bir murojaat bo'yicha asosli javob yoki tushuntirish berish. • Hal etilgan va hal etilishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha monitoring yuritish. • Tahlil natijalarini ichki axborot tizimlarida yoritib, ochiqlik va ishonchni oshirish. <p>3. Sayyor qabullarni samarali tashkil etish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Sayyor qabullar bo'yicha tegishli ijroiya qarorini ishlab chiqish va mexanizmlarni rasmiylashtirish. • Yillik/choraklik jadvalni shakllantirish va xodimlarni oldindan xabardor qilish. • Qabullarni yuqori saviyada o'tkazish, huquqiy maslahatlar berish va masalalarni imkon qadar joyida hal etish. <p>4. Huquqiy-uslubiy yordam ko'rsatish va qayd etish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Kasaba uyushma qo'mitalari bilan birgalikda amaliy va metodik 	Yil davomida

		<p>yordam ko'rsatish.</p> <p>Qabul jarayonida aniqlangan muammolarni rasmiy tartibda qayd etish va ular bo'yicha amaliy choralarini belgilash.</p>	
12	<p>Xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiya darajasini baholash maqsadida muntazam ichki so'rovnomalarni tashkil etish va ularning natijalarini kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda o'rganish hamda nofinans hisobotlarga kiritish.</p>	<p>1. So'rovnoma shakllarini ishlab chiqish. Ishga qoniqish, maqsadni anglash, stress darajasi, ishchi muhit, xodimning motivatsiyasi va mahsulot sifati haqidagi fikrlarni qamrab oluvchi savollar bo'yicha kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan birgalikda standartlashtirilgan so'rovnoma shakli ishlab chiqiladi.</p> <p>2. So'rovlarni o'tkazish tartibini belgilash. So'rovlar oylik yoki choraklik shaklda onlayn (Google Forms, ichki portal) va oflayn (qog'oz shakli) ko'rinishda tashkil etiladi. Anonimlik va xodimlar erkin fikr bildirishini ta'minlash bo'yicha tartiblar qayd etiladi.</p> <p>3. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish. Har bir so'rovnoma yakunida olingan ma'lumotlar kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda tizimlashtiriladi, tahlil qilinadi va xodimlarning qoniqish, motivatsiya hamda ish muhiti bo'yicha dinamikasi aniqlanadi.</p> <p>4. Natijalarni rahbariyat va xodimlarga yetkazish. Tahlil natijalari asosida ichki axborot maydonida (ichki portal, axborot stendlari, yig'ilishlar) ma'lumotlar taqdim etiladi, muammoli yo'nalishlar bo'yicha taklif va choralar ishlab chiqiladi.</p> <p>5. Natijalarni nofinans hisobotlarga kiritish. So'rovlar asosida shakllangan statistik tahlillar, xodimlarning fikrlari va asosiy ko'rsatkichlar yillik nofinans hisobotlarda muntazam yoritib boriladi.</p>	<p>Yil davomida</p>
13	<p>Jamiyat xodimlarining ijtimoiy faolligini oshirish madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlariga keng jalb etish, sog'lomlashtirish dasturlarida ishtirok etishlari uchun sharoitlar yaratish.</p>	<p>1. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar monitoringi Tasdiqlangan yillik reja asosida xodimlar ishtirokidagi barcha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'tkazilishi, mazmuni va samaradorligi bo'yicha doimiy monitoring yo'lga qo'yiladi. Monitoring natijalari tahlil qilinib, takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantiriladi.</p> <p>2. Xodimlar uchun sport tadbirlarini tashkil etish "Yoshlar dasturi" hamda Kasaba uyushmasining "Ish rejasiga" muvofiq:</p> <ul style="list-style-type: none"> • korxonada miqyosida muntazam sport musobaqalari, turnirlar, sog'lomlashtirish mashg'ulotlari tashkil etiladi; • xodimlarning jismoniy faolligini oshirish va jamoaviylikni mustahkamlashga qaratilgan sog'lom 	<p>Yil davomida</p>

		<p>turmush tarzini targ'ib etuvchi tadbirlar o'tkaziladi.</p> <p>3. Xodimlarning yugurish marafonlari va ommaviy sport tadbirlarida ishtiroki</p> <p>Xodimlarning turli ommaviy yugurish marafonlari, velomarafonlar, piyoda yurish aksiyalari va boshqa sport tadbirlarida faol ishtirok etishlari uchun:</p> <ul style="list-style-type: none"> • zarur tashkiliy yordam, • jihozlar, • transport, • tibbiy va texnik ko'mak ko'rsatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi. <p>4. Kasb kasalliklarining oldini olishga qaratilgan sog'lomlashtirish faoliyati</p> <p>Kasb kasalliklari va ortiqcha ruhiy yuklamalarning oldini olish maqsadida:</p> <ul style="list-style-type: none"> • har oyda turli sport mashg'ulotlari, • jismoniy chiniqtirish dasturlari, • sog'lomlashtirish mashg'ulotlari tizimli ravishda tashkil etiladi. <p>5. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yillik va choraklik hisobotlar</p> <p>Bajarilgan madaniy, ijtimoiy va sport tadbirlari yuzasidan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • statistik ma'lumotlar, • ishtirokchilar soni, • natijalar, • sarf-xarajatlar, • tahliliy xulosalar <p>keltirilgan choraklik va yillik hisobotlar rahbariyatga taqdim etib boriladi.</p> <p>6. Tadbirlarni axborot maydonida yoritib borish</p> <p>O'tkazilgan madaniy, ma'rifiy va sport tadbirlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ommaviy axborot vositalari, • korxonaning rasmiy veb-sayti, • ijtimoiy tarmoqlar, <p>korporativ axborot kanallari orqali yoritilib boriladi.</p>	
14	<p>“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” shiori ostida xodimlar va ularning oila a‘zolarini Respublikamizning tarixiy shaharlari hamda o‘z hududlaridagi diqqatga sazovor joylar, ziyoratgohlar hamda mustaqillik yillarida bunyod etilgan inshootlarga sayohatlarini uyushtirish.</p>	<p>1. “O‘zbekgeofizika” AJ xodimlarning 2026-yil yanvar-dekabr oylarida sayohatlarini tashkil etish yuzasidan reja-grafik jadvali ishlab chiqish.</p> <p>2. Reja-grafik asosida har oyda xodimlar uchun ichki sayohatlarni tashkil etish.</p> <p>3. Har oyda xodimlarning ro'yxatini shakllantirish va bosqichma-bosqich sayohatlarni tashkil etish.</p> <p>4. Ushbu sayohatlarni OAV, jamiyatning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish.</p>	Yil davomida
15	<p>Xodimlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga moddiy-ma'naviy yordam ko'rsatish mexanizmi bo'yicha tizimli ishlash.</p>	<p>1. Xodimlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish</p> <p>1.1. Murojaatlar asosida moddiy yordam ko'rsatish</p>	Yil davomida

		<p>Jamoa shartnomasi va amaldagi ichki tartib-qoidalarga muvofiq:</p> <ul style="list-style-type: none"> • xodimlarning yozma murojaatlari asosida moddiy yordam ko'rsatish jarayoni; • murojaatlar ko'rib chiqish mezonlari; • yordam turi va miqdorini belgilash tartibi tizimli ravishda tashkil etiladi. <p>1.2. Doimiy moddiy va ma'naviy yordam mexanizmini shakllantirish Xodimlarning turmush sharoiti, sog'lig'i, oilaviy vaziyatidan kelib chiqib:</p> <ul style="list-style-type: none"> • og'ir ijtimoiy ahvolga tushgan xodimlar, • uzoq muddatli davolanishga muhtoj xodimlar, • ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga <p>doimiy asosda moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish tartibi ishlab chiqiladi.</p> <p>2. Nogironligi bo'lgan xodimlar va ularning farzandlarini qo'llab-quvvatlash</p> <p>2.1. Jamoa shartnomasi doirasida maqsadli yordam ko'rsatish Nogironligi bo'lgan xodimlar hamda nogironligi mavjud bo'lgan xodim farzandlariga:</p> <ul style="list-style-type: none"> • moddiy yordam; • rehabilitatsiya bo'yicha ma'naviy-psixologik yordam; • ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantiriladi va amaliyotga joriy etiladi. <p>3. Bayramlar arafasida ehtiyojmand oilalar va xodimlarni qo'llab-quvvatlash</p> <p>3.1. Bayram hadyalarini tarqatish Mahalliy bayramlar, davlat sanalari va kasb bayramlari arafasida:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kam ta'minlangan xodimlar, • ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, • yolg'iz ota-onalar, ko'p farzandli oilalar <p>uchun bayram sovg'alari va moddiy yordamlarni taqdim etish tadbirlari o'tkaziladi.</p> <p>3.2. Ijtimoiy ahvolni yaxshilashga qaratilgan ma'naviy ko'mak Bayram tadbirlari davomida xodimlar va ularning oila a'zolari uchun:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, • ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadbirlari <p>tashkil etiladi.</p> <p>4. Tashkilot hududiga yaqin mahallalarda istiqomat qiluvchi ehtiyojmand oilalarga ko'mak</p> <p>4.1. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish Kompaniya hududiga yaqin mahallalarda yashovchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kam ta'minlangan, 	
--	--	---	--

		<ul style="list-style-type: none"> • nogironligi bo'lgan, • ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga zarur oziq-ovqat mahsulotlari tarqatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi. <p>4.2. Mahalla bilan hamkorlikni kuchaytirish Mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlikda:</p> <ul style="list-style-type: none"> • yordamga ehtiyojmand oilalarni aniqlash, • yordam turlarini belgilash, • manzilli yordam ko'rsatish tizimi shakllantiriladi. <p>5. Amalga oshirilgan tadbirlarni yoritish</p> <p>5.1. Shaffoflikni ta'minlash O'tkazilgan moddiy yordam, mehr-sahovat aksiyalari va ijtimoiy tadbirlar haqida:</p> <ul style="list-style-type: none"> • rahbariyatga muntazam hisobot taqdim etish, • jamiyatning rasmiy sayti, • ijtimoiy tarmoqlar, <p>OAV orqali ma'lumot berib borish.</p>	
16	Xotin-qizlar faolligini qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy-siyosiy hamda kasbiy faolligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Xotin-qizlar uchun turli yo'nalishlarda treninglar, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar va motivatsion dasturlarni muntazam tashkil etish. 2. Sport tadbirlarida xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish, jismoniy faollikni oshirish bo'yicha maxsus tashabbuslarni joriy etish. 3. Kasbiy bilim va malakalarini mustahkamlash maqsadida qisqa muddatli o'quv kurslari, malaka oshirish dasturlari hamda hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan shartnomalar asosida kontrakt to'lovlariga ko'maklashish orqali xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash. 4. Rahbarlik lavozimlariga munosib xotin-qizlar nomzodlarini ko'rib chiqish va ularni boshqaruv jarayonlariga jalb qilish bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirish. 5. Jamoa shartnomasiga muvofiq ayol xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmini izchil davom ettirish. 6. "Xalqaro xotin-qizlar bayrami" munosabati bilan yuqori saviyada bayram tadbirlarini, ijodiy chiqishlar va "Balli qizlar" tanlovini tashkil etish. 7. 2026-yili uchun "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashi" yillik ish rejani ishlab chiqish va amalga oshirish monitoringini yuritish. 8. Oliy Majlis va Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol Respublika tashkiloti" nominatsiyada g'olib bo'lish uchun tizimli ishlarni olib borish. 	Yil davomida

		<p>9. Gender tenglikka oid ma'lumotlarni OAV, jamiyatning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish.</p>	
17	<p>Yosh xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularning faolligi va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar</p>	<p>1. Jamiyat miqyosida "Yoshlar dasturi"ni ishlab chiqish, tasdiqlash va uning ijrosini muntazam monitoring qilib borish.</p> <p>2. Yosh xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy, sport, ijtimoiy-siyosiy tadbirlar hamda ekskursiyalarda faol ishtirokini ta'minlash.</p> <p>3. Yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'quv kurslari, treninglar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish; hamkor institutlar bilan aloqalarni kengaytirish va o'qish xarajatlarini qoplash mexanizmini yo'lga qo'yish.</p> <p>4. Boshqaruv tizimida yoshlar salohiyatidan foydalanish maqsadida rahbarlik lavozimlariga munosib yosh xodimlar nomzodlarini ko'rib chiqish va ularning rahbarlikka tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish.</p> <p>5. Rahbariyat va yoshlar o'rtasida muntazam uchrashuvlar o'tkazib borish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida yoshlarning tashabbus va takliflarini erkin bildirishiga sharoit yaratish.</p> <p>6. Yoshlarning jamiyat taraqqiyoti uchun innovatsion g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash, tanlov va grant dasturlarida ishtirokini rag'batlantirish.</p> <p>7. Xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiya, forum va seminarlarida yosh xodimlar ishtirokini ta'minlash.</p> <p>8. Hamkor tashkilotlar bilan tajriba almashish dasturlariga yoshlarni jalb qilish, xizmat safari va amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish.</p> <p>9. Yosh va iqtidorli kadrlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish orqali xalqaro musobaqa va tanlovlarda ishtirokini rag'batlantirish.</p> <p>10. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ularga oid muammolarni o'rganish, muntazam so'rovlar o'tkazish va amaliy yechimlar ishlab chiqish.</p> <p>11. Yoshlarga oid ma'lumotlarni OAV, jamiyatning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish.</p>	<p>Yil davomida</p>
18	<p>Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) xodimlar uchun ishlab chiqish, jamoalar va alohida xodimlar darajasida ish unumdorligini baholashning kompleks tizimini yaratish</p>	<p>-baholashni o'tkazish davriyligini belgilash;</p> <ul style="list-style-type: none"> • baholash mexanizmlari va mezonlarini aniqlash; • baholashni o'tkazish uchun mas'ul shaxslarni belgilash; • jamoaviy va individual ish unumdorligini boshqarishni baholashni majburiy tarzda o'tkazish to'g'risidagi bandni kiritish orqali Jamoa shartnomasini yangilash 	<p>Yil davomida</p>

19	Xodimlarning turli toifalari uchun o'qitish bo'yicha KPIlarni belgilash	<p>– xodimlarning har bir toifasi (rahbarlar, mutaxassislar, ishlab chiqarish xodimlari va boshqalar) uchun o'qitish va rivojlantirish bo'yicha aniq asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) belgilash.</p> <p>Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> – o'quv mashg'ulotlaridan o'tilgan soatlar soni; – maqsadli seminarlar va dasturlarda ishtirok etish; – natijalarni baholash (sertifikatsiyadan o'tish, lavozim bo'yicha ko'tarilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash). 	Yil davomida
20	Xodimlar o'rtasida tenglik va xilma-xillikni ta'minlash sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish doirasida inson huquqlarini buzish yoki kamsitishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha alohida turdagi amaliyotlarni joriy etish	<ul style="list-style-type: none"> – tahqirlash va kamsitish holatlari to'g'risida maxfiy tarzda xabar berishni ta'minlaydigan tizimni ishlab chiqish, shuningdek, profilaktik va tuzatuvchi chora-tadbirlarni tezkor qabul qilish; – Jamiyat xodimlari va rahbarlari uchun tenglik va inklyuziya, kamsitishning oldini olish, shuningdek, huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarini berish va ko'rib chiqish tartibiga bag'ishlangan o'quv-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish; – kamsitishning oldini olish bo'yicha korporativ tamoyillar haqida xodimlarni doimiy ravishda xabardor qilib borish. 	Yil davomida
21	Jamiyatda joriy etilgan ISO 37001 xalqaro standarti talablarini tadbiq etish maqsadida xalqaro auditorlik kompaniyalarini jalb qilgan holda ISO 37001:2025 xalqaro standarti talablari bo'yicha Jamiyat va uning filiallari faoliyatini sertifikatlash.	<ol style="list-style-type: none"> 1. ISO 37001:2025 xalqaro standarti talablarini bajarilishini ta'minlash maqsadida o'quv kurslari tashkil etish (40 nafar xodim); 2. ISO 37001:2025 xalqaro standarti talablari bo'yicha Jamiyat faoliyatini ichki auditdan o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish; 3. Sertifikatlash uchun mas'ul bo'lgan xalqaro kompaniya bilan elektron xarid platformalari orqali shartnoma imzolash va shartnoma doirasida tashqi auditdan o'tkazish. 4. "O'zbekgeofizika" AJ va filiallari faoliyatini ISO 37001:2025 xalqaro standarti talablari bo'yicha sertifikatlash. O'quv rejasi muvofiq 	Sentabr 2026 yil
Korporativ boshqaruv hamda korporativ ijtimoiy mas'uliyat (Corporate Governance and Corporate Social Responsibility)			
22	Veb-saytda boshqaruv va nazorat organlari to'g'risidagi moliyaviy bo'lmagan axborotni oshkor etishni kengaytirish	<p>Kuzatuv kengashi, Ijroiya organ, Ichki audit xizmati, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat bo'limi, Kuzatuv kengashi qo'mitalari hamda Korporativ kotib bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni oshkor etish:</p> <ul style="list-style-type: none"> ish tajribasi ma'lumoti professional kompetensiyalari fotosurati 	Yil davomida (B)

23	ESG hisobotini yuritish masalalariga boshqaruv organlari e'tiborini kuchaytirish	Biznes-reja va Boshqaruvning yillik hisobotiga ESG bo'limlarini kiritish bo'yicha Kuzatuv kengashi va Ijroiya organiga taklif kiritish	Yil davomida (A)
24	ESG ko'rsatkichlarini takomillashtirishni rag'batlantirish	ESG ko'rsatkichlariga erishilganligi uchun mukofotlash bo'yicha takliflarni Kuzatuv kengashi huzuridagi Rag'batlantirish (mukofotlash) qo'mitasiga kiritish	Yil davomida (B)
25	ESG masalalari bo'yicha mas'uliyatni kuchaytirish	1. ESG masalalarini ko'rib chiqish vakolatini Kuzatuv kengashi qo'mitalaridan biriga yuklash 2. Boshqaruv tarkibidan mas'ul shaxsni tayinlash	Yil davomida (A)
26	Boshqaruv va nazorat organlarida gender tengligini ta'minlash	1. Kuzatuv kengashi, Ijroiya organ, Ichki audit xizmati, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat bo'limi hamda Kotibiyat tarkibini o'rganish 2. Kuzatuv kengashi, Ijroiya organ, Ichki audit xizmati, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat bo'limi hamda Kotibiyatga shakllantirish va ishga qabul qilishni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni tahlil qilish 3. Gender tengligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish	Yil davomida (C)
27	Kuzatuv kengashi ishida qog'ozdan foydalanishni qisqartirish	Kuzatuv kengashi materiallarini tayyorlashda elektron formatga o'tish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish	Yil davomida (B)
28	ESG Vision / Business Case'ni shakllantirish, integratsiya qilish va e'lon qilish	<ul style="list-style-type: none"> Jamiyat uchun ESG'ning strategik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini asoslovchi ESG Vision / Business Case hujjatini ishlab chiqish ESG Vision'ni Jamiyatning strategik hujjatlari, ESG Yo'l xaritasi va ESG hisobotiga integratsiya qilish ESG Vision va "Nima uchun ESG?" pozitsiyasini Jamiyatning rasmiy veb-sayti hamda ESG hisobotida e'lon qilish va manfaatdor tomonlarga yetkazish 	Yil davomida
29	2025-yil uchun ESG hisobotini tayyorlash va jamoatchilikka e'lon qilish	<ul style="list-style-type: none"> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli Farmonining 23-bandiga muvofiq ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) holati to'g'risida yillik hisobotni tayyorlash Hisobotni Kuzatuv kengashi va Boshqaruvda ko'rib chiqish ESG hisobotini Jamiyatning rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka e'lon qilish 	1-iyul 2026-yilgacha